

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY METODIK
MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“ZAMONAVIY TA'LIM INNOVATSIYALARI”
moduli bo'yicha
USLUBIY MAJMUA**

Toshkent-2022

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va
dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchi: A.A.Odilov – O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti

Taqrizchilar: X.E.Yunusova – O‘zbekiston milliy universiteti, t.f.d., prof.
R.E.Xaliquova – Toshkent davlat texnika universiteti, t.f.d., prof.

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	21
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	104
VI. GLOSSARIY	107
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	114

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Mashg'ul ot turi		O'tkazilgan sanasi	O'qituvchi imzosi
		Nazariy	Amaliy		
1	Zamonaviy ta'limga innovatsiyalari tushunchasi va ularni O'zbekiston tarixi faniga tadbiq etish.	2			
2	O'rta asrlar tarixi: yangicha talqin va yondashuv.	2	2		
3	Sovet davri tarixiga zamonaviy yondashuv.	2	2		
4	Yangi O'zbekiston – yangicha dunyo qarash.	2	2		
5	Zamonaviy ta'limga innovatsiyalari tushunchasi va ularni O'zbekiston tarixi faniga tadbiq etish.	2	2		
6	Amir Temur va temuriylar davlatchiligining jahon tarixiga tutgan o'rni.		2		
Jami: 20 soat		10	10		

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda Zamonaviy ta’lim inoovatsiyalari modulining maqsadi pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5655-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda 2022 yilda aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish natijasida barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- zamonaviy ta’lim dinamikasi va holatini o‘rganish;
- innovatsiyalar to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot ega bo‘lish;
- uzoq muddatli ta’limni rivojlanitirishga oid dasturlarini ishlab chiqish;
- O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ta’limdagi o‘zarishlar ta’siri tahlil qilish;
- globallashuv davrigacha O‘zbekistonda qadimdan, o‘rta asrlardan va yaqin tarixda sodir bo‘lgan innovatsiyalarni yaxlit o‘rganish;
- ta’limni undagi yangiliklarning sodir bo‘lish ketma ketligini tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish bilan bog‘lab o‘rganish.
- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish; - pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarning samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish; “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yilladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: Tinglovchi: - zamonaviy ta’lim – innovatsiyalar jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati;

- O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni tahlil

etish;

- globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Zamonaviy ta’lim, innovatsiyalarning asosiy tamoyillari ko‘rsatib berish;

- O‘zbekistonda ta’limda yangiliklarning tarixiy yillar davomida tizimli rivojlanib kelayotganligini ochib berish lozim.

Tinglovchi: - ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyatda qo‘llash;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib, ilmiytadqiqotlarni o‘tkazish;

- eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;

- innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimini qo‘llash.

Zamonaviy ta’lim innovatsiyalari bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mazorat ishlarimi tashkil etish;

- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston ta’lim va uning yillar davomida shakllanishigi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotni bilish;

- mustaqil O‘zbekistondagi ta’lim va innovatsiyalarni fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

- ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish;

- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi: - O‘zbekiston tarixi fanining dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

Ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;

- O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishslash;

- videodarslarni tayyorlash;

- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida uzoq muddatli ta’limdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspresso‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy ta’lim innovatsiyalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim, zamonaviy jihatlari, shakllangan bosqichlari va unga ta’siri, innovatsiya jarayonlardagi o‘zgarishlarning nazariy jihatlarini tahlil qilish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Modulning oliv ta’limdagi o‘rni Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida mustaqillik yillari amalga oshirilgan islohotlar, natijalar va muammolar, Yangi O‘zbekiston ta’lim rivojlanishini chuqurroq o‘rganish va pedagogik amaliyotda qo‘llash kompetentligiga ega bo‘ladilar.

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

ZAMONAVIY TA’LIM INNOVATSIYALARI TUSHUNCHASI VA ULARNI O‘ZBEKISTON TARIXI FANIGA TADBIQ ETISH.

1.1 Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ahamiyati.

1.2 O‘zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Antropogenez jarayoni

1.3 Ibtidoy jamoa tuzumi davrlari.

1.4 Ilk davlatlar. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sug‘d (Sug‘diyona) davlatlari.

O‘RTA ASRLAR TARIXI: YANGICHA TALQIN VA YONDASHUV.

2.1 Renessans davri tushunchasi. O‘rta Osiyoda uyg‘onish davri madaniyatining belgilari. Ma’mun akademiyasi - yirik ilmiy markaz.

2.2 Amir Temur va Temuriylar davri tarixi

2.3 O‘zbek xonliklari davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari

2.4 Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati.Jadidchilik.

SOVET DAVRI TARIXIGA ZAMONAVIY YONDASHUV.

3.1 Sovet davri tarixiga yangicha yondoshuv mohiyati

3.2 Qurolli qarshilik harakati tarixi

3.3 Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari

3.4 Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.

YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYO QARASH.

4.1 O‘zbekiston tarixi faniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etilishining ahamiyati.

4.2 Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyo qarash

4.3 Mustaqillik yillari tarixini “Bumerang”, “Klaster”, “Krossvord” va (feedback) savollari anketasi vositalarida o‘rganish.

4.4 Yangi O‘zbekiston davrini raqamli ta’lim resurslari yordamida o‘rganish. Tarix darslarida 21 asr ko‘nikmalarini shakllantirish.

ZAMONAVIY TA’LIM INNOVATSIYALARI TUSHUNCHASI VA ULARNI O‘ZBEKISTON TARIXI FANIGA TADBIQ ETISH.

1.1 Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ahamiyati.

1.2 O‘zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Antropogenez jarayoni

1-topshiriq.

Innovatsyaning davlat va jamiyat rivojidagi o‘rni.

Aqliy hujum qilib, baliq skleti metodida joylashtiring.

2-topshiriq.

Antropogenez o‘zarishlar ketma-ketligini tuzib chiqing?

Ushbu holatini klaster ko‘rinishida tushuntiring

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
2. Ahmedov B.A. O‘zbek ulusi. Toshkent: Meros, 1992.
3. Ashirov A., Atadjanov SH. EtnologiY. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.
4. Bromley Y. Ocherki teorii etnosa. – M.: Nauka, 1983.
5. Vishnevskaya O.A. Kultura sakskix plemen nizovyev Sirdari v VII-V vv. do n.e. – M.: Nauka, 1983.
6. Gumiroy L.N. Etnogenezi biosfera zemli. – M.: Nauka, 1993.
7. Karmisheva B.X. Ocherki etnicheskoy istorii yujnix rayonov Tadzhikistana i Uzbekistana. M.: Nauka, 1976.

8. Kratkiy etnologicheskiy slovar. – M.: Sotsialniy monitoring, 2000.
9. Kuzmina YE.YE.Otkuda prishli indoarii? Materialnaya kultura plemen andronovskoy obshnosti i proisxojdjeniye indoiransev. – M., 1994.
10. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
11. Rtveladze E.V., Sagdullayev A.S. Sovremenniye mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii / Izdaniye 2-ye, dopolnennoye. – Tashkent, 2007.
12. Xodjayov T.K. O'zbek xalqi etnogenezi tarixidan. – Toshkent, 1995.
13. Xodjayov T.K., Xodjayova G.K. Istoricheskaya antropologiya. Uzbeki. – M.: Nauka, 2011.
14. Shoniyozi K.SH. Qang‘ davlati va qang‘lilar. – Toshkent: Fan, 1990.
15. Shoniyozi K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Fan, 2001.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINING JAHON TARIXIGA TUTGAN O'RNI.

Nazorat savollari

- 2.1. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligi tarixida qanday voqealar sodir bo'ldi.
- 2.2. Ikkinchi Renessansning – rivoji nima?

1-topshiriq.

Amir Temur davrida qanday davlat institutlari shakllantirildi?
Klaster tuzing.

2-topshiriq.

O'zbekistonda o'rta asrlarda innovatsiyalarning yuz berishi va holatini klaster ko'rinishida tushuntiring.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Nelson R. Timur is mil itary strategist and geopolitical. It modern interpretation in world history — T., 1996, P. 17-19.
3. The Cambridge history of Iran the Timurid and Safarid Period, № 6, Cambridge University Press.
4. Spuller Bertold Timur // The pnomogol Period. History of the muslim world. Leiden. Brill, 1960, copyright, 1969, 1994.
5. O'ljayeva SH. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2005.

6. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
7. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
8. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar) - Toshkent:O‘zbekiston NMIU, 2010.
9. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2014.

MUSTAQILLIK DAVRI TARIXINI O‘RGANISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI.

Nazorat savollari

- 4.1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonda Prezident institutining joriy etilishi.
- 4.2. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ning tahlili.

1-topshiriq.

1985-1990 yillardagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?
Analitik tahlil qilib, B-B-B jadvaliga joylashtiring!

2-topshiriq.

O‘zbek modeli va taraqqiyot strategiyasini tahlil qilib, klaster ko‘rinishida tushuntiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga qoramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
- 2.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishlari buyicha Harakatlar strategiyasi
- 3.O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. -T.: “Sharq”, 2000.
4. I.Shamsiyeva, L.Maxmutxodjayeva, F.Usarova. Interaktivniye metodi obucheniya istorii Uzbekistana. T., 2019

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot”ning Venn diagrammasi.



Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘diyona davlatlarining umumiyligi belgilari:

1. Davlatchilikning barcha ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan: shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo –sotiq.

**“Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson” mavzusi yuzasidan
“Qanday voqeal yuz berdi ? Qachon? Nimani anglatadi? jadvali**

<i>Qanday voqeal yuz berdi?</i>	<i>Qachon?</i>	<i>Kim? (Qaysi tarixiy shaxs bilan bog‘liq voqeal?)</i>	<i>Voqealning sabab yoki oqibati</i>
Samarqand egallandi.	1405 yil 18 mart	Xalil Sulton	O‘zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e’lon qildi.
Xalil Sulton Movarounnahrdan voz kechdi	1409 yil	Xalil Sulton	Shohruh bilan tuzilgan shartnomasi natijasida
Shohrux Mirzo Samarqandni egallaydi	1409 yil may	Shohrux Mirzo	15 yoshli Mirzo Ulug‘bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi.
Mo‘g‘uliston xoni Shermuhammad o‘g‘longa qarshi harbiy yurish	1425 yil bahorda	Mirzo Ulug‘bek	Ulug‘bek mo‘g‘ullar ustidan halaba qozonadi va mahalliy muxolifatchi

			kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi.
Sig‘noq yaqinida	1427 yil	Mirzo Ulug‘bek	Baroq o‘g‘lon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklar qo‘smini bilan to‘qnashgan va mag‘lubiyatga uchragan
Jizzax yaqinida Ilono‘tti darasi ichida o‘ziga xos “zafarnoma” qoyatoshga yozdiriladi.	1428 yil	Mirzo Ulug‘bek	Mo‘g‘ulistonda bo‘lgan urushda qozonilgan g‘alabaning nishoni sifatida.
Ulug‘bek rasadxonasi	1428-1429 yillar	Mirzo Ulug‘bek	Osmon jismlarini tadqiq qilish uchun bunyod etilgan.
Temuriylarga qarshi isyon	1410 yil	Turkiston hokimi Shayx Nuriddin	Xalil Sultonning hokimiyatni noqonuniy egallab olishi.
Buxoroda madrasa bunyod etildi	1417 yil	Mirzo Ulug‘bek	Ulug‘bek farmoni bilan
Hirotdagi kutubxonada “Shohnoma” dostoni ko‘chirilib, 20 turli mazmun va manzarali rangdor miniyaturlar bilan bezatilgan.	1429 yil	Boysung‘ur	Nodir qo‘lyozma asarlardan nusxa ko‘chirish uchun

“Jadidchilik”. “Chaynvord” .

Nº		Javobi
11884 yilda Qrimdagi Boqchasarov shahrida jadid maktabini ochadi va u “usuli savtiya tadrijiya” (.....tovush usuli).	Gasprinskiy, rivojlanuvchi

2	Munavvar Qori o‘zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: “.....tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onligi barchangizga ma’lumdir”.	Turkiston
31888 yilda “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobini nashr etib jadid maktablarining qurilishi, dars o‘tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi.	Gasprinskiy
4	Munavvar Qori 1906 yilda “Xurshid” (.....) jurnalini tashkil etib, unga o‘zi muharrirlik qilgan.	Quyosh
5	Uning asl ma’nosи “Ibratxona” yoki “ ulug‘lar maktabi degan so‘zdir”	Teatr
6	“Savtiya (tovush)”usulining boshqacha nomi	Usuli jadid
71919 yilda Buxoro amirligining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olinadi va “sho‘roning ayg‘oqchisi”, jadid, sho‘roga sotilgan degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi	Bexbudiy
8	Jadidlarga bir tomondan, mutaassib....., ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma’murlar qarshilik ko‘rsatdilar.	Ruhoniylar
9	1914 yilda Asadullaxo‘ja Ubaydullaxo‘jayev tuzganfirqasining “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalari chiqariladi.	Taraqqiyparvar
10	1904 yilda Xivada “Jamiyatı” tuzilib, uning ko‘magi bilan 1904-yil 10-noyabrda Xiva shahrida dastbalki yangi usul maktabi ochildi.	Xayriya
11	1908 yili Buxoroda ma’rifiy jamiyat –“Tarbiyai” (“Bolalar tarbiyasi”) tashkil etilgan.	Atfol
12.	1909-yilda Toshkentda Munavvar Qori tomonidan “Jamiyatı.....” tuzilgan. U miskin va ojiz talabalarga yordam berar, chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashgan.	Imdodiya
13.	Musulmon drama san’ati havavskorlari jamiyatı –“Turon” nomli tetar truppassi 1913 yilda Toshkentda ochilib, o‘z faoliyatini 1914 yil 27 fevralda Toshkentdagı “.....” teatri binosida “Padarkush” spektakli bilan boshlagan.	Kolizey
14	“Padarkush” pyesasida islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tmoshabin e’tiborini najot yo‘li -uni esa “poklangan din” bera oladi, degan g‘oyaga qaratadi.	Maorif
15	“.....” (1915-1918 yy)- turkistonlik jadidlar va so‘l ulamolar jurnali. Muharriri Abdurahmon Sodiq o‘g‘li (Sayyyoh). Islom dinini isloh qilishga urinilgan.	“Al-isloh”
16.	“Kengash” gazetası.(1917-yil iyun-sentabr). Turkiston musulmonlari Markaziy sho‘rosining nashri. Gazetaga dastlab tarixchi olim, keyinchalik Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirlik qilgan. “Kengash” Turkiston Muxtoriyati g‘oyasini keng targ‘ib qilgan.	Ahmad Zaki Validiy

17	Jadidlar milliy..... va miliy asos solganlar.	Teatr va matbuot
18	Birinchi bo‘lib (Husaynov mablag‘i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1989 yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yili To‘qmoqda (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni “..... maktab” deb atagan) , 1899 yilda Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi.	No‘g‘oy
19	Jadid maktablari pullik va pulsiz edi. Hay oyiga otanonalar baholi qudrat , bir so‘mdan bir yarim so‘mgacha pul to‘lardi.% gacha kambag‘al va nochorlarning bolalari tekin o‘qilib, o‘quv qurollari bilan ham ta’minlangan.	20-35
20	Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyarvarlar, keyinchalik..... deb atashgan.	Burjuaziya, jadidlar

4-ilova.

“Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi” SWOT-tahsil

S	Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimining kuchli (yoki ijobjiy)tomonlari	Sivilatszion taraqqiyotning ba’zi jihatlari kirib keldi: dunyoviy ilm-fan va maorif, savdo va tijorat yuritish tajribasi, temir yo‘l qurilishi.
W	Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimining kuchsiz (yoki salbiy) tomonlari	Turkistonni boshqarish tizimi va idora etish usullari birinchi navbatda yerli aholini emas, Rossiya manfaatlarini har tomonlama himoya qilishi, Turkistonni rus burjuaziysi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.
O	Turkistonni boshqarishda mustamlakachi tizimning imkoniyatlari	Rus ma’murlari mustamlaka o‘lkani boshqarishda qator imkoniyatlar va ustunliklarga ega bo‘lishgan. Xususan, , boshqaruvning harbiy xarakterda ega ekanligi mahalliy xalqni doim qo‘rquvda va itoatkor tutishi uchun xizmat qilgan.
T	Turkistonni boshqarishdagi mustamlaka tizimining zararli tomonlari	birinchidan , mahalliy xalqning siyosiy va fuqarolik huquqlari poymol etildi; ikkinchidan , ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanib, iqtisodiy muvozanat buzildi va mustabid davlatga qaramlik kuchaydi, uchinchidan , mahalliy xalqning turmush darajasi pasayib ketdi; to‘rtinchidan , O‘rta Osiyo Rossianing xomashyo bazasiga aylantirildi; beshinchidan , mustamlaka hudud jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda qoldi.

KEYSNI TAHLIL QILISH UCHUN SAVOLLAR:

- Madaminbekning siyosiy qiyofasini tasvirlang. (3-4 ta jumla yetarli).
- Uning 1918 yil yanvar oxirlarida Marg‘ilon shahar mirshabi - militsiyasi boshlig‘i lavozimidan ketishiga sabab bo‘lgan asosiy omillarini (kamida 2 ta sabab) izohlang.

- Madaminbekning qo‘rboshi sifatidagi faoliyatini bosqichlarga ajrating. Har bir bosqichning qisqa tahlilini qiling.
 - O‘z yigitlarining jonini saqlab qolish uchun sovetlar tomoniga o‘tib ketishdan boshqa muqobil chora bormidi? Madaminbek pozitsiyasidan turib hamda o‘sha davr (1918- 1920 yillar) sharoitini hisobga olgan holda uning hattiharakatlarini asoslab bering.
 - Asl Madaminbek qanday bo‘lgan: chinakam vatanparvar, jasur sarkarda, mohir diplomat yoki vaziyatga qarab ish tutuvchi rahnamomi?
- “Istiqlolchilik harakatining tarixiy ahamiyati” SWOT-tahlil.**

Istiqlochilik harakatining kuchli (yoki ijobjiy) tomonlari	Istiqlolchilik harakatining boshidan oxirigacha bir ustuvor g‘oya yotgan, bu butun Turkiya va mustaqilligi g‘oyasi. Ushbu harakat goh kuchayib, goh pasayib turishiga, unda ishtirok etishiga turganligi va ikkilamchi manfaatlar o‘zgarib turishiga hamda obyektiv va subyektiv omillar keltirishiga qaramay harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lib qolaverdi.
Istiqlolchilik harakatining kuchsiz (yoki salbiy) tomonlari	Qo‘rboshilar o‘rtasida intizomli birlik va harbiy uyushqoqlikning yo‘qligi, qurol yaqinligi, rejimming o‘z tomoniga mahalliy millat avkilarini og‘dirib olganligi hamda kurash ja‘fari, istiqlolchilarni holdan toydirdi. Shuningdek, istiqlolchilarga xorijiy davlatlarning birortasidan aksariyati qurashishiga qaramay harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lib qolaverdi.
Istiqlochilik harakatining imkoniyatlari	Uning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari: dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmanlar, shahar aholisining aksariyat qismi: o‘ziga to‘q badavlat oilalarning vakillari, samaradorlari, bo‘lgan mulla va eshonlar, qalandarlar hamda ba‘zi bolyra qo‘sildi. Shuningdek, ziyorillar hamda shaxslar orasida jadidlar orasidan ajralib chiqqan Turkiston munavvarlari va muborizlari bor edi.
Istiqlolchilik harakatining zararli tomonlari	Barcha qo‘rboshi dastalari ham milliy mustaqillik uchun kurashdilar deb bo‘lmaydi. Yani, yo‘lida to‘ntarishdan keyingi tartibsizliklar va boshboshoqlikdan foydalananib xalqni talash, boshboshoqlikdan qilganligi.

4.3. Mustaqillik yillari tarixini “Bumerang”, “Klaster”, “Krossvord” va (feedback) savollari anketasi vositalarida o‘rganish.

1-ilova.

“Case study” № 1	
	“A” shaxs o‘zining tumanida bolalarga ta’lim berish uchun bepul maktab ochdi va unda ilmiy bilimlarning boshlang‘ich bosqichida ta’lim berishga kirishdi. Qayd etib o‘tish kerakki, maktab tashkil etilganligi, ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlar cheklangan oila farzandlari uchun o‘ziga xos imkoniyatlar edi. Lekin ushbu shahar hokimi maktab faoliyatini tugatishni talab qildi va buning sababi sifatida maktab faoliyati milliy manfaatlarimizga mos kelmasligini keltirdi.
	Ushbu vaziyatni o‘ta asrlarda islom dinida ilgari surilgan “ilm olmoq, ilmu hikmatni orzu qilmoq, ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilatlari” va shuningdek, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda millat taqdiri va kelajagining ilm-ma’rifati, ta’lim va tarbiya bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil qiling. Bu muammoning yechimini 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakat strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.
Baholash:	

Avvalo, mazkur holatni tahlil qilish jarayonida talaba o‘ta asr islom dinida ilm sohasidagi ishlari, milliy ma’rifat bilan ilm o‘rgatishning bog‘liqligi, jadid adiblarining asarlari aynan

“O‘zbek modeli”ning o‘ziga xos va mos bo‘lgan milliy jihatlarini ekanligi orqali quyidagi asoslarni muhokama etish lozim:

- xalqimizning savodxonligini ko‘tarish orqali milliy ma’naviyatimizni mustaxkamlash (Yuqoridagi shahar hokimi tomonidan yo‘l qo‘yilgan e’tiborsizlik);
- Xalqimizning milliy qadriyatlarni yaxshi anglamasligi, buyuk allomalarning asarlarini yuzaki bilishi;
- Vatanparvarlik va oshkorlik (Fuqarolar tomonidan Hokimiyat idoralari, “Xalq qabulxonalariga”mazkur holat yuzasidan shikoyat orqali fuqarolik murojaatlarini yo‘llamasligi, ya’ni jonbozlik ko‘rsatmasligi;
- Xalqimiz, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligi yetarlicha emasligi.

Mazkur holatga baho berishda o‘rta asr islom dini allomalar va jadid namoyondolarining keltirilgan asoslantiruvchi fikrlari, O‘zR Prezidenti SH.Mirziyoyevning ushbu masala yuzasidan g‘oyalarni o‘rinli va asosli keltirish mazkur “case-studu”ga yuqori baho berilishi ehtimolini oshiradi.

Taxminiy baholash shakllari (10 ball misolida)

9-10 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan 4 muammoning har birini chuqur anglay olgan, o‘rta asr va jadidchilik davridagi asarlarini bilish bugungi kundagi ba’zi bir muammolarning yechimi bo‘lishi mumkinligini tahlil qilgan, jadid namoyondalari asarlaridan o‘rinli va asosli iqtiboslar keltirgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkmlagan bo‘lsa;

7-8 – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan 4 muammoning faqat 2 tasini asosli tahlil qila olgan, jadid namoyondalari asarlaridan yuzaki iqtiboslar keltirgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni anglagan, lekin aynan muammolar yechimiga oid ma’lumotlar bilan asoslanmagan bo‘lsa;

5-6 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan muammolarning faqat bittasini asosli aniqlagan, ammo o‘rta asrlarva jadidlarning muammoga joriy etish mumkin bo‘lgan asoslarini noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa; jadidchilarning asarlaridan muammoni yechimini asoslashga to‘liq mos bo‘lmasada, iqtiboslar keltira olgan bo‘lsa.

0-4 ball – talaba holatning mazmunini umuman tushunmagan, anglamagan bo‘lsa; muammolarni yuzaki tahlil qila olgan bo‘lsa; talabaning fikrlaritizimlashmagan, yakuniy xulosalar bera olmagan; jadidlarning asarlaridan muammoni yechimini asoslashga to‘liq mos bo‘lmasada, iqtiboslar keltira olgan bo‘lsa.

“Case study” № 2

“A” mahallada yashovchi afg‘on millatiga mansub bola uynash uchun ko‘pchiligi o‘zbek millatiga mansub “V” maxallaga bordi. Yosh bolalar o‘ynab o‘tirganida “S” ismi o‘zbek millatiga mansub shaxs bolalarning oldiga kelib, ushbu bola terrorchi millat farzandi bilan o‘ynamasliklari kerakligini va bu ularning xavfsizligi uchun jiddiy xavf ekanligini aytib, o‘z farzandini ular orasidan olib ketdi.

Ushbu vaziyatni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirning Harakatlar strategiyasining 5-yo‘nalishi millatlararo

totuvlik va diniy bag‘rikenlik masalalari va milliy g‘oyaning mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan jamiyat mafkurasi ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari nuqtai nazaridan tahlil qiling.

Baholash:

Avvalo, mazkur holatni tahlil qilish jarayonida talaba 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 5- yo‘nalishi “Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”ini, Prezident SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan tarixiy nutqi va BMT Xavfsizlik Kengashining (Prezidentimiz tashabbusi) “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi ahamiyatiga va millatlararo totuvlik g‘oyasining maqsadlariga asoslangan holda muhokama etish lozim:

- *Xalqimizning bag‘rikengligi, millatlararo yaxshi qo‘schnichilik tamoyillari orqali milliy ma’naviyatimizni mustahkamlash (Yuqoridagi fuqaro tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan millatchilik ruhi va bu muhitning yoshlarga salbiy ta’siri)*
- *Insonparvarlik va vatanparvarlik (fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan fuqarolar o‘rtasida, ayniqsa mahallalarda tushuntirish-targ‘ibot ishlarini olib borishda yo‘l quyilgan kamchiliklar)*

Mazkur holatga baho berishda Prezident SH.Mirziyoyevning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash borasidagi g‘oyalariiga asoslangan holda tahlil qilinsagina yuqori ball to‘plash ehtimoli oshadi.

Taxminiy baholash shakllari (10 ball misolida)

9-10 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan muammoning mag‘zini chuqr anglay olgan, ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratini tahlil qila olgan bo‘lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarni maqsadini va unga qarshi kurashda shaxsiy takliflar bera olgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkamlagan bo‘lsa.

7-8 – talaba holatning mazmunini anglagan, lekin unda bayon etilgan muammoning mag‘zini yuzaki anglay olgan, ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratini tahlil qilishga faqat xarakat qilgan bo‘lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarning maqsadini va unga qarshi kurashda shaxsiy takliflar bera olgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkamlagan bo‘lsa.

5-6 talaba holatning mazmunini anglagan, lekin unda bayon etilgan muammoning yechimiga yuzaki qaragan bo‘lsa; ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratini tahlil qilgan, lekin shaxsiy munosabat va takliflar bera olmagan bo‘lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarga yengil-yelpi munobat bildirib, maqsadini yuzaki tahlil qilgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkamlashga qiynalgan bo‘lsa.

0-4 ball-talaba holatning mazmunini umuman tushunmagan, anglamagan bo'lsa; muammolarni yuzaki tahlil qila olgan, yakuniy xulosalar bera olmagan; Umumiy fikrlar bilan cheklangan bo'lsa.

2-ilova.

“Case study” ni muhokama qilishda quyidagi shartlarga e'tiborni qarating!

1. Diqqat bilan muammoning asosiy maqsadini aniqlang
2. Muammoli vaziyatli real hayotiy holatlar bilan taqposlashga xarakat qiling
3. Ehtimoli bo'lgan “to'siqlar” ni aniqlang
4. Muammoni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarini aniqlang
5. Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarni aniqlang
6. Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg'ab oling
7. Muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilang
8. Fikrlarni tizimlashtiring hamda yakuniy xulosarni tayyorlang

3-ilova.

“Assignment”

TEST	Tizimli va aniq yozing
<p>1.1991 yil 25 avgustdagি O'zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko'ra:</p> <p>A. Respublika ichki ishlар vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.</p> <p>B. Respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilish nazarda tutildi.</p> <p>S. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlар vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shinlari partiyadan xoli qilindi.</p> <p>D. a, b, s javoblar to'g'ri</p>	<p>Taraqqiyotning “O'zbek modeli” ning o'ziga xos va mos bo'lgan tamoyillarini sanab bering</p>

<p>2. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshinchi yo‘nalishi qanday nomlangan?</p> <p>A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish</p> <p>B. Ijtimoiy sohani rivojlantirish</p> <p>S. Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquuq tizimini yanada isloh qilish</p> <p>D. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik</p> <p>3. Prezident SH.Mirziyoyevning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning 4chisini tanlang</p> <p>A. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish</p> <p>B. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni tugaraklarga jalb qilish</p> <p>S. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni malaka va ko‘nikmalarini oshirish.</p> <p>D. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni turli xil loyihalarda ishtirokini faollashtirish.</p>	
<p>ATAMA “Ommaviy madaniyat” ning izohini yozing.</p>	<p>AMALIY KO‘NIKMALAR “Mustaqil bo‘lsang □ mustaqil bo‘l, davlat bo‘lsang □ davlat bo‘l! degan g‘oyaning mazmun-mohiyati.</p>

ZAMONAVIY TA'LIM INNOVATSIYALARI TUSHUNCHASI VA ULARNI O'ZBEKISTON TARIXI FANIQA TADBIQ ETISH.

1.1 Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ahamiyati.

1.2 O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Antropogenez jarayoni

1.3 Ibtidoy jamoa tuzumi davrlari.

1.4 Ilk davlatlar. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sug'd (Sug'diyona) davlatlari.

1.1 Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ahamiyati.

Shaxs, millat va insoniyatning yashashi va taraqqiyoti yangilik va evolyusiyani talab qiladi. Zamonaviy bosqichda innovatsiyalar zarur va ularga ijobiy o'zgarishlar vositasi sifatida qaralishi kerak. Har qanday inson faoliyati (masalan, sanoat, biznes yoki ta'lif) barqarorlikni saqlab qolish uchun doimiy yangiliklarni talab qiladi. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiytexnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida

Innovatsion ta'lim

Ta'lif oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lif



Ta'lifda innovatsiyalar – bu dars berishning zamonaviy metodikasi, ta'lif mazmunini yangi uslublar bilan boyitish hamda ta'lif natijalarini baholashning yangi metodlaridir. Ta'lifdagi innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega, chunki ta'lif barqaror kelajak barpo etishda atishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.XXI asrda zamonaviy ta'lif tizimidan bugungi dunyoning tahdidlariga javob berishga qodir bo'lishi kerakligi talab etilmoqda. Aynan innovatsion metodlar bilim berishda

shaxsni kelajakdagi hayotga tayyorlashga, oliy ta'limda esa – yuqori malakali, kompetentli mutaxassis qilib yetishtirishga yo'naltiradi.



Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubı”da qo’llanilgan. .

Ta’lim tizimida yoki o’quv faoliyatida innovatsiyalarni qo’llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir :

Novatsiya va innovatsiyalar o‘rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
<p>1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;</p> <p>2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;</p> <p>3) metodlar yangilanadi;</p> <p>4) natija avvalgi tizimni Takomillashtiradi</p>	<p>1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;</p> <p>2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;</p> <p>3) subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi;</p> <p>4) yangi texnologiyalar yaratiladi;</p>

- | | |
|--|--|
| | <p>5)faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;</p> <p>6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi</p> |
|--|--|

Ta’lim innovatsionlari quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;
- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- ta’lim mazmunining yangilanishi;
-
- o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi;
- ta’lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi;
- ta’lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi

Gumanitar fanlar ilmiy xarakterga ega o‘ziga xos variativlik, fikrlar xilma xilligi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu fanlarni o‘qitish bunyodkorlik mentalitetini rivojlantirish uchun yetarli salohiyatga ega.

Ijimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiya sifatida interfaol o‘qitishni ko‘rsatish mumkin. Ta’lim jarayonidagi interfaol muloqotga o‘qituvchi talabidan birlamchi manbalar, o‘quv qo‘llanma, ma’ruzalar mazmunini reproduktiv qayta tiklashni hamda ularni tahlilini talab qilganda zarurat paydo bo‘ladi. Muammolarni hal qilish va topshiriqlarni yechish faoliyati talabalarning tafakkurini faollashtiradi, bilimlar zahirasini ko‘paytiradi, ilm fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

1.2 O‘zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Antropogenez jarayoni

Qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda shuningdek, tarixiy manbalarni tarjima qilish, tahlil etish, numizmatik materiallar bayoni ham katta rol o‘ynadi. O‘zbekiston tarixining vogelik va jarayonlarga boy bo‘lmish o‘rta asrlar davri tarixi bo‘yicha ham ko‘plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlash joiz. Sharqshunos olimlar tomonidan shu davrga oid qator tarixiy manbalar tarjima qilindi. O‘rta asrlar davlatchiligi va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xususida ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, turkiy hoqonlik davri tarixi, turkiy – sug‘d simbiozi, kam o‘rganilgan qoraxoniylar, qoraxitoylar tarixi masalasi atroficha va chuqur yoritildi. O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi bo‘yicha tegishli tadqiqot ishlari amalga oshirildi, ko‘plab jarayonlarga aniqliklar kiritildi. Fanda insoniyatning paydo bo‘lishi juda murakkab masala bo‘lib, bu jarayon asosan arxeologik va antropoligik ma’lumotlar bo‘yicha o‘rganiladi. Ammo, insoniyat paydo bo‘lishining afsonalar, rivoyatlar, ilohiyot va koinot bilan

bogliq bo‘lgan nazariyalari ham mavjuddir. Misol uchun, yakka xudolikni targ‘ib etgan barcha diniy ta’limotlarda insonning paydo bo‘lishi yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog‘lanadi. Xususan, “Bibliya” ta’limotiga ko‘ra, odamzot xudo tomonidan 7 ming yil ilgari “qizil loydan” yaratilgan. Muqaddas Qur’oni Karimda esa odamning loydan yaratilib Ollohnning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta’kidlanadi. Zardushtiylik dinida ham shunga o‘xshash rivoyatlar mavjud. Insoniyatning ilk vakillari sifatida “Bibliya”da Adam va Yeva, Qur’oni Karimda Odam ato va Momo havo, zardo‘shtiylikda esa Iyim nomlari keltiriladi. Undan tashqari Yevropa olimlarining insoniyat qandaydir kichik mavjudotlar (bakteriyalar)dan paydo bo‘lganligi yoki koinotdan tushgan odam qiyofasidagi jonzotlar haqidagi nazariyalari ham bor.

Dunyoviy fanlar, xususan tarix fani yuqoridagi g‘oya va nazariyalarni, hatto hozirgi paytdagi gepotezalar – ko‘rinmas odam yoki koinotdagi odamlar kabilarni inkor etmagan holda antropogenez jarayonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillarga asoslanib o‘rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo‘lib, u yerdagи taraqqiyotning ma’lum bosqichida vujudga kelib uzlusiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar qolgan barcha nazariyalar hamda rivoyatlardan ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo‘lishi va rivojlanish jarayoni antropogenez (yunoncha “antropos” – odam, “genezis” - rivojlanish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda antropogenez jarayoni quyidagi to‘rtta bosqichga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Odamning ilk ajdodlari.
2. Eng qadimgi odamlar.
3. Qadimgi odamlar.
4. Hozirgi qiyofadagi odamlar.

Odamning hayvonot dunyosidagi ajdodlar bilan bogliqligi haqidagi g‘oya ingliz olimi CH.Darvinga tegishli bo‘lib, uning nazariyasi bo‘yicha, insonning hayvonot dunyosida ajralib chiqishidagi asosiy omillar – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir. Jamiyatshunos olimlar bu jarayonda mehnatning roli yuksak bo‘lganligi ham ta’kidlaydilar.



Ingliz olimlari ota-bola Likilar o‘tgan asrning 50-60-yillarda Sharqiy Afrikada (Olduvoy darasida) qazishma ishlari olib borib oddiy tosh qurollar va qazilma odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3-3,5mln. yil ilgari mavjud bulgan degan g‘oyani ilgari surdilar.

Fanda eng qadimgi odamlar avstralopitek, zinjantrop, pitekantrop va sinantroplar deb ataladi. Olimlar ularni Homo habilis – xomoxabilis – “ishbilarmon odamlar” turiga kiritgan. Avstralopitek (lotincha “australis” – janubiy, “pitiyekos” – maymun, janub maymuni)lar bundan 6-5 million yil ilgari shakllanganlar.



Tanzaniyaning Zinj qishlog‘i yaqinidan topilgan eng qadimgi odamlar zinjantrop deb nomlagan, ular **Avustralopitek** bundan 2-1,5 million yil ilgari yashaganlar.

Zinjantropolardan keyingi davrda yashagan qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo‘lib fanda ularni

“Pitekantrop” (“Maymun - odam”) deb atash rasm bo‘lgan. Pitekantroplar bundan taxminan 1 mln. - 700-600 ming yil ilgari (E.Dyubua) yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927 yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D.Blek) qadimgi odam qoldiqlari (“Sinantrop” - **Sinantrop** “Xitoy odami”) bundan 600-500 ming yil ilgarigi davrga oidligi aniqlangan. Undan tashqari eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan. Olimlar pitekantrop va sinantroplarni Homo erectus (xomoerektus), ya’ni, tik yuruvchi odam turiga kiritadilar.

Tadqiqotchilariga qaraganda, zinjantrop, pitekantrop, sinatroplar eng qadimgi odamlar shakllanib rivojlanishining turli tarixiy bosqichlaridir. Bu turdagи qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurganlar va toshdan turli mehnat qurollari yasab ulardan foydalana bilganlar. Qurol yasay bilishi, o’simlik ildizlari va mevalarni iste’mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek, ayrim hayvonlarni ovlashi qadimgi odamlarni hayvonot olamidan ajratib turgan.

Arxantroplar – eng qadimgi odamsimon maymunlarning odamga aylanishi jarayonidagi oraliq mavjudotlar bo‘lib, ularda maymun va odamning belgilari mujassamlashgan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, “Arxantrop”lar (qadimgi odamlar) eng qadimgi odamlardan farqlanib, ular zamonamizdan 100-50 ming yil keyin yashaganlar.



Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastavval Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fonda ularni “Neandertal odami” deb nomlash qabul qilingan. Neandertal qiyofadagi odamlarning suyak qoldiqlari bugungi kunga qadar Afrika, O’rtal Dengizi qirgoqlari, O’rtal Osiyo, Yaqin va O’rtal Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo‘ylaridan, Shimoliy Yevropa hamda Osiyo yerlaridan ko‘plab topilgan. Bu qiyofadagi odamlar jismoniy jihatdan nisbatan ancha baquvvat bo‘lib, 25-26 yil umr ko‘rgan. Ular **Neandertal odami** toshlan xilma-xil qurollar yashashni bilganlar.

Neandertallarning tashqi qiyofasi, gavda tutish va fikrlashida hayvonotga xos bo‘lgan belgilari saqlanib qolgan bo‘lib, ularning bosh miyasi u qadar rivojlanmagan. Lekin zamonaviy qiyofadagi odamga ancha yaqinlashib qolgan edilar.

1968 yilda tadqiqotchilar Fransiyaning Tordoni viloyati, Kromanyon g‘oridan 5 ta odam dafn etilgan mozorni ochib o‘rganadilar. Tadqiqotlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bu yerda baland bo‘yli (180 sm), tashqi ko‘rinishi va qiyofasi, miya hamji zamonaviy odamlarga o‘xshash odamlar dafn etilgan. Olimlar g‘ordan topilgan odamlar qoldiqlarini g‘or nomi bilan “kromanyon odami”, ya’ni Homo sapiens (Xomosapiyens – aql-idroki odam) deb atadilar. Zamonaviy odam qoldiqlari bugungi kunda yer yuzining yuzdan ziyod makonlaridan ochib o‘rganilgan. Ta’kidlash lozimki, kromanyon odami zamonasiga kelib dastlabki ajdodlarimizning biologik va jismoniy qiyofasi hozirgi zamon odamidan farq qilmaydigan darajada edi. Kromanyonlar davri urug‘chilik jamoasi davri edi.

Eng qadimgi odamlar o‘zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko‘paytirib va sifatini yaxshilab borganlar. Natijada ularning turmush tarzida, jismoniy ko‘rinishida o‘zgarishlar bo‘lib borgan. Shuningdek, miya

hajmi ham o'zgarib borgan. O'rta tosh asridagi turli sabablarga ko'ra, birinchi navbatda tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana bordilar. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish daajasiga yetib keldi.




Antropogenez jarayonida mehnatning o'zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarning tashqi ko'rinishidan ham aniqlanadi. Ko'p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar - odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon mehnat ekanligidan dalolat beradi.

1.3 Ibtidoy jamoa tuzumi davrlari.

Davrlashtirish tarix fanini chuqur o'rganishning asosi hisoblanadi. Eng qadimgi davr (ibtidoiy jamoa tuzumi) tarixiy va arxeologik jihatdan davrlarga bo'linadi. Tarixiy davrlashtirishning o'ziga xos xususiyati, uning tadqiqot manbaidan kelib chiqadi. Unda ma'lum bir davrga xos bo'lgan umumiy rivojlanish xususiyatlari asos qilib olinadi.

Eng qadimgi davr "ibtidoiy jamoa" davri bo'lib, u tarixiy jihatdan ikkita yirik davr: "ibtidoiy to'da" va "urug'chilik jamoasi davri"ga bo'linadi. O'z navbatida urug'chilik jamoasi 2 bosqichga: matriarxat (ona urug'i) va patriarchat (ota urug'i) ga bo'linadi. Eng qadimgi davr arxeologik jihatdan, mehnat qurollari nimadan yasalganligiga qarab, quyidagi bosqichlarga bo'linadi: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va ilk temir davri.

26




Илк

Үрг

М

Па



Э И

Сү

М

Н

Э

Paleolit davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan davr hisoblanadi. U 3 mln yillikdan 12 ming yillikgacha davom etgan va uch bosqichda rivojlangan. Ilk paleolit davri (3 mln yillik-100 ming yillik) insonning tabiattda yashashi uchun qulay davr bo‘lgan. Havo issiq bo‘lib, inson tabiatdagi tayyor mahsulotlarni yeb hayot kechirgan. Ilk mehnat quroli-qo‘l cho‘qmorini ishlatgan. Sinantrop odami olovdan foydalinishni o‘rgangan. O‘zbekiston xududidan sinantron turiga mansub, ferganatrop odam suyagi Farg‘onaning Selungur makonidan topilgan. Makon dastlab 1958 yilda A.P.Okladnikov tomonidan o‘rganilgan. 1980 – 1988 yillarda arxeolog O‘.Islomov tadqiqot ishlarini olib borgan. Makonda 5 ta madaniy qatlam aniqlangan, u yerdan toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo‘l cho‘qmori, to‘mtoq boltalar, pichoqsimon qurollar topilgan. Odam suyaklari 3- va 2-qatlamlardan topilgan. Selungur odami o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lganligi uchun unga ferganatrop deb nom berishgan. Havoning soviy boshlashi, ya’ni muzlik davrining boshlanishi insonning yashab qolishi uchun ko‘plab izlanishni taqozo etgan. Bu davrda, ya’ni o‘rta paleolit davrida (100 – 40 ming yilliklarda) yashagan neandertal odami g‘orlarni o‘zlashtirgan. Sun’iy olov chiqarish yo‘llarini ixtiro qilgan. Shuningdek, hayvonlarni ovlash uchun nayza ixtiro qilgan. Sovuqdan himoyalananish uchun hayvon terisidan kiyim qilib kiygan. O‘zaro muloqot uchun ba’zi bir tovushlarni chiqargan. Odamlar hayvonlardan himoyalananish va ularni ovlash uchun to‘da-to‘da bo‘lib yurishgan. O‘rta paleolit davri yodgorligi O‘zbekistonda dastlab 1938 yilda Teshiktoshda topilgan. Hozirgi kunda esa O‘rta Osiyo hududi bo‘yicha ularning soni 300 dan ortgan. Lekin hozirgacha Teshiktosh makoni o‘zining qadimiyligi va arxeologik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonda keyingi davrlarda o‘rta paleolit davriga oid ko‘plab makonlar topib tadqiq qilingan. Boysun tog‘i mintaqasidan Teshiktosh g‘or-makoni, Amir Temur g‘ori, Toshkent vohasidan Obiraxmat, Xo‘jakent, Bo‘zsuv, Ko‘lbuloq makonlari, Farg‘ona vodiysidan Jarqo‘ton, Bo‘ribuloq, Tomchisuv manzilgohlari, Zarafshon vohasidan Omonqo‘ton, Go‘rdara, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq makonlaridir. Ilk va o‘rta paleolit davri insoniyatning ibtidoyi to‘da davri bo‘lib, so‘nggi paleolit davridan (40-12 ming yillik) urug‘chilik jamoasi davri boshlangan. Urug‘chilik jamoasini ayollar boshqarganligi sababli, bu davrdan matriarxat (ona urug‘i) davri boshlanadi. So‘nggi paleolit davrida hozirgi zamon turidagi odam shakllangan. Ilk diniy tasavvurlar- animizm,fetishizm, totemizm vujudga kelgan. Bu esa san’atning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar o‘z e’tiqod anjomlari – haykalchalarni yasaganlar. Qoya toshlarga turli suratlar solib, uni hayot tarzi bilan bog‘laganlar. O‘zbekistonning 100 ortiq joyidan shunday qoyatosh suratlari topilgan. Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Qorachorvoqsoy, Xo‘jakent va boshqalar. Ular mezolit neolit, bronza davrlariga oiddir. So‘nggi paleolit davrida yevropoid, negroid, mongoloid – irqlari shakllangan. Pichoqlar paydo bo‘lgan. Suyakdan garpun, igna, bigiz ishlaganlar. Ibtidoiy odamlar o‘zlarini uchun chayla, yarim yerto‘la va yerto‘lalarni qurib yashay boshlaganlar. Hozirgi kunda so‘nggi paleolit davriga oid O‘rta Osiyodan 30 ortiq yodgorlik topib o‘rganilgan bo‘lsa, shulardan 10 tasi O‘zbekistondan topilgan.

Neolit davrida (6-4 ming yilliklar) ibtidoiy qabilalar o‘troq turmush tarziga o‘tganlar. Doimiy yerto‘la, loy, guvaladan qurilgan kulbalarda yashaganlar. O‘troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho‘l mintaqalarda esa, o‘troq ovchilik xo‘jaligining qaror topishiga olib kelgan. Keyinchalik ovchilik xo‘jaligi zamirida chorvachilik paydo bo‘ladi. Neolit davrining eng katta yutug‘i dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi edi. Ko‘pchilik olimlar bu kashfiyotning insonlar hayotidagi ahamiyatini inobatga olib, neolit davri inqilobi deb baho beradilar. Neolit davrida toshni ishlash texnikasida yangi usullar—silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash usullari ixtiro etiladi. Bu esa ibtidoiyy ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada tezroq rivojlanishiga olib keldi. Neolit davri jamoalarida mehnat qurollarini takomillashtirish bilan bir qatorda hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari—kulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik kabi sohalari ixtiro qilindi.

1.4. Ilk davlatlar. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sug‘d (Sug‘diyona) davlatlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot”ning Venn diagrammasi.



Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘diyona davlatlarining umumiyligi belgilari:

1. Davlatchilikning barcha ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan: shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo –sotiq.
2. Davlat tipi – podsholik va boshqaruv shakli -mutlaq monarxiya bo‘lgan.

Mirziyoyev SH.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–Toshkent:NMIU, 2018. – B.72.

O'RTA ASRLAR TARIXI: YANGICHA TALQIN VA YONDASHUV.

- 2.1 Renessans davri tushunchasi. O'rta Osiyoda uyg'onish davri madaniyatining belgilari. Ma'mun akademiyasi - yirik ilmiy markaz.**
- 2.2 Amir Temur va Temuriylar davri tarixi**
- 2.3 O'zbek xonliklari davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlari**
- 2.4 Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati.Jadidchilik.**

2.1 Renessans davri tushunchasi. O'rta Osiyoda uyg'onish davri madaniyatining belgilari. Ma'mun akademiyasi - yirik ilmiy markaz.

Fanda "Uyg'onish davri" deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba "uyg'onish" atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o'z asarlarida ishlatadi. "Uyg'onish", "uyg'onish davri" atamalari XIV-XVI asr ijtimoiyiqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan "tirilishi", "uyg'onishi" ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llanila boshlandi.

Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri madaniyatining belgilari quyidagicha:

- Dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy ilmlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;
- Tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o'rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;
- Bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;
- Insonga muhabbat, uning ahloqiy, aqliy hislatlarini, qobiliyatlarini o'rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;
- Diniy tasavvur, diniy ta'limotlar rivojida diniy ahloqiy mavzuning ustunligi, inson hulqi, manfaatlarining diniy g'oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma'naviy kamolot, Ollohga ishonchning ortishi, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishish va uning sifatlariga muyassar bo'lishga qaratilgan faoliyat;
- Og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy – ahloqiy qudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qolishi.

XI asrda Xorazmda asos solingen Ma'mun akademiyasida (*Dorul hikma va maorif*) Nishapur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag'doddagi "Bayt

ulhikma”dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. 1017 yilgacha faoliyat olib borgan ushbu ilmiy muassasaga Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolar rahbarlik qilgan. Akademianing asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Iroq, riyoziyotchi va falakiyotshunos olim; Abulxayr Hammor, mantiqshunos; Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy, tabib; va boshqalar.


RASMLI KONTR- TEST



Muhammad ibn Muso al- Xorazmiy (783-850 yy.)

Alloma qadimgi Xorazm diyorida tug‘ilib, voyaga yetadi. G‘oyatda o‘tkir zehn egasi va noyob qobiliyat sohibi bo‘lgan al-Xorazmiy yoshlik chog‘idan boshlab aniq va tabiy fanlarni o‘rganishga qiziqdi, arab, fors, hind va yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan o‘qib, mutolaa qildi. U dastlabki ta’limni xususiy muallimlardan oldi va so‘ngra o‘sha davrning yirik ma’rifat markazlaridan biri bo‘lgan Marv madrasasida o‘qidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tirgach (813 y.) Muhammad Muso al-Xorazmiyi o‘zi bilan birga Bag‘dodga olib ketadi va u yerda tashkil etilgan "Bayt ul- Hikma"ga rais etib tayinladi. Bag‘dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qiladi. Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning "Al Jabr va al- muqobala" ("Tenglamalar va qarshilantirish"), "Hisob al-Hind" ("Hind hisobi"), "Kitab surat al-ard" ("Yer surati haqida kitob"), "Kitab at- Tarix" ("Tarix kitobi"), "Kitab al-Amal Bil Usturlabat" ("Usturlob bilan ishlash haqida kitob") kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 tadan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasigina yetib kelgan. Al-Xorazmiy algebraning otasidir. Xorazmiy ijodi merosida "Aljabr va al-muqobala" kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo‘lib algebra faniga asos soldi. "Algebra" atamasi ushbu kitobning "al-jabr" deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasıdır. Xorazmiy nomi esa matematikada "algoritm" atamasi shaklida o‘z ifodasini topdi. Uning ushbu asari asrlar davomida avlodlar qo‘lida yer o‘lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o‘lchov ishlarida dasturil amal bo‘lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini ingliz, olmon, farang, rus va boshqa tarjima qilib, qayta-qayta ishlab, ularga sharhlar

va izohlar yozib, u asosda asarlar yaratdilar. Dastlab merosni taqsimlash zarurati tufayli vujudga kelgan bu fan keyinchalik olamshumul ahamiyat kasb etadi. Xorazmiyning ikkinchi matematik asari “Algoritmiy hind hisobi haqida” (“Hisob al-hind”) kitobi ham fan tarixida juda muhim ahamiyat kasb etgan va hamon shunday. Uning bu arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘sidi, algebrani mustaqil fan darajasiga ko‘tardi. Olimning "Kitob at-Tarix" ("Tarix kitobi")da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII-IX asrlar tarixiga oid qisqa va aniq ma'lumotlar o‘z ifodasini topgan. Xorazmiyning "Zij" ("Astronomik jadval"), "Quyosh soati haqida risola" asarlari falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qo‘sidi. Al-Xorazmiyning "Kitob surat al-ard" nomli jug‘rofiyaga oid asarida 637 ta muhim joylar, 209 ta tog‘ning jug‘rofiy tafsiloti berilgan, daryolar, dengizlar va okeanlar havzasining shakli, ularda joylashgan orollarning muhim koordinatalari bilan bayon qilingan. Milodiy 827 yili al-Xorazmiy rahbarligida Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi o‘lchab chiqildi.



Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg‘oniy (797-865 yy.)

Ahmad Farg‘oniy o‘z asarlari bilan fan tarixida katta iz qoldirdi. U matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qildi. Ahmad Farg‘oniyning ijodiy faoliyati Bag‘dodda ulug‘ mutaffakir olim Al-Xorazmiy rahbarligidagi "Bayt ul-Hikma" bilan bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash kerakki, 828 yilda Bag‘dodda 1-chi rasadxona ishga tushirilganda, uni marvlik falakshunos olim Yaxyo ibn Abu Mansur boshqargan. 3 yil o‘tgach Damashqda ana shunday ikkinchi rasadxona barpo qilindi va unga Markaziy Osiyolik alloma Xolid ibn Abdumalik Marvarudiy rahbarlik qildi. Qizig‘i shundaki har ikkala- rasadxonani ham Al-Ma’mun iltimosiga ko‘ra loyihasini va barcha andozalarini qog‘ozga tushirish Ahmad Farg‘oniyga yuklatilgan bo‘lib, ushbu rasadxonalarning vazifalari, ishlari, rejalarini hamda ilmiy natijalarini tekshirib fanga kiritish ham ilmiy rahbar Ahmad Farg‘oniyning zimmasiga tushdi. Shuningdek, Damashqdagi rasadxonada osmon

jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qildi. U 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarni har xil vaqtida ko‘rilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini izohlab berdi. U arab atamashunosligini paydo bo‘lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shti. 832-833-yillarda Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchashda qatnashdi.

861-yilda Al-Farg‘oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr - daryo oqimi sathini o‘lchaydigan "Miqyos an-Nil" inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Bu buyuk ajdodimiz yaratgan Nil daryosi suvi sathining ko‘tarilish va pasayish darajasini o‘lchaydigan asbob – "Miqyos-an-Nil" va bu asbob boshqariladigan suv inshooti mana oradan 11 asrcha vaqt o‘tibdiki, hamon hammani qoyil qoldirib kelmoqda. Bugungi kunda Misrga qadam ranjida qilgan, uzoq-yaqindan borgan sayyoohlarni ham taajjubga solmoqda. Vaholanki, bunday qurilma va inshootlar azaldan sug‘orma dehqonchilik madaniyati ravnaq topgan Movarounnahrda odatdagи oddiy narsalar edi. Al-Farg‘oniyning "Astronomiya asoslari nomli kitobi bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanildi. Bizning davrimizgacha Ahmad Farg‘oniyning sakkiz asari saqlangan bo‘lib, ular orasida "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Ahmad Farg‘oniyning ilmiy merosi dunyoga ma’lum va mashhurdir. "Kitob fi usul ilm an-Nujum" ("Falakiyot ilmining usullari haqida kitob"), "Falakiyot risolasi", "Falak asarlari sababiyati", "Al-Majistiy", "Ilmi-xayya", "Al Farg‘oniy jadvallari", "Usturlob bilan amal qilish haqida", "Oy yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtini aniqlash risolasi", "Yetti iqlim hisobi", "Usturlob yasash haqida kitob" asarlarining qo‘lyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSH va Rossiyada saqlanmoqda. Ahmad Farg‘oniyning bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari butun jahon fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qo‘shti. Ahmad Farg‘oniy yaratgan ilmiy kashfiyotlar natijalari qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’iy nazar g‘oyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal bo‘lgan. XII asrdayoq olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilinganligi va Yevropaga tarqalganligi bu fikrning isbotidir. Yevropaliklar Ahmad Farg‘oniyini "Al Fraganus" deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar. Ahmad Farg‘oniyga arab ilmiy dunyosida «Xosib» laqabi berilgan ya’ni, uni matematika sohasida tengi yo‘qligi tan olingan. Mustaqil O‘zbekiston zaminida bu alloma nomini e’zozlab, 1998 yilda bu zoti sharif tavalludining 1200 yillagini katta shodiyona sifatida nishonlaganimiz tarixiy haqiqatning tiklanganligi bo‘ldi.



Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobi (873-951 yy.)

Forob (O'tror) yaqinidagi Vasij shaharchasida tavallud topgan. Damashqda vafot etgan. O'rta Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq uyg'onish davrining eng ko'zga ko'ringan arbobi, Sharq falsafasining otasi Forobi avval Forob, Buxoro va Samarcandda bilim oldi va turli tillarni o'rgandi. Bag'dodga kelgach fanning turli sohalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishda davom etdi. U ilmiy darajasini oshirgach, fanning deyarli barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asar yozdi. Forobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur bo'ldi. U yozgan "Aristotelning "Metafizika" asari maqsadlari haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Musiqa kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Siyosat al Madaniya" ("Shaharlar ustida siyosat yurgizish"), "Fozil odamlar shahri", "Masalalar mohiyati", "Qonunlar haqida kitob", "Tafakkur yurgizish mazmuni haqida", "Mantiqqa kirish haqida kitob", "Falsafaning mohiyati haqida kitob" va boshqa asarlar buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi. Shuningdek, Farobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Falsafaga izohlar», «Kattalarning aqli haqida so'z», «Jon (ruh) ning mohiyati haqida risola», «Inson a'zolari haqida risola» «Hajm va miqdor haqida so'z», «Xattotlik haqida kitob», «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Urush va tinch turmush» singari asarlari alloma qiziqish doirasi, ma'naviy olamining nechog'lik kengligi, behududligidan nishona berib turadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, dunyo olimlari hamma zamonlarda ham ulug' vatandoshimiz ilmiy merosiga katta hurmat, qiziqish bildirib, uning ilmiy merosi sarchashmalaridan bahramand bo'lib keladilar. Forobi fanning nazariy va falsafiy tomonlarini yoritishga harakat qilgan. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiyning ruh haqidagi psixologiyasiga oid, Galenning tibbiyot bo'yicha asarlari, Epikur, Zenon, Yevklid risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidagi o'zining

qo'shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel "Birinchi muallim" unvoniga sazovor bo'lsa, Forobiy donishmandligi, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uchun "Al-muallim as-Soniy" - "Ikkinch muallim", "Sharq Aristoteli" degan mo'tabar unvon oldi. Forobiyning "Inson tanasining a'zolari haqida"gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag'ishlangan. "Astrologiyaning to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqida"gi risolasida astroglarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlariga asoslangan faoliyatini, yolg'on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi. Olimning ko'p jildli "Musiqqa haqida katta kitob" asari musiqa ilmining katta bilimdoni, sozanda va ajoyib bastakor hamda yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo'lган. U bu asari bilan sharqdagi birinchi Uyg'onish davrining yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'lган. Farobiy musiqa ilmini nazariy va amaliy tarmoqlarga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib, ta'lif va ilmi iqoga ajratgan. Bu asarida, shuningdek, umuman Sharqda, xususan o'zbek xalqida qo'llanilgan va hamon qo'llanilayotgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, nay kabi cholg'ular va ularning kuy ijro etish qoidalari batafsil bayon etilgan. Olimning o'zi ayni chog'da mohir sozanda, musannif, ya'ni bastakor, yangi musiqa cholg'ularining, jumladan, qonun cholg'usining ixtirochisi ham bo'lган. Ancha tanaffusdan keyin qonun cholg'usini o'zbek sozandalari yana qo'lga oldilar, endilikda bu cholg'uda maqom va xalq kuylarimiz, bastakorlarimiz yaratgan yangi musiqiy asarlari ijro etilmoqda. Farobiy musiqaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi umuman jahon musiqa madaniyati tarixida, xususan, o'zbek musiqa madaniyati tarixi olamshumul ahamiyatga ega. Binobarin, qadimiy o'zbek musiqasining, jumladan maqomlarimiz va maqomshunosligimizningteran negizlari al-Farobiy qoldirgan o'sha boy xazinaga borib tutashadi va undan oziqlanadi. O'rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Forobiyning ilm tasnifi bo'yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g'oyatda qimmatlidir. U "Ilmlarni kelib chiqishi haqida", "Ismlarning tasnifi haqida" va boshqa risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lган 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi.

Bugina emas, bu buyuk ajdodimiz mantiq, tilshunoslik, axloq, davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash kabi ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham boy ilmiy meros qoldirgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, al-Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan va ko'pgina tillardagi eng muhim asarlarni asliyatda mutolaa qilgan. U bilim olishda diniy va lisoniy to'siq bo'lishini tan olмаган, musoviy va isoviy dinlarga e'tiqod qiluvchi olimlar bilan olimlarcha do'stona munosabatda bo'lган va hamkorlik qilaverган. Uning fikricha, ma'rifatli bo'lishdan maqsad ma'naviy yetuklikka erishmoqdir. Forobiyning ilmiy - falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma'naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun muhim ijod manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda.




Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.)

U o‘z zamonasining barcha fanlari - fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo‘lgan. Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug‘ildi. O‘sha davrda Kat shahri Xorazmshohlar - Afrig‘iyalar sulolasining poytaxti bo‘lib, Beruniy yoshligidanoq ilm-fanga juda ham qiziqqan, qobiliyatli, mehnatkash bo‘lgan. Markaziy Osiyoning mashhur olimlaridan Abdulkarim as-Sam’oniy (1165 yilda o‘lgan) “Kitob al-ansob” (“Nasablar kitobi”) nomli asarida bunday deb yozadi: “Beruniy degan nisba Xorazmning tashqari qismiga oiddir. Kimki shahardan tashqarida tug‘ilgan bo‘lsa, bunday odamni “falonchi beruniy” deydilar. Munajjim Abu Rayhon shunday nisba bilan mashhurdir”. U o‘z zamonasining mashhur olimi Abu Nasr ibn Iroq qo‘lida ta’lim oladi. Abu Nasr ibn Iroq astronomiya, geometriya va matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag‘ishlaydi. U Beruniyni Yevklid geometriyasi va Ptolemeyning astronomik ta’limoti bilan tanishtiradi. Abu Nasr Mansur ibn Iroq o‘zining ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Beruniy Xorazmda yashagan davrda hali juda yosh olim bo‘lishiga qaramay, 384-385 (milodiy 994-995) yillari Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblar ixtiro etadi. Lekin u faqat Jayhun (Amudaryo)ning chap qirg‘og‘ida Xorazm shahridan janubda joylashgan qandaydir bir qishloq uchun eng uzoq va eng yuqori ekliptika nuqtasini va azimutsiz ekliptikani aniqlashga tuyassar bo‘lgan, xolos.. Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma’mun II ibn Ma’mun Beruniyni o‘z saroyiga chaqirtirib, uni olim sifatida izzat-ikrom qiladi. Beruniyning Ma’mun akademiyasida mudarris va Ma’mun ibn Ma’munning siyosiy maslahatchisi bo‘lganligini yuqorida aytib o‘tgandik. Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishma olib borgan. Bizgacha ularning savol-javoblaridan 18 tasi yetib kelgan. Bu savol- javoblarning 10 tasi Aristotel falsafasiga, 8 tasi esa fizikadan berilgandir. Bu yozishmalar Beruniyning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qanchalik qiziqqanligidan dalolat beradi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari aks ettirilgan maxsus asar yozmagan bo‘lsada, olimning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi asarlarida inson va jamiyatning paydo bo‘lishi, davlatni boshqarish siyosati, ijtimoiy adolat, jamoa faoliyati, mehnat taqsimoti va pul muomalasi, oila va nikoh munosabatlari masalalarini siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan bayon etishga harakat qilgan. Beruniy 22 yoshida o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanini tashlab ketishga majbur bo‘ladi va avval Rayga, keyin Jurjonga keladi. Bu yerda mashhur tabib, astronom, faylasuf Abu Saxl Iso al-Masihiy bilan tanishadi va undan ta’lim oladi. Beruniy o‘zining mashhur asarlaridan biri bo‘lmish “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini Jurjonda yoza boshlagan.

Beruniy o‘z davrining katta matematigi ham bo‘lgan. U matematika masalalariga bag‘ishlangan asarlarida geometriya, arifmetika, algebra, sonlar nazariyasi, trigonometriya tushunchalarini ma’lum tartib bilan ta’riflaydi. Hozirgi zamон tadqiqotchilarining ko‘pchiligi Beruniyni trigonometriya fanining rivojiga qo‘sghan hissasini juda ham yuksak baholashadi. Ular Beruniyning trigonometriyaning matematikada mustaqil fan sifatida qaragan olim sifatida ko‘rsatmoqdalar. U o‘z ona tili xorazm tilidan tashqari yana bir qancha tillarni so‘g‘diy, fors, hind, yunon va qadimgi yaxudiy tillarni ham o‘rgangan. U Hindistonda bo‘lar ekan, tez orada nafaqat Hindiston tarixi, madaniyati, hatto sanskrit tilini ham o‘rganadi. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasining eng ko‘zga ko‘ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Beruniy 1030-yilda "Hindiston" ("Tahqiq mo li-l-Hind min ma’qula maqbula fi-l-aql av marzula") ("Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash")) nomi bilan mashhur bo‘lgan eng yirik asarini yozadi.


“Qonuni Mas’udiy” Beruniyning “Tafhim” va “Hindiston” asarlaridan keyin 1037 yilda yozilgan. U o‘zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o‘rta asrlarda birinchi bo‘lib ilgari surdi. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini va dunyoning geografik kartasini tuzgan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning ko‘plab asarlari bizgacha etib kelgan va olimlarimiz tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Beruniyning ilmiy va falsafiy katta merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi.



Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy.)


Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi ziyoli, o‘qigan, bilimdon kishi bo‘lib asli Balxdan bo‘lgan. Ibn Sino o‘sha davr ziyolilar oilasida hukm surgan turmush tarzi tizimi bo‘yicha Qur’oni Karimni yoshlik chog‘idan yod ola boshlaydi. Bu bilan kifoyalanib qolmasdan otasi unga falsafa, hind hisobi kabi sohalarni ham o‘qita boshlaydi. Hatto Abu Abdulloh an-Nas’hali degan kishini o‘g‘liga murabbiy qilib oladi. U o‘spirinlik yillarida, 16 yoshida shunchalik chuqur shug‘ullanganki, hatto biron-bir kecha ham to‘yib uxlamagan ekan. Fan asoslari bilan bunday shug‘ullanish, ko‘p vaqtlar davomida amalga oshirgan mashaqqatli mehnat tez orada o‘z samarasini beradi, u 17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqara boshlaydi. Mukofot sifatida saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga sazovor bo‘ladi. Biz ko‘rib chiqayotgan davr siyosiy tarixi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu vaqtda ikki sulola (Qoraxoniyalar va Somoniylar) tarix sahnasida hukmronlik uchun kurash olib bormoqda edi. Mamlakatdagi bunday beqarorlik fan arboblarining faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmas edi. Ibn Sino ham o‘sha davrda Xorazmda fan va madaniyat xomiysi sifatida nom chiqargan Ma’mun (999-1016) saroyiga boradi. U yerda o‘sha davr mashhur olim, faylasuflari Abusaxl Masihiy, tabib Abul Xayir Xommar, qomusiy olim sifatida butun dunyoda tan olingan Abu Rayhon Beruniy va boshqa mashhur olimlar bor edilar. Ammo olimning tinch ijodi bu yerda ham ko‘pga cho‘zilmaydi. Xorazmni Mahmud G‘aznaviy egallagach u Hamadonga jo‘naydi. O‘sha davrda Hamadon hukmdori Shams ad-Davla degan kishi bo‘lib, u kasal bo‘lib qoladi. Ibn Sino Buxoro amirini davolaganidek uni ham tuzatib yuboradi va evaziga vazir etib tayyorlanadi. O‘sha davrda ham saroy fisqu-fasod, isyonlar uyasi edi. Ana shunday fisqu-fasodlar tufayli u zindonga tashlanadi. Isfaxon hukmdori Alouddavla Hamadonni bosib olgach, u zindondan ozod qilinadi. Ibn Sinoning zamondoshi, uning shogirdi Jurjoniyning yozishicha u jismoniy jihatdan juda baquvvat bo‘lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, yuqorida qayd qilganimizdek, kechalari uxlamasdan uzlusiz ishlash va ta‘qib ostiga olishlar olimning salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi va u 428 xijriy yilning ramazon oyida, 1037 yilning iyun oyida 57 yoshida vafot etadi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo‘lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va

tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag‘ishlangan asarlar yaratgani ma’lum. Ibn Sino haqiqiy ensiklopedik olim bo‘lib, o‘z davrining deyarli barcha fanlari bilan muvaffaqiyatli ravishda shug‘ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd qilingan bo‘lsa ham, zamonlar o‘tishi bilan ularning ko‘pi yo‘qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Biroq Qoxiralik arab olimi Shox ota Kanavotiyning «Ibn Sino ta’riflari» asarida esa Ibn Sinoning 876 ta qo‘lyozma asarlari ro‘yxati keltirilgan. Ibn Sinoning arab tilida yaratgan 5 jildli «Al-Qonun» («Tib qonunlari») asari tibbiyotga oid benazir dasturilamaldir. 5 mustaqil kitobdan iborat bu majmuani ko‘zdan kechirarkanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi mahoratiga, bilimdonligiga tan beramiz. Jumladan, «Qonun»ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari bayon etilganligi buning ayni isbotidir. U ishlatgan 396 xil o‘simglikdan 165 tasi hozirgi zamon tibbiyotida qo‘llanilmoqda. 100 tasi esa Sobiq Ittifoq farmokologiyasiga kiritilgan. Olimning tibbiyotga doir 22 jiddan tashkil topgan «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») asari ham mavjud. Abu Ali ibn Sino faoliyatining ko‘p qirraliligi yana shundaki, u ilm-fanning boshqa sohalarida ham barakali ijod qilgan. Uning «Insof kitobi», «Najot kitobi», 10 jildli «Arab tili kitobi», badiiy ijodga oid «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Xayy ibn Yaqzon» asarlari hamda ko‘plab g‘azal, ruboiy va she’riy dostonlari adabiyotimizda alohida o‘ringa egadir. U musiqaga bag‘ishlangan 3 ta alohida risola yaratib, musiqaning inson salomatligini tiklashdagi ta’sirini asoslab bergen va musiqaterapiya yo‘nalishiga asos solgan. Ibn Sinoning tog‘larni paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi juda ajoyib fikrlari, mineralogiya va geologiya fanlariga qo‘shgan hissasi juda salmoqlidir. Jumladan, u minerallarni to‘rt guruhga bo‘lib, ularning original klassifikatsiyasini taklif etadi. Bu klassifikatsiya to XIX asrgacha deyarli o‘zgarishsiz saqlanib keldi. Olimning mineralogiya sohasidagi ishlarining muhimligi ta’kidlanib, 1956-yilda O‘zbekistonda topilgan mineral Avilsenit deb atalgan. Ibn Sino botanika masalalari bilan ham ko‘p shug‘ullangan. Chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o‘simgliklardan olinadi. Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini ta’kidlab, tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham o‘suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avitsenna deb atadi. Ham G‘arbda, ham Sharqda “Avitsenna” va "Shayxur-Rais" nomi bilan shuhrat qozongan.



Mahmud Qoshg'ariy (1029-1101 yy.)

Adib Qashg'arda tug'ilgan. U o'ziga to'q, ziyoli oiladan bo'lib, Qashg'arda yaxshi bilim oladi. Hatto u Buxoro va Nishapur shaharlarida o'z bilimlarini kengaytirib katta-katta olimlar bilan suhbatda bo'ladi. Mahmud Qoshg'ariy yashab ijod etgan yillar Qoraxoniyalar davlatining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Mahmud Qoshg'ariy juda ko'p safarlarda bo'ladi va o'zining asarlari uchun boy ma'lumotlar to'playdi. Ko'p yillik izlanishlar natijasida "Devoni lug'ati- turk" va "Javohiri-nahv" "Turk tili sintaksisi asoslari" asarlarini yozadi. Ming afsuslar bo'lsinki, oxirgi asar hanuzgacha topilmagan. Mahmud Qoshg'ariyni butun ilm olamiga tanitgan asari uning "Devoni lug'ati- turk" asaridir. Bu kitob arab tilida yozilgan. Unda olim ko'p yillar davomida turkiy qabilalar orasida olib borilgan kuzatishlar asosida turkiy tillarni qiyosiy va tarixiy usullar bilan tahlil qilgan va bu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Olimlarning fikricha, muallif ushbu tadqiqotida juda ko'p so'zlarning etimologiyasini ham juda aniq va to'g'ri izohlab bergen. Asar ikki qism (muqaddima va lug'at)dan iborat. Olim asarga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ham ilova qiladi. Bu hol asarning qimmatini yanada oshiradi. Xarita doira shaklida chizilgan bo'lib, unda mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va hokazolar nomlari yozilgan. Xaritada yozilmay qolgan nomlar esa asar matnida berilgan. Xarita asosan hozirgi Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Mahmud Qoshg'ariyning o'zi bu haqda shunday yozgan: "Rumdan Mochingacha bo'lgan... shaharlar o'rmini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatgan". Asarda turli urug'-qabilalardan qipchoq, o'g'iz, tatar, yamak, basmil, yabonu, qay, boshqirt, qirg'iz, uyg'ur, jamil, taru, ichroq, tuxsi, yag'mo, chigil, tangut, tabg'och, shuningdek, fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Asarda bulardan tashqari bir necha turkiy tildagi hikmatli so'zlar berilgan. Mahmud Qoshg'ariyning, bu asarida O'rta Osiyo hududidagi bir qancha shaharlar nomlarining kelib chiqishi masalalari ham alohida ko'rsatilgan. Kitobda turkiy yozuv to'g'risida aniq ma'lumotlar berilib, 18 harfdan iborat turk (uyg'ur) alifbosi ham ko'rsatib o'tilgan. Mahmud Qoshg'ariyning bu kitobi dunyo xalqlarining juda ham ko'p tillariga tarjima qilingan.



Yusuf Xos Hojib (1020/21-? yy.)

Qoraxoniylar davrida yashagan yana bir o‘z davrining atoqli shoiri, donishmand va davlat arbobi . Uning tarjimai holi, tug‘ilgan yili va hayoti to‘g‘risida yozilgan biron-bir asar saqlanib qolmagan. U Qoraxoniylar sulolasining poytaxti Bolasog‘unda tug‘ilgan va shu yerda ijod etgan. Hozirgi kunda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilik"("Baxt-saodatga boshlovchi bilim")deb nomlangan didaktik, badiiy-falsafiy asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, boshqa asarlari ma’lum emas. Shoirning o‘zi bu ishga roppa-rosa 18 oy sarflagan va unga juda ham puxta tayyorgarlik ko‘rgan. Asar nasriy muqaddimadan so‘ng 77 baytdan iborat bo‘lgan she’riy muqaddima bilan boshlanib, 73 bobning mundarijasi beriladi. Boshlang‘ich boblar o‘sha davr an’analariga binoan boshlanib, Olloh va Payg‘ambar, islom dinining foydasi va dunyoviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ilmiy masalalar bilan tugallanadi. Asar shunchalik ko‘p qamrovli-ki, unda ko‘tarilgan masalalarni oddiy sanab o‘tishning o‘zi ham bir necha sahifalarni tashkil etadi: masalan: Yetti sayyora va o‘n ikki burj. Inson farzandlarining qadri bliim va tafakkurda. Tilning fazilat va manfaatlari. Kitob egasining uzri. Bilim va aql- idrokning farqi to‘g‘risida. Bahad madhi. Oy to‘ldining baxt haqidagi hikoyasi. Ana shu sanab o‘tilganlardan ham ko‘rinib turibdiki, asarda shoir inson masalasini ajratib oladi. Insonning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi o‘rni, vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. "Qutadg‘u bilik" asarida bilim haqidagi alohida bob bo‘lib, unda bilimdan hech bir ziyon bo‘lmasligi, u kishilarga faqat foyda keltirishi mumkinligi, kishilarga bilim qadr-qimmat, hurmat va ehtirom keltirishi mumkinligi ayтиb o‘tiladi. Shuningdek, asarda markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan nizolarga chek qo‘yish kabi o‘sha davr uchun juda katta ahamiyatga molik bo‘lgan masalalarga ham alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, davlatni idora etish yo‘lari, buning uchun beklar bu yo‘lda o‘z atrofiga bilimdon, aqli odamlarni to‘plashi lozim ekanligini alohida ta’kidlaydi. El-yurtni boshqarish asosida ikki narsa yotadi deb ko‘rsatgan shoir. Biri adolat ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchisi, ulardan marhamatni ayamaslikdir. Yuqorida qayd qilinganidek, shoirning bu asari dunyo jamoatchiligi tomonidan yaxshi qabul qilingan eng yaxshi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

XIX asr II- yarmi – XX asr boshlari Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lmish – Turkiston o‘lkasi tarixida ham ma’lum bo‘shliq, soxtalashtirilgan sahifalar mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillarda quyidagi masalalar ilk bora o‘rganilib, keng ilmiy

jamoatchilik hukmiga havola etildi: o‘lkada ro‘y bergan milliy-ozodlik harakatlari va ularning yo‘lboshchilari faoliyat, jadidchilik harakati, jadid ma’rifatparvarlarining ziyo tarqatish yo‘lidagi jonbozligi, say-harakatlari, agrar sohada paxta yakkahokimligining joriy etilishi, mustamlaka ma’muriyatining harbiy-zo‘ravonlik boshqaruvi va uning oqibatlari, ta’lim tizimi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyaning Turkiston o‘lkasiga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, milliy-ozodlik harakatlari, umuman, imperiya bosqinining maqsad-mohiyati va oqibatlari haqidagi manbalar – qo‘lyozma asarlar, esdaliklar, xotiralar, hujjatlar va arxiv ma’lumotlari majmui ko‘pchilikni tashkil etadi. Afsuski, sovet hukmronligi davrida ularning barchasi bir yoqlama tadqiq etilib, masalaning mohiyatiga xolisona baho berilmadi.

Mavzu bo‘yicha ko‘plab tarixiy asarlar mavjud bo‘lib, ularning orasida quyidagilar: Muhammad Solihho‘janing «Tarixi jadidayi Toshkand», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotin mang‘itiya», Muhammad Attor Ho‘qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ibratning «Farg‘ona tarixi», Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Hakim Ma’sumxonning «Muntaxib ut-tavorix», Muhammad Sodiq Munshiyuning «Qo‘qon xonligi tarixi», «Tarixi Manzum», Aziz Marg‘iloniyning «Tarixi Aziziy», Ahmad Donishning «Mang‘it amirlari tarixi», Muhammad Fozilbekning «Mukammali tarixi Farg‘ona» va hokazolar muhim o‘rin egallaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti jamg‘armasida ham mavzuning u yoki bu tomonlarini yorituvchi manbalar turkumi saqlanadi. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi jamg‘armalarida saqlanayotgan turli hujjatlar, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida chop etilgan matbuot nashrlari mavzu haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning 20-yillarida G.I.Safarov, P.G.Galuzo, A.Z.Validiy va boshqa shu kabi mualliflarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati o‘z aksini topgan edi.

Ushbu mavzuni tadqiq etish, o‘rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo‘lishiga qaramay, mustaqillik yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini bosib olishi hamda o‘lkada olib borilgan mustamlakachilik siyosat ilmiy va haqqoniy tarzda yoritilmoqda. Ushbu mavzuning turli jihatlari bo‘yicha H.Ziyoyev, N.Abduraximova, F.Ishoqov, H.Sodiqov, F.Ergashev, R.Shamsutdinov, H.Bobobekov, D.Ziyoyeva, P.Ravshanov, Q.Usmonov, Z.Choriyev, SH.Vohidov, N.Musayev kabi ko‘plab olimlarning tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mustamlaka Turkiston o‘lkasi, imperiya qaramligidagi Buxoro, Xiva xonliklarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot tarixining o‘rganilmagan yoki kam tadqiq etilgan mavzulariga oydinlik kiritildi, jadidchilik harakati, atoqli jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati xususida, o‘lkada ro‘y bergan milliy-ozodlik harakatlari to‘g‘risida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi va hokazo.

XIX-asr oxirlari XX-asr boshlaridagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixi, ichki siyosat va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar, mustamlaka ma'muriyatning ko'chirish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot bobidagi boshqa turli masalalar. Yuqorida qayd qilingan masalalar ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinib, fanda o'z yechimini topgan mavzular sirasiga kirgan. Shuningdek, ko'plab anjuman, chiqishlarda, chop etilgan monografiya, o'quv adabiyotlarida ham ushbu masala yoritib berilgan.

2.2 Amir Temur va Temuriylar davri tarixi

Mustaqillik yillarida o'zbek tarixshunosligida ro'y bergan eng muhim o'zgarish, ya'ni tarixiy adolatni qaror topishi – bu buyuk Sohibqiron Amir Temur pok nomini tiklanishi bo'ldi. Yurtboshimiz ta'rifi bilan aytganda "... tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo" nomi butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk shaxslar qatoridan joy olgan. XX asr 90-yillari o'zbek tarixshunosligida Amir Temur davri tarixi, davlat boshqaruvi xususida ko'plab ahamiyatga molik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ilk bora "Temur tuzuklari" kitobi o'zbek va boshqa tillarga o'girildi, shu davrga oid qator tarixiy manbalar, jumladan Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, ibn Arabshoh, de Klavixo va boshqalarning asarlari tarjima qilindi, Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan ulkan roli va xizmati ochib berildi, Temurning millatimiz faxri va kahramonligi obrazi darsliklardan joy oldi, Amir Temur davlati ichki va tashqi siyosati xususida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va hakozo. 1996 "Amir Temur yili"da Parijda va Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumandarda bashariyat tarixida buyuk Sohibqiron tutgan o'rni mavzusi qator taniqli o'zbek va jahon olimlarining chiqishlarida o'z aksini topdi. Amir Temur shaxsi, faoliyati, u barpo etgan davlat tarixi XXI asrda nafaqat Sharq, balki G'arb dunyosi, ilmiy jamoatchiligida ham ulkan qiziqishga sabab bo'lmoqda.

Istiqlol yillarida Amir Temurning o'g'li, deyarli qirq yil Temuriylar saltanatida zukkolik va oqillik bilan hukm surgan Shohruh Mirzoning faoliyati ilk bora ilmiy jihatdan o'rganildi. Shohruh Mirzoning Temuriylar saltanati birligini saqlab qolishdagi o'rni va roli ochib berildi. G'iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy singari diplomat va sayohatchilarning asarlari tarjima qilindi. Holbuki Shohruh Mirzoning faoliyati xususida mustaqillik davriga qadar alohida olingen tadqiqot ishi amalga oshirilmagan edi.



"...Tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatgan" buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay)ning faoliyati xususida vaqtida ko'plab kitoblar yozilgan edi. Lekin, faqat istiqlol sharofati ila Mirzo Ulug'bekning faoliyati va ilmiy merosi tom ma'noda chuqur va har tomonlama o'rganilishi boshlandi. 1994 "Mirzo Ulug'bek" yili da YUNESKO tashabbusi bilan Parijda va Toshkentda o'rakazilgan ilmiy anjumanlarda Mirzo Ulug'bek davri tarixi yuzasidan ko'plab e'tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirila boshlanganligi ayon bo'ldi. Ilk bora Mirzo Ulug'bekning

davlat arbobi va madaniyat homiysi sifatidagi tarixdagi o‘rni va roli olib berildi. Ham shohlik ham olimlikni o‘zida yuksak salohiyat ila mujassam qila olgan ulug‘ zot faoliyati xususida nafaqat tarixchi olimlar, balki tabiiy fan vakillari ham qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Mazkur holat 2009 yil Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham to‘liq o‘z aksini topdi. Mustaqillik yillarida tarix fanida yuz bergen muhim ijobiy o‘zgarishlardan biri – xalqimizning milliy kahramoni, mustabid sovet hukmronligi davrida noming nohaq qoralangan Amir Temur pok nomini oqlanishi bo‘ldi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan sohibqironning millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmatlari e’tirof etilgan holda uning 660 yilligi 1996 yili xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Sohibqiron shaxsiga bo‘lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida ko‘plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996 yil – “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi, “Amir Temur xalqaro jamg“armasi” tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, “Amir Temur” ordeni ta’sis etildi, YUNESKO tashabbusi bilan 1996 yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi, Amir Temur va Temuriylar davriga oid ko‘plab tarixiy manbalar tarjima qilindi va hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi olimlar ham o‘z munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. A.O‘rinboyev, B.Ahmedov, D.Yusupova, U.Uvatov, A.Muhammadjonov, A.Ahmedov, O.Bo‘riyev va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan tarixiy manbalar tarjima qilindi, e’tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi: A.Ziyo, H.Boboyev, S.Xidirov, SH.O‘ljayeva, D.Obidjonova, X.Fayziyev, B.Usmonov, O.Rahmatullayeva kabi ko‘plab tadqiqotchilar esa o‘z izlanishlarida mavzu bilan bog‘liq ko‘plab tarixiy va huquqiy jihatlarni olib berishga muvaffaq bo‘ldilar.

Amir Temur va Temuriylar tarixi nafaqat respublikamizda, balki jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda. Amir Temur haqida K.Marlow 1588 yili tarixiy pyesa, mashhur nemis bastakori G.Gendel 1724 yili opera, amerikalik adib E.Po 1827 yili she’riy poema yaratgan. XX asr tarixshunosligida R.Grosse, L.Keren, YE.Rose, X.Xukxem, F.Mans, G.Glombek, A.Deraga, K.Yenoki, YE.Manau, M.Rossati va boshqalarning tadqiqot ishlari katta shuhrat qozongan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, 2000 yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 500 tani tashkil etgan. 2006 yili Amir Temurning xalqaro miqyosda nishonlangan 670 yillik tavallud yoshi arafasida taniqli fransuz olimi L.Keren Parijda fransuz tilida “Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat” nomli tadqiqotni amalga oshirdi.

“Amir Temur va temuriylar davri tarixi” mavzusi bo‘yicha krossvord



SAVOLLAR:

BO‘YIGA:

1. Qurol-aslahha omborining boshlig‘i
2. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida umumiy yig‘ilish, kengash
3. Bosh nazorat hay’ati
4. Vazni 1.5 gr li kumush tanga

- 5.1) Musulmon Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyo davlatlarida oliv davlat amaldorlarining majlisi; 2) Oliy davlat kengashi.
6. Lavha chizish.
 7. Jahon egasi, jahongir ikki qron egasi
 8. Boshini dorga tikuvchi, dor otiga boruvchi.
 9. Qo'mondonning qarorgohi va uning yon atrofidagi zahira qismlar.
 10. Aholidan favqulodda harajatlar uchun olinadigan soliq
 11. Shayboniyalar, Ashtarxoniyalar va Buxoro xonligida markaziy davlat boshqaruvi muassasasi; oliv davlat idorasi.

ENIGA:

1. Minglik harbiy bo'linmaning amiri (sardori)
2. Sulton Husayn (Boyqaro)ning taxallusi
3. Qog'ozni sahifalash va kitobni muqovalash
4. Ravzat as -safo" asarining muallifi
5. Kirimni boshqaruvchi shaxs
6. Suv taqsimlovchi
7. Bog'lardan olinadigan soliq.
8. Turkiy qabilalardan biri
9. G'iyosiddin Jamshid yordamida samoni kuzatish va o'rganish borasida o'rnatilgan astronomik o'lchov asbobi

JAVOBLAR:

BO'YIGA:

1. Jibachi . 2.Qurultoy. 3.Xolisa. 4.Miri. 5.Devon. 6. Lavvohlik. 7. Sohibqiron.
8. Sarbador. 9. Izofa. 10.Avorizot. 11. Dargoh.

ENIGA:

1. Mirixazora. 2.Husayniy.3. Sahhoflik.4. Mirxond. 5. Zobitona. 6.Mirobona.7. Tanobona. 8. Jaloyir. 9. Sekstant.

KEYS :"AMIR TEMUR VA BOYAZID"

XIV asr oxirlarida Usmonlilar sultanatining harbiy kudrati nihoyatda yuksalib, Vizantiyaga tahdid sola boshlagan. Umuman olganda, o'shanda butun Yevropa davatlari kanday bo'lmasin bu xavf-xatarning oldini olish choralarini izlashga tushgan. Boyazid Yildirim esa bor kuchini yagona maksadga — o'sha paytda kuchdan kolgan Vizantiyani butunlay tor-mor etish va uning poytaxti Konstantinopolni bosib olishga karatgan. Ammo Kichik Osiyoda Boyazidning raqibi bo'lgan Amir Temur bunga xalaqtib bergan. Boyazid, o'z navbatida, Misr bilan ittifoq tuzgan, Amir Temurning dushmanlariga boshpana bergan. Amir Temur o'zining G'arbgaga yetti yillik yurishi (1399—1404-yillar) davrida, Kichik Osiyoni zabt etishidan oldin sulton Boyazid bilan o'zaro elchi va diplomatik xatlar almashgani tarixdan ma'lum.

Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasida dastlabki xat almashinuvi 1400 yilning bиринчи yarmida bo‘lib o‘tgan. Bu xatlar aslida diplomatik muzokaradan ko‘ra ko‘proq ikki qudratlari raqibning yakkama-yakka kuch sinashishga da’vatidan iborat bo‘lgan. Unda Amir Temur o‘zining kuch - qudrati, uning farmoniga bo‘ysungan yerlar, Yildirim Boyazidning o‘ziga tegishli bo‘lmagan yerkarda egalik kilishga intilishi noto‘g‘rili, uning xaddidan oshayotganligi, ishning oqibatini o‘ylashi lozimligi, o‘z qadrini bilishi kerakligi uqtirilgan, jumladan, maktubda shunday deyilgan edi : “*Sen Farang lashkari bilap g‘azot va jang qilayotganini eshitib, to hanuzgacha sening diyoringga daxl qilmadik va u mamlakatga bizning nusratli askarlarimizdai biror zarar yetishini hohlamadik, chunki bu musulmonlarning tinchlik-farovonligi va bedinlarning shikastu baxtsizligiga sabab bo‘lgay*” . U o‘z xatida o‘zining ashaddiy dushmanlari hisoblagan Qora Yusuf Turkman va Bag‘dod xokimi Axmad ibn Uvays bilan bo‘ladigan urushda xolis (betaraf) mavqe‘da bo‘lishligiga ishorat qildi.

Bu talab tabiiyki, sharq dunyosidagi ko‘plab qirol va shohlarni vahimaga solgan zabardast podsho Yildirim Boyazidning nafsoniyatiga tegdi.

U Amir Temur tomonidan yuborilgan elchilarga juda qo‘pol javob qildi va “Ko‘p muddatdan beri unga qarshi chiqib jang qilishni ko‘nglimga tugib qo‘yanman, hozir esa bunga jazm qildim va u tomonga yuzlanyapman, agar u kelmasa men Tabriz va Sultoniyat tomoniga boraman” -, deb javob berdi.

Yildirim Boyazid Amir Temurning Shomdaligidan foydalanib, Qopa Yusuf Turkman va Axmad ibn Uvaysning gapiga kirib Arzinjoni bosib oldi. Taxurtanni Qora Yusufning kishilarasi asir oldi. Uning o‘zi va oilasini Bursaga yubordi . Shu tariqa Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasidagi diplomatik munosabatlari ziddiyatli tus olib bordi va keskin munosabatlarni boshlab berdi.

Bu javobdan g‘azablangan Amir Temur Rum mamlakati tomon yurishni boshladi. Dastlab u Sivosga yetib bordi va u yerni musaxxar kildi, so‘ng Obiliston va Malatiyaga yuzlandi. Amir Temur Obilistonni egalladi, so‘ng Malatiyaga elchi yubordi, ammo uning xokimi Mustafoning o‘g‘li Yildirim Boyazid nomidan Malatiyada xokimlik kilar edi. U Amir Temurning elchilarini kamattirib kuydi. Shundan so‘ng Amir Temur Bexasti (Turkiyaning xozirgi Besni shaxri) va Antob (Turkiyaning xozirgi Gazi Anteb shahri) kalalarini egallab oldi . Shunday kilib, Amir Temur Usmoniyalar davlatiga yurishni boshlab yubordi. Amir Temur Bexasti, Antobni egallab, Damashk noibi Sudunga maktub yullab, uni vaziyatdan ogox etib, Boyazidning adabini berish uchun Sivasni egallagani, Misrga tomon yurish boshlaganining sababi esa Qohirada zindonda yotgan o‘z qarindoshi Otlamishni ozod etish va bu mamlakat bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish va hokazolar deb izohladi. Lekin Damashq noibi Temurning bu tarzdagi maktubiga e’tibor bermadi va uning elchisini salbga tortishni buyurdi

Vaziyatlar keskinlashayotgan davrda sulh talab obro‘li kishilar Boyazid Yildirimni Amir Temur tomonidan taklif etilgan sulhga ko‘nishini maslaxat beradilar. Ular “*Shunday bir sohibi davlatga muxolifat izhor qilishning xosiyati bo‘lmaydi, maslahat sulhu ittifoqlikdadir*” deb Boyazid Yildirimga samimiyyat nasihat kildilar. Amir Temur Usmoniyalar davlatiga qilgan ikkinchi yurishidan

avval Boyazid Yildirim islam dini qozilaridan va o‘zining amirlaridan elchilarni tayinlab, Amir Temur xuzuriga yubordi. Amir Temur Boyazidning elchilari bilan Qorabog‘da uchrashdi va ularning tinchlik talabida kelganidan xursand bo‘lib ularga marxamatlar ko‘rursatdi. Amir Temur elchilarga kuyidagilarni aytdi: “Men tabiatan u tomonga yuzlanish va mamlakatga lashkar surishni hohlamayman. Amir Boyazid doimo faranglarga qarshi g‘azot qilayotganligi sababli men farangliklar quvvatlanib, ahli islomni kuchsizlanishini istamayman. Ammo Qaro Yusuf karoqchi va yo‘lkesardir, uning fitnayu fasodidan musulmon shaharlariga yetgan zarar atrofdagi begonalarnikidan ko‘ra ortiqdir ”.

U elchilar orqali Yildirim Boyazidga o‘zining quyidagi shart va takliflarni bildirdi:

- Kora Yusufni o‘ldirish, mamlakatdan haydab chiqarish yoki uni o‘z xuzuriga yuborish;
- Kamox, kalasini Amir Temur tasarrufiga koldirish sulhga binoan Arzinjon hokimi Taxurtan bahodir, Jirjis Baxodir, Yalmon Bahodir va Xoji posho kabi sarkardalarning farzand va yaqinlarini ozod etishi Usmoniylargaga taalluqli yerlarni jumladan Sivas, Malatiya va Abistonni Boyazid tasarrufida koldirish.

Amir Temur bu talablar Yildirim Boyazid tomonidan bajarilgan takdirda unga jihod yurishlarida yordam berish taklifini bildirdi. Boyaziddan yuborilgan keyingi elchilar Amir Temurga Kamoh qalasi borasida ham uz uzrxohliklarini aytdilar, uning talab va takliflariga anik javob bermadilar. Amir Temur ularning oldida lashkarini ko‘rikdan o‘tkazadi va o‘z fikrlarini aytib, unga nisbatan e’tirozlarini bildirdi va jumladan quyidagilarni aytdi : “Borib Boyazidga aytinglar, shunchalik bulsa-da, men hanuz unga nisbatan oljanoblik va yaxshi muomala yuzasidan ish tutaman, Tahurtanning xonadonini biz tomonga jo‘natsin va o‘z o‘g‘lini x,am biz tomonga yuborsin, toki biz unga shunday in’om ehsonlar ko‘rgazaylikki, bundayini o‘z mehribon otasidan ham ko‘rmagan bo‘lsin, uni farzandlikka qabul qilib, Rum mamlakatini Yildirim Boyazidga topshiraman ”, - deya yaxshi takliflarni bildirdi. Lekin bu urinishlarga karamasdan , Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasida shafkatsiz to‘qnashuv bo‘lib o‘tgan.

MUAMMO:

1. Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasidagi uchrashuvni tasavvur kiling: ular o‘rtasidagi suhbatni tuzing. O‘ylab ko‘ringchi, kaysi masalalar ikki hukmdor o‘rtasida keskin bahslarga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi? Uchrashuv yakunida tinchlik sulhi tuzilishi mumkin edimi, agar mumkin bo‘lsa unga qanday bandlar kiritilar edi?

2. Har ikkala tomon kurashga shaylangan paytda mintaqadagi vaziyat jiddiy tus oladi. Agar Amir Temur Boyazidni yengsa, nasroniyarning xaloskoriga aylanib qolishi va bu esa uning obro‘sini to‘kishga olib kelishi mumkin edi. Bundan noqulay xolat yuzaga kelmasligi uchun u qanday taktikani qo‘llagan?

“Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson” mavzusи yuzasidan
“Qanday voqeа yuz berdi ? Qachon? Nimani anglatadi? jadvali

<i>Qanday voqea yuz berdi?</i>	<i>Qachon?</i>	<i>Kim? (Qaysi tarixiy shaxs bilan bog'liq voqea?)</i>	<i>Voqeaning sabab yoki oqibati</i>
Samarqand egallandi.	1405 yil 18 mart	Xalil Sulton	O'zini Movarounnahrning oliv hukmdori deb e'lon qildi.
Xalil Sulton Movarounnahrdan voz kechdi	1409 yil	Xalil Sulton	Shohruh bilan tuzilgan shartnomada natijasida
Shohruh Mirzo Samarqandni egallaydi	1409 yil may	Shohruh Mirzo	15 yoshli Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi.
Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'longa qarshi harbiy yurish	1425 yil bahorda	Mirzo Ulug'bek	Ulug'bek mo'g'ullar ustidan halaba qozonadi va mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi.
Sig'noq yaqinida	1427 yil	Mirzo Ulug'bek	Baroq o'g'lon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar qo'shini bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan
Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida o'ziga xos "zafarnoma" qoyatoshga yozdiriladi.	1428 yil	Mirzo Ulug'bek	Mo'g'ulistonda bo'lgan urushda qozonilgan g'alabaning nishoni sifatida.
Ulug'bek rasadxonasi	1428-1429 yillar	Mirzo Ulug'bek	Osmon jismlarini tadqiq qilish uchun bunyod etilgan.
Temuriylarga qarshi isyon	1410 yil	Turkiston hokimi Shayx Nuriddin	Xalil Sultonning hokimiyatni noqonuniy egallab olishi.

Buxoroda madrasa bunyod etildi	1417 yil	Mirzo Ulug‘bek	Ulug‘bek farmoni bilan
Hirotdagi kutubxonada “Shohnoma” dostoni ko‘chirilib, 20 turli mazmun va manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan.	1429 yil	Boysung‘ur	Nodir qo‘lyozma asarlardan nusxa ko‘chirish uchun

2.3 O‘zbek xonliklari davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari

“O‘rta Osiyoning uch xonlikka bo‘linishi va ulardagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat” “Assignment”

MUAMMOLI VAZIYAT

Amir Nasrullo nega “qassob” amir?

Manbalarda yozilishicha, Amir Nasrullo Buxoro davlatida qat’iy markazlashtirish siyosatini olib borchadigan bo‘ysunishni istamagan Shahrisabz va Kitob bekliklarining qarshiligini sindirib, separatistik (ajralish) kayfiyatli o‘z siyosatida butun Movarounnahr va Xorazmni yagona davlat ostiga birlashtirishga intildi. U bu rejasini to‘liq bo‘lsa ham, qisqa muddat davomida butun Movarounnahrni yagona davlat sifatida boshqardi. Quqon xonligi hundur tarkibiga qo‘shib olinishi aslini olganda mintaqadagi ikki uzbek davlatchilagini o‘zaro birlashtirish edi.

Ma’lumki, tarixchilar Nasrulloni ko‘p yillar davomida xalq ongida “dahshatli va qonxur hukmdor”, “botu obrazlarini shakllantirishdi. Masalan, tarixchi Mirzo Shams Buxoriy XIX asrning 20-yillarda Buxoroda yuz beruvchi bevosita ishtirokchisi, hokimiyat uchun kurashda Amir Haydarning har uchala o‘g‘li (Husayn To‘ra, Amir Umarron) navbatini bilan yordam bergan va uch hukmdorning ham xizmatida ozmi-ko‘pmi muddat bo‘lgan. U o‘zini “Koshg‘arning ayrim voqeа-hodisalari bayoni” asarida Amir Nasrulloning Buxoro taxtini egallash va Amir Umarxonning ag‘darib tashlash jarayonida 7-8 ming kishi halok bo‘lgan, o‘z hukmronligining dastlabki oylarida har kuni qurib turgan” deb yozadi.

Tarixdan ma’lumki, Amir Haydar vafotidan so‘ng taxtga uning to‘ng‘ich o‘g‘li Husayn To‘ra o‘tiradi. Ayni yetganda, u to‘satdan vafot etadi. Buxoro tarixchilari bu haqda yozishgan bo‘lsa ham, uning sabablari to‘g‘risidagi Keyin esa Amir Umarxon taxtga o‘tiradi. Nasrulloxon Buxoroga askar tortib kelganida, Amir Umarxon to‘plagan uchrab, tarqalib ketadi. Umarxonning o‘zi esa yashirinishga ulguradi. Nasrullo hokimiyatni egallagach, uni barcha Mashhad, Balxda yashaydi, so‘ngra Qo‘qonga kelib, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon panohida yashaydi. Qo‘qon Umarxonga nikohlاب beradi. Herman Vamberi fikricha, Umarxon oradan ko‘p o‘tmay Qo‘qonda vabo kasalligi tashqari Buxoroga keltirilib dafn etiladi. Biroq ba‘zi tarixchilar, (masalan, tarixchi Mirzo Abdulazim Somiy) Umarxonning tomonidan o‘ldirilgan, degan fikrni ham bayon etgan. Vaholanki, 19 yoshida vabodan o‘lgan Umarxonning o‘limi hech qanday aloqasi bo‘lmaganini o‘sha davrga oid boshqa xolis manbalar qat’iy ravishda tasdiqlaydi.

Muammo: Yuqorida ma’lumotlar hamda o‘sha davr sharoiti, ba‘zi tarixnavislarning subyektiv yondas holda, undan oldingi va keyingi Buxoro amirlari faoliyatining tahlili asosida Amir Nasrullodan “qassob” amir tashlash mumkinmi?

hammad
on
n

a
g ¼ dan
gacha
ijaraga
mehnat
i bilan

ganlar
atalgan?

lar
lar
lar
ar

A
alarning
ohini
g:

AMALIY KO'NIKMALAR Buxoroi Sharif shaharlaring qisqacha zikri.

“....dilkash viloyat va shu yaxshiligi hamda yam-yashilligi jihatidan “ko‘kalamzor shahar”nomini olgan. Buxoro joylashgan. Buxoro amiri u hududning ancha joyini o‘ziga o‘zlashtirib olgan.”

Gap qaysi shahar haqida boryapti?

“Xulosalash (Rezyume)” jadvali

O‘rta Osiyo xonliklari					
Buxoro amirlari			Xiva xonlari		
amirlar	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari	xonlar	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Muhammad Rahim			Muhammad Amin Inoq		
Muhammad Doniyolbiy			Avaz Muhammad Inoq		
Shohmurod			Eltuzarxon		
Haydar			Muhammad Rahimxon I		
Mir Husayn			Olloqulixon	Mamlakat hududlarini kengaytirgan,	Rossiya bilan diplomatik munosabatlardan

			xalq qo‘zg‘olonlarini bostira olgan.	majburiyatlar akti orqali ilk bor Rossiyaniga shartlariga roz bo‘lgan.
Nasrullaxon	Qat’iy markazlashtirish siyosatini olib bordi. Markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan Shahrisabz va Kitob bekliklarining qarshiligini sindirib, separatistik (ajralish) kayfiyatlariga barham berdi Ikkinchidan, amir o‘z siyosatida butun Movarounnahr va Xorazmni yagona davlat ostiga birlashtirishga intildi.	O‘ta shafqatsiz bo‘lib, o‘ziga nisbatan dushmanlik kayfiyatini ko‘paytirgan. Qo‘qon xonligining hukmron sulola vakillarini qatl etishi, buning natijasida xalq nafratiga duchor bo‘lishi.	Muhammad Aminxon	
Muzaffar			Abdullaxon	
Abulahad			Qutlug‘ Murodxon	
Amir Sayid Olimxon			Sayid Muhammadxon	

XULOSA:

Asrlar davomida bir butun bo‘lib kelgan mamlakatning yagona iqtisodiy va madaniy makamiga uchga bo‘linib ketishi, xonliklar o‘rtasidagi to‘xtovsiz o‘zaro urushlar, xonlik ichidagi ijtimoiy boshboshoqlik va hokimiyat uchun o‘zaro tinimsiz davom etgan ichki nizo va urushlar, nafaqah pirovard natijada O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi aylantirilishiga olib keldi.

2.4 Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati.Jadidchilik.

XIX asr II- yarmi – XX asr boshlari Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lmish – Turkiston o‘lkasi tarixida ham ma’lum bo‘shliq, soxtalashtirilgan sahifalar mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillarida quyidagi masalalar ilk bora o‘rganilib, keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi: o‘lkada ro‘y bergen milliy-ozodlik harakatlari va ularning yo‘lboshchilari faoliyati, jadidchilik harakati,

jadid ma'rifatparvarlarining ziyo tarqatish yo'lidagi jonbozligi, say-harakatlari, agrar sohada paxta yakkahokimligining joriy etilishi, mustamlaka ma'muriyatining harbiy-zo'ravonlik boshqaruvi va uning oqibatlari, ta'lim tizimi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyaning Turkiston o'lkasiga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, milliy-ozodlik harakatlari, umuman, imperiya bosqinining maqsad-mohiyati va oqibatlari haqidagi manbalar – qo'lyozma asarlar, esdaliklar, xotiralar, hujjatlar va arxiv ma'lumotlari majmui ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, sovet hukmronligi davrida ularning barchasi bir yoqlama tadqiq etilib, masalaning mohiyatiga xolisona baho berilmadi.

Mavzu bo'yicha ko'plab tarixiy asarlar mavjud bo'lib, ularning orasida quyidagilar: Muhammad Solihhojaning «Tarixi jadidayi Toshkand», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotin mang'itiya», Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ibratning «Farg'ona tarixi», Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Hakim Ma'sumxonning «Muntaxib ut-tavorix», Muhammad Sodiq Munshiyning «Qo'qon xonligi tarixi», «Tarixi Manzum», Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», Ahmad Donishning «Mang'it amirlari tarixi», Muhammad Fozilbekning «Mukammali tarixi Farg'ona» va hokazolar muhim o'rinnegallaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti jamg'armasida ham mavzuning u yoki bu tomonlarini yorituvchi manbalar turkumi saqlanadi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi jamg'armalarida saqlanayotgan turli hujjatlar, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida chop etilgan matbuot nashrlari mavzu haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 20-yillarida G.I.Safarov, P.G.Galuzo, A.Z.Validiy va boshqa shu kabi mualliflarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati o'z aksini topgan edi.

Ushbu mavzuni tadqiq etish, o'rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo'lishiga qaramay, mustaqillik yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi hamda o'lkada olib borilgan mustamlakachilik siyosat ilmiy va haqqoniy tarzda yoritilmoqda. Ushbu mavzuning turli jihatlari bo'yicha H.Ziyoyev, N.Abduraximova, F.Ishoqov, H.Sodiqov, F.Ergashev, R.Shamsutdinov, H.Bobobekov, D.Ziyoyeva, P.Ravshanov, Q.Usmonov, Z.Choriyev, SH.Vohidov, N.Musayev kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mustamlaka Turkiston o'lkasi, imperiya qaramlidagi Buxoro, Xiva xonliklarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot tarixining o'rganilmagan yoki kam tadqiq etilgan mavzulariga oydinlik kiritildi, jadidchilik harakati, atoqli jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati xususida, o'lkada ro'y bergan milliy-ozodlik harakatlari to'g'risida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi va hokazo.

XIX-asr oxirlari XX-asr boshlaridagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixi, ichki siyosat va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar, mustamlaka ma'muriyatning ko'chirish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot bobidagi

boshqa turli masalalar. Yuqorida qayd qilingan masalalar ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinib, fanda o‘z yechimini topgan mavzular sirasiga kirgan. Shuningdek, ko‘plab anjuman, chiqishlarda, chop etilgan monografiya, o‘quv adabiyotlarida ham ushbu masala yoritib berilgan.

“Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari”. “Tarixiy tahlil” konseptual jadvali

Qo‘zg‘olon nomi va sanasi	Qo‘zg‘olonning sabablari	Qo‘zg‘olonning bostirilishi	Qo‘zg‘olonning oqibatlari
<i>1892 yil Toshkent qo‘zg‘oloni</i>	Rus rasmiy doiralari bu qo‘zg‘olon vaboga qarshi rus amaldorlari qo‘llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb izohlashga urindilar. Shuning uchun ham uni “Vabo isyoni”deb nomlashdi. Shunchaki qaraganda, chindan ham shunday bo‘lgan. Iyun oyida Toshkentda vabo tarqalgani haqida ma’lum bo‘ldi. Eski shaharda 1462 bemor aniqlandi. 1892 yil 7-iyunda Toshkent shahar ma’muriyat 12 eski qabristonni yopadi va yangi 4 qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganini e’lon qildi. Vaboden o‘lganlarni vrachning ruxsatisiz ko‘mmaslik buyurildi hamda ularni shahar ichidagi mozorlarga dafn etish ta’qiqlandi. Va’da qilingan 4 ta qabriston o‘rniga faqat bittasi ochildi. Odamlar noiloj o‘likni eski qabristonlarga olib borib ko‘mishga majbur bo‘ldilar. Politsiya pristavlari bundaylarni hibsga ola boshladi. Qabrlarni ochib, o‘lganlarning ruhi haqorat qilindi. Bu musulmonchilik urf-odatiga mutlaqo to‘g‘ri kelmas edi. Qo‘zg‘olon chiqishiga bu hol faqat bahona bo‘ldi xolos. Aslida	Qo‘zg‘olon 1892 yil 24-iyunda boshlandi. Eshonlardan Azizyor, Abulqosimxo‘ja va boshqa taniqli kishilar boshchiligida mingga yaqin kishi shahar boshlig‘i mahkamasi tomon yo‘l oldilar. Bu yerda ularga Toshkent hokimi S.R.Putinsev va shaharning katta oqsoqoli Muhammad Yoqub to‘qnash kelishdi. Oqosoqol xalqning arz-dodini tinglash o‘rniga unga dag‘-dag‘a qila boshladi. Shunda uning boshiga toshlar yog‘ildi. Oqosoqol otdan tushib hokim idorasiga yashirindi. Putinsev xalqni tinchitishga urindi, lekin muzokara o‘rniga to‘pponchasi bilan dag‘-dag‘aga o‘tdi. Xalq hokimga hujum boshladi, Putinsev, uning mirshablarini do‘pposladi, mahkamani ostin-ustun qildi. Shu paytda Sirdiyor viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov boshchiligidagi askarlar kelishi tufayli qo‘zg‘olonchilar	Qo‘zg‘olon chor hukumati tomonidan shafqatsizlarcha bostirilib, faol qatnashchilari o‘limga va uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm etilgan bo‘lsada, uning ta’siri butun Turkiston o‘lkasi bo‘ylba yoyildi. Bu holat mustamlachi ma’muriyatni tashvishga soldi. Ular markazdan ma’muriy-politsiya shtatlarini ko‘paytirish va ma’muriyatning jazo vakolatlarini yanada kengaytirishni so‘radi. Rus imperatori Turkiston general-gubernatorining iltimosini qondirib, o‘lkada mirshablik holatini joriy etishga ruxsat berdi. Imperiya Davlat kengashining 1887 yilda tasdiqlangan “Davlat tartibi va jamoat osoyishtaligini muhofoaza etishga oid choralar haqidagi Nizomi” turkiston o‘lkasida 1892 yil 18 iyundan qo‘llanila boshlandi. Bundan keyin harbiy holat

	<p>esa bunga mahalliy mehnat ahlining og‘ir ahvoli, amaldorlarning suiste’mollikkari, har xil tovlamachiliklar va boshqalar sabab bo‘lgan edi.</p>	<p>chekinishga majbur bo‘ldilar. Xalq o‘qqa tutildi. Rus askarları qo‘zg‘olonchilar orqasidan quva boshlagacha, noiloj qolgan olomon Anhor suviga o‘zini tashladi. Qo‘zg‘olonchilarning qolgan qismi Eski shaharga qochib bordi. Jome masjidi oldida to‘plangan olomon Grodekov boshchiligidagi askarlarni toshbo‘ron qildi. Bunga javoban o‘q uzildi va 10 kishi halok bo‘ldi. Shu ravishda qo‘zg‘on bostirildi. Qo‘lga olingan 60 kishi sudga berildi, 3 kishi o‘lim jazosiga, qolganlari qamoq va surgunga hukm qilindi.</p>	<p>o‘rnatilib, fuqarolar ishi ham harbiylar qo‘liga topshirildi.</p>
1898 yilgi <i>Andijon qo‘zg‘oloni</i>	<p>Tarixga “Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan Andijon qo‘zg‘oloni XIX asr oxiridagi xalq harakatlarining eng kattalaridandir. Unga “Dukchi Eshon” nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhammad Ali boshchilik qiladi. Qo‘zg‘olon diniy bayroq ostida olib borildi. Uning ko‘tarilishiga sabab va bahonalar ko‘p bo‘lib, asosan 1886 yilda tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini”boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” tufayli o‘lkada yanada kuchaygan mustamlakachilik zulmi siyosatidan norozilik edi. Qo‘zg‘olon boshlanib ketishiningsabablari quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma’muriyat oq podshoning nomini xutbaga qo‘shib 	<p>Qo‘zg‘olon stixiyali tarzda boshlandi. 17 may kuni shom namozida Tojik qishlog‘idagi masjidga juda ko‘p odam to‘plandi. Namoz paytida Muhammad Ali xalqqa murojaat qilib, ularni mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishiga da‘vat etadi.Qo‘zg‘olonchilar eshon boshchilida Mingtepadan Andijon shahri tomon yo‘l olishadi. Yo‘lda ularning safi to‘lib borib, shaharga yaqinlashganda ularning soni 2000 ga yetadi. Qo‘zg‘olonchilar Andijon harbiy lageriga hujum qiladilar, garnizon jangchilaridan 22 kishi halok bo‘ladi, 24 askar</p>	<p>Andijonda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon podsho hukumatini dahshatga soldi. Qo‘zg‘olon natijasida Farg‘ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi. O‘lkada harbiy-siyosiy va ma’muriy tartiblarni zo‘r berib shafqatsiz ravishda amalga oshirishga kirishildi. Eshon xonaqohini cherkov qilishga qaror qilindi. Mingtepaning nomi ataylab “Marhamat” deb o‘zgartirildi. Rus aholisi bu yerlarga ko‘poab ko‘chirib olib kelindi. Majburiy ravishda masjid va madrasalarda rus tilini o‘qitishga kirishildi va</p>

	<p>o‘qishga majburlaydi,;</p> <ul style="list-style-type: none"> - pristavning qayerda bo‘lmasin o‘tganini beixtiyor ko‘rmay qolib o‘rnidan turmagan musulmonlar kaltaklandi, qamaldi; - qora qirg‘izlarning yerlari tortib olinib, rus dehkonlariga berildi, o‘zlari esa tog‘larga haydab yuborildi. - cho‘b, o‘g‘iz, tuyoq puli kabi bir qancha jarimalar o‘ylab topilib, mehnatkashlarning mollari tortib olindi 	<p>yaralanadi. Marg‘ilon va O‘sh uezdlaridagi harbiy garnizonlarga hujum uyuştirish rejaları amalga oshmay qoladi, chunki rus amaldorlari bundan xabar topib, mudofaa uchun zarur choralarни ko‘rib ulguradilar. Andijondagi qo‘zg‘olondan xabar topgan Rossiya imperatori Nikolay II qo‘zg‘oloni bostirish uchun Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori A.I.Korolkovni rahbar qilib tayinlaydi. Natijada qo‘zg‘olon vahshiylik bilan bostiriladi.</p>	<p>uni o‘lkada davlat tiliga aylantirish yo‘llari belgilandi.</p>
1916 yilgi <i>Jizzax qo‘zg‘oloni</i>	<p>1914 yili boshlangan Birinchi jahon urushida Rossiya Germaniya va Turkiyaga qarshi kurashga kirishdi va katta talafotlarni ko‘rdi. Rus qo‘mondonligi urush og‘irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ayovsiz ezish siyosatiga o‘tdi. Nikolay II 1916 yil 25 iyunda “Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholining haraktadagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida” farmon chiqardi. Unga ko‘ra, Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan erkaklarni safarbar qilish ko‘zlangan edi. Farmonga muvofiq,</p>	<p>Jizzax shahri aholisi 13 – iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro‘yxatini talab qilib oqosoqol va mingboshi mahkamasiga to‘plandilar. Tumanboshi podpolkovnik Ruikn, bosh oqosoqol Yo‘ldoshev, pristav, tilmochlar o‘ldirildi. Mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro‘yxatni topib olib yondirib tashladilar. 1916 yil 15-iyulda Jizzaxga polkovnik ivanov boshchiligidagi jazo otryadi yuboriladi. Butun uezdga polkovnik Ivanov tayyorlagan e’lonlar tarqatiladi. Unda barcha qo‘zg‘olonchilar qirib tashlanishi, ularning mol-mulki xazinaga o‘tkazilish ta’kidlanadi. 18-iyulda</p>	<p>Qo‘zg‘olon bostirilgach, uning yo‘lboshchilari jazoga tortilib, o‘limga mahkum etildi. Jizzax qo‘zg‘oloning rahbari Nazirxo‘ja Abdusalomov boshchiligidida 76 kishi ustidan 1916 yil 23-avgustda yopiq harbiy sud majlisi bo‘ldi. Sud ishi yakuniga ko‘ra, 32 kishi otuvga hukm qilindi. 1916 yil 10 sentabrda hukm ijro etilib qo‘zg‘oloning faol ishtirokchilari osib o‘ldirildi. Ushbu qo‘zg‘olon Turkiston xalqiga juda katta talafotlarni olib keldi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 1916 yilgi qo‘zg‘olon oqibatida Turkiston aholisidan 673 ming kishi</p>

	<p>hozirgi O‘zbekiston hududlaridan 19-43 yoshgacha bo‘lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlarga (mardikorlikka) chaqiriladigan bo‘ldi. Mardikorlikka ketadiganlar 3 oyda qaytib kelishlari va bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta’minlanishi va’da qilindi. Ro‘yxatga olish davomida amaldaorlar boylik orttirish paytida bo‘lishib, boylarning bolalarini pul evaziga ro‘yxatga kiritishmadi. Bu xalq noroziligining ortib borishiga sabab bo‘ldi. 1916 yil iyul oyidan mahalliy aholining qo‘zg‘oloni boshlandi. Barcha viloyatlarda avj olgan g‘alayonlar keskinlashib xalq qo‘zg‘oloniga aylandi. Ayniqsa Samarqand uezdining Jizzax uezdida bu voqealar uyushgan va oshkora tus oldi. Ma’muriyat maqsimotiga ko‘ra Jizzax uezdi 11 ming mardikor berishi kerak edi. Halokat yoqasiga kelib qolgan aholi 5 iyul kuniyoq dastlabki noroziliklar va g‘alayonlarni amalgalashdi. Jizzaxda qo‘zg‘olon 1916 yil 13 iyulning erta tongida boshlandi. Bu qo‘zg‘olon aniq maqsadlar- Rossiyadan ajralib, mustaqil bo‘lish maqsadi ostida, uyushgan tarzda olib borilgan edi.</p>	<p>Jizzaxda juda katta qo‘zg‘olon bo‘ladiki, tarixchilar uni Jizzax qo‘zg‘oloni deb atashadi. Ivanov boshchiligidagi katta harbiy kuchlarga ega bo‘lgan jazo otryadi qo‘zg‘oloni shafqatsizlik bilan bostiradi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho‘lga haydaladi. Mingga yaqin kishi hibsga olindi.</p>	<p>o‘ldirildi, 300 mingdan ziyod aholi xorijga chiqib ketdi. 1 million kishining mulki musodara qilinib, talon-taroj etildi.</p>
--	--	--	--

-ilova.

“Jadidchilik”. “Chaynvord” .

Nº		Javobi
11884 yilda Qrimdagi Boqchasarov shahrida jadid maktabini ochadi va u “usuli savtiya tadrijiya” (.....tovush usuli).	Gasprinskiy, rivojlanuvchi

2	Munavvar Qori o‘zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: “.....tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onligi barchangizga ma’lumdir”.	Turkiston
31888 yilda “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobini nashr etib jadid maktablarining qurilishi, dars o‘tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi.	Gasprinskiy
4	Munavvar Qori 1906 yilda “Xurshid” (.....) jurnalini tashkil etib, unga o‘zi muharrirlik qilgan.	Quyosh
5	Uning asl ma’nosи “Ibratxona” yoki “ ulug‘lar maktabi degan so‘zdir”	Teatr
6	“Savtiya (tovush)”usulining boshqacha nomi	Usuli jadid
71919 yilda Buxoro amirligining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olinadi va “sho‘roning ayg‘oqchisi”, jadid, sho‘roga sotilgan degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi	Bexbudiy
8	Jadidlarga bir tomondan, mutaassib....., ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma’murlar qarshilik ko‘rsatdilar.	Ruhoniylar
9	1914 yilda Asadullaxo‘ja Ubaydullaxo‘jayev tuzganfirqasining “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalari chiqariladi.	Taraqqiyparvar
10	1904 yilda Xivada “Jamiyatı” tuzilib, uning ko‘magi bilan 1904-yil 10-noyabrda Xiva shahrida dastbalki yangi usul maktabi ochildi.	Xayriya
11	1908 yili Buxoroda ma’rifiy jamiyat –“Tarbiyai” (“Bolalar tarbiyasi”) tashkil etilgan.	Atfol
12.	1909-yilda Toshkentda Munavvar Qori tomonidan “Jamiyatı.....” tuzilgan. U miskin va ojiz talabalarga yordam berar, chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashgan.	Imdodiya
13.	Musulmon drama san’ati havavskorlari jamiyatı –“Turon” nomli tetar truppassi 1913 yilda Toshkentda ochilib, o‘z faoliyatini 1914 yil 27 fevralda Toshkentdagı “.....” teatri binosida “Padarkush” spektakli bilan boshlagan.	Kolizey
14	“Padarkush” pyesasida islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tmoshabin e’tiborini najot yo‘li -uni esa “poklangan din” bera oladi, degan g‘oyaga qaratadi.	Maorif
15	“.....” (1915-1918 yy)- turkistonlik jadidlar va so‘l ulamolar jurnali. Muharriri Abdurahmon Sodiq o‘g‘li (Sayyyoh). Islom dinini isloh qilishga urinilgan.	“Al-isloh”
16.	“Kengash” gazetası.(1917-yil iyun-sentabr). Turkiston musulmonlari Markaziy sho‘rosining nashri. Gazetaga dastlab tarixchi olim, keyinchalik Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirlik qilgan. “Kengash” Turkiston Muxtoriyati g‘oyasini keng targ‘ib qilgan.	Ahmad Zaki Validiy

17	Jadidlar milliy..... va miliy asos solganlar.	Teatr va matbuot
18	Birinchi bo‘lib (Husaynov mablag‘i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1989 yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yili To‘qmoqda (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni “..... maktab” deb atagan) , 1899 yilda Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi.	No‘g‘oy
19	Jadid maktablari pullik va pulsiz edi. Hay oyiga otanonalar baholi qudrat , bir so‘mdan bir yarim so‘mgacha pul to‘lardi.% gacha kambag‘al va nochorlarning bolalari tekin o‘qilib, o‘quv qurollari bilan ham ta’minlangan.	20-35
20	Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyarvarlar, keyinchalik..... deb atashgan.	Burjuaziya, jadidlar

4- ilova.

“Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi” SWOT-tahsil

S	Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimining kuchli (yoki ijobjiy)tomonlari	Sivilatszion taraqqiyotning ba’zi jihatlari kirib keldi: dunyoviy ilm-fan va maorif, savdo va tijorat yuritish tajribasi, temir yo‘l qurilishi.
W	Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimining kuchsiz (yoki salbiy) tomonlari	Turkistonni boshqarish tizimi va idora etish usullari birinchi navbatda yerli aholini emas, Rossiya manfaatlarini har tomonlama himoya qilishi, Turkistonni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.
O	Turkistonni boshqarishda mustamlakachi tizimning imkoniyatlari	Rus ma’murlari mustamlaka o‘lkani boshqarishda qator imkoniyatlar va ustunliklarga ega bo‘lishgan. Xususan, , boshqaruvning harbiy xarakterda ega ekanligi mahalliy xalqni doim qo‘rquvda va itoatkor tutishi uchun xizmat qilgan.
T	Turkistonni boshqarishdagi mustamlaka tizimining zararli tomonlari	birinchidan , mahalliy xalqning siyosiy va fuqarolik huquqlari poymol etildi; ikkinchidan , ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanib, iqtisodiy muvozanat buzildi va mustabid davlatga qaramlik kuchaydi, uchinchidan , mahalliy xalqning turmush darajasi pasayib ketdi; to‘rtinchidan , O‘rta Osiyo Rossianing xomashyo bazasiga aylantirildi; beshinchidan , mustamlaka hudud jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda qoldi.

Dashti Qipchoq – Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash qo‘lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarning XI–XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko‘chmanchi qipchoqqabilalari yashagani uchun u yerlar shunday deb atagan. Dashti Qipchoq atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003-1088) qo‘llagan. Shu davrdan boshlab arab va fors tillaridagi asarlarda bu atama keng qo‘llanilgan. Dashti Qipchoq ikki qismidan: 1) Sharqiy qism – Yoyiq daryosidan to Sirdaryoning quyi oqimi va Balxashgacha bo‘lgan yerlar; 2) G‘arbiy qism – ya’ni Yoyiq va Volgadan

to Dneprgacha bo‘lgan yerlardan iborat bo‘lgan. Dashti Qipchoqning bir qismini XIII asrning 20-yillarida Jebe Nuyon va Subutay bahodir boshchiligidagi mo‘g‘ullar bosib olgan. 1236 yili Dashti Qipchoqni Chingizzonning nabirasi Botuxon egallaydi va bu ulkan hududda tarixda Jo‘chi ulusi nomi bilan mashhur bo‘lgan Oltin O‘rda davlati tashkil topadi. XIV asrning boshlarida Jo‘chi ulusi ikki qismga bo‘linib ketadi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Oq O‘rda davlati tashkil topdi. XIV asrning 60- yillaridan boshlab Dashti Qipchoqning sharqiy qismidagi bu Oq O‘rda davlati tarixiy manbalarda «o‘zbeklar mamlakati» deb, uning aholisi esa «o‘zbeklar», aniqrog‘i «Dashti qipchoq o‘zbeklari» deb atala boshlandi. XV asrning 20-yillaridan boshlab, Sharqiy Dashti Qipchoqni asta-sekin Abulxayrxon egalladi va u bu hududda ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soldi. Abulxayrxon vafotidap keyin (1468 yil) Sharqiy Dashti Qipchoqda uning avlodlari va qarindoshlari hukmronlik qildilar. Dashti Qipchoqning asosiy aholisi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va qo‘l bo‘ylaridagi aholi esa dehqonchilik, shaharlardagi aholi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan.

Dashti Qipchoq o‘zbeklari— qadimdan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida hozirgi Qozog‘iston, Tobolsk, Tura atroflarida ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalari - arlot, bahrin, burqut, do‘rmon, iyjon, xitoy, qarluq, major, qipchoq, qiyot, qo‘ng‘iroq, qurlovut, mang‘it, nayboy, kenegas, **uyshin**, tuboiy, toymas, eski, tuman-ming, shod-baxtli, shunqorli va boshqa qabilalar XIII asr oxiri va XVI asrlarda yashab o‘tgan sharq tarixchilari tomonidan umumiy bir nom bilan, ya’ni “Dashti Qipchoq o‘zbeklari” deb atalgan. Dashti Qipchoq o‘zbeklari, Ro‘zbexonning “Mehmonnomai Buxoro” asarida ayttilishicha, uch toifadan, ya’ni shayboniyilar (Shaybon ulusiga kirgan o‘zbeklar), qozoqlar va mang‘itlardan tashkil topgan. Shaybon ulusi, manbalarda ko‘rsatilishicha, 1238 yilda tashkil topgan bo‘lib, Ural (Yoyiq) tog‘ining etaklaridan Tobol va Sarisuv daryolarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Mang‘it ulusi Emba bilan Ural (Yoyiq) daryolari oralig‘idagi yerlarda joylashgan. XV asrning 30-yillarida mang‘itlar ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonga qo‘shiladi. Oq O‘rda xoni bo‘lgan O‘risxon avlodi bo‘lmish sultonlar – Gireyxon va Jonibeklar XV asrning 40-yillarida Abulxayrxonga bo‘ysunishdan bosh tortib, o‘z tarafдорлари bilan Chu va Yettisuv vohasiga qochib ketadi va oradan ko‘p o‘tmay xonligiga asos soldi. 1465 yil Abulxayrxondan qochib ketgan bu qabilalar tarixda «o‘zbek-qozoq» nomini olgan. Dashti Qipchoq o‘zbeklari asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ular faqatgina O‘zbekxon davrida islom dinini qabul qilgan. Dashti Qipchoq o‘zbeklari O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistondagi bir necha xalqning tarkibiga kirgan.

Devonbegi— devon boshligi. O‘rta asrlarda soliq yig‘uvchi muassasa boshlig‘i bo‘lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Buxoro amirligida devonbegi turli davlat ishi sohalari bo‘yicha devonlar hamda viloyatlardagi devonlarni boshqargan. Qo‘qon xonligida devonbegi biror viloyat hokimi ixtiyorida bo‘lib, chetdan keladigan savdo karvonlaridan boj to‘plagan. Xiva xonligida esa devonbegilar ko‘p bo‘lib, ular elchilik, yasovullikni boshqa ishlarni

boshqargan. Masalan, Muhammad Rahimxon davrida (1806-1825) saroydagি mehdar, qushbegilarning har biri ixtiyorida bir nechta devonbegi bo‘lgan.

Dodxoh— O‘rta Osiyo xonliklarida yuqori martabalardan biri bo‘lgan. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo‘lib, u Buxorodagi yuqori xizmat doirasidagi 10 toifa (darajali) dagi amal yoki mansab hisoblangan. Uning vazifasiga xon qabul qilgan va farmon etgan qaror va farmoyishlardan norozi bo‘lib, xon oldiga kelgan qabul qilish kirgan. Odatda, dodxoh amir nomiga yozilgan iltimosnama va arznomalarni qabul qilib olar va ularning egalariga yozma yoki og‘zaki javob qaytarar edi.

Dorug‘a— ushbu atama ikki xil ma’noni anglatadi. 1. Hokim. Mo‘g‘ullar, Temuriylar va shayboniylar hukmronligi davrida dorug‘alar viloyat, shahar hokimi bo‘lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, aholini ro‘yxatini olish, uni hisob-kitob qilish va ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan. 2. Mirshablar poshlig‘i. So‘nggi o‘rta asrlar davrida O‘rta Osiyo xonliklar mirshablar boshlig‘i dorug‘a deb yuritilgan.

Do‘rmon— o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Do‘rmonlar kichik-kichik guruh bo‘lib, tarqoq holda Zarafshon, Surxondaryo, Toshkent vohalarida, qisman Xorazmda, Janubiy Tojikistonda hamda Afg‘onistonda yashagan. Do‘rmonlar O‘rta Osiyohududlariga XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kelib joylashganlar va keynchalik Buxoro amirligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Do‘rmonlar tarkibida qo‘yli, uvoq, uch urug‘, ko‘k chelak, sakson yo‘g‘on, gurdak, oy tamg‘ali kabi bir qator urug‘lar bo‘lgan.

Yobu (jobu)— o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan urug‘lardan birining nomi. O‘zbeklar orasida kichik guruhni tashkil etgan bo‘lib, XX asr boshlarida tarqoq holda Zarafshonning o‘rta va quyi oqimida va Qarshi cho‘lida yashaganlar. Yobular qozoqlar tarkibida ham mavjud. Ular asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar.

Yom (jom) – choparlar, yo‘lovchilar ot almashtiradigan joy, bekatning qadimgi nomi. Yomda doimo otlar tayyor turgan. Yomda yo‘lovchilarga, choparlarga doimiy xizmat qilishi uchun bir necha kishi xizmat qilgan. Dastlab yom XIII asrda paydo bo‘lgan. Chingizzonning kichik o‘g‘li O‘qtoy qoon yom qurishga katta ahamiyat bergen. Taxminan har 5 farsahda yom qurilgan. Mo‘g‘ullar o‘zları bosib olgan hududlarda, xususan, O‘rta Osiyoda ham ko‘plab yomlar qurbanlar. Yom xizmatchisi chopar yoki yomchi deb atalgan. Yom, jom kabi joy nomlari yom o‘rnida vujudga kelgan toponimlardir.

Jaloyir – turk va mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabila uyushmalaridan biri. Ular o‘nta yirik qabilaga bo‘lingan bo‘lib, har bir qabilaga sarkarda, ya’ni qabila boshlig‘i boshchilik qilgan. Jaloyirlar XII asr oxiri–XIII asr boshlarida Yettisuv va O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan. O‘rta Osiyoda yashaydigan jaloyirlar o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg‘izlar tarkibiga kirganlar.

Jangnomá – tarixiy va afsonaviy jang voqealari, urushlar, ayrim afsonaviy va tarixiy shaxslarning mardlik va qahramonliklarini badiiy adabiyotda ko‘tarinki ruh bilan bayon qiluvchi epik janrning turi.

Janoh – qanot; tomon; taraf. Temuriylar qo’shinlarida qo’shin qanotini anglatgan ibora. Chanoh ko‘rinishida ham ishlatiladi. Chanoh iborasiga «sog» (o‘ng) va «so‘l» (chap) iboralari qo’shilsa, qo’shining «o‘ng qanoti» va «so‘l qanoti» ma’nolarini bildirgan. Qo’shining o‘ng va so‘l qanotlarini qo’riqlab turuvchi maxsus harbiy bo‘linmn ham chanoq deb atalgan.

Jarchi– O‘rta Osiyo hududlarida o‘rta asrlar davrida hukmdorlarning xalqqa qarata chiqargan farmonini, rasmiy xabarlarini, xon va vazirlarning amrlarini aholiga yetkazish, urush boshlanishi yoki tugaganligi to‘g‘risidagi xabarlarni, ayrim shaxslarni hukmdorlar tomonidan taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrlarni, biron shaxsning yangi lavozimga saylanishi to‘g‘risidagi xabarlarni bozor maydonlari va aholi ko‘p to‘planadigan joyda baland ovoz bilan e’lon qiladigan shaxs. Shuningdek, jarchilar ko‘chmanchilarning ovullarini aylanib yurib qo’shin to‘plashda ham qatnashganlar.

Jilovdor– Buxoro va Xiva xonliklarida yoki boshqa oliv martabali kishilarning otini qabul qilib oluvchi, otni jilovlovchi va ot egasini otga mindirib va tushurib qo‘yuvchi shaxs.

Jome masjidi – musulmonlarning juma va hayit namozlari o‘qiladigan muqaddas joy bo‘lib, shahar, tuman va jamoat markazlaridagi markaziy bosh masjid.

Jo‘chi ulusi– Chingizzon imperiyasining bo‘linishi natijasida 1224 yili uning o‘g‘li Jo‘chixonga tekkan mulk, ulus. Jo‘chi ulusi Irtishdan Ural (Yoyiq) tog‘larigacha va g‘arbda mo‘g‘ul oti tuyoqlari yetgan yergacha bo‘lgan ulkalarni qamrab olgan. Janub tomonidan Chig‘atoy ulusi bilan chegaradosh bo‘lgan. Botuxonning harbiy yurishlari (1238-1242) natijasida Sharqiy Yevropa ham Jo‘chi ulusiga vassal sifatida bo‘ysindirilgan. Unga Janubiy Rossiya, Qrim va Zakavkaziya (Kavkazorti) kirgan. XIII asr o‘rtalaridan boshlab Jo‘chi ulusi Oltin O‘rda deb atalgan.

Zakot– Islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo‘lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, hayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq muayyan boylikka ega bo‘lgan katta yoshdagи musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho‘ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo‘lgan. Zakot kambag‘allar, yetim-yesirlar, kasallar va hech kimi yo‘q ayollar o‘rtasida taqsimlanishi lozim bo‘lgan.

Zakotchi– aholidan zakot pul va mollarni undiruvchi amaldor. Zakotchi Buxoro amirligida muhim amal hisoblangan. Devonbegi zakotchi hisoblanib, amirning moliyaviy ishlarini ham boshqargan.

Imom– arabcha so‘z bo‘lib, namozda jamoatning oldida turib namozni boshqaruvchi kishi. Shuningdek, islom dinida musulmonlarning rahbari, boshlig‘i demakdir.

Inoq– turkiy so‘z bo‘lib, do‘stona, yaqin odam, inoq ishonchli vakil, ishonchli mansab egasi yoki mansabdor hamda o‘z ishiga ishonchli va sadoqatli degan ma’nolarni anglatgan. Odatda, inoqlar eng qudratli o‘zbek urug‘lari amirlaridan tayin etilgan va ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo‘lgan. Buxoro amirligida inoq yuqori 11 toifadagi martabalardan hisoblangan bo‘lib, uning ikki xil toifasi, ya’ni katta inoq (inoqi kalon) va kichik inoq (inoqi hurd) mavjud bo‘lgan. Xiva

xonligida inoqlar yirik amaldor, ya’ni qabila boshlig‘i hisoblangan. Inoqlar huzurida qushbegi, mehtar va otaliqdan iborat kengash bo‘lgan hamda ular amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashgan.

Kadxudo— so‘nggi o‘rta asrlar davrida Xiva xonligida mavjud bo‘lgan urug‘ boshliqlari lavozimi. Ma’nosi oqsoqollar, boshliqlar, rahbarlar demakdir.

Kubraviylik— o‘rta asrlardagi so‘fiylik oqimlaridan biri. XIIIasr boshlarida Najmiddin Qubro asos solgan. Uning asarlarida tariqatning mohiyati, o‘ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berilgan. O‘rta Osiyoda, qismi, Eronda tarqalgan qubraviylik oqimiga mansub so‘fiylar o‘rtasida ovoz chiqarmasdan zikr qilish amalda bo‘lgan. Ularning tariqati Qur’oni Karimni majoziy va mistik talqin qilishga asoslangan.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar— ko‘chmanchi o‘zbeklarning o‘zagini Dashti Qipchoq o‘zbeklari tashkil etgan. XIV–XVII asrlardagi yozma manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibiga quyidagi urug‘ va qabilalar kirgan: arlot, arg‘in, bahrin, buyraq bulovchi, burqut, durmon, jaloyir, jot, iyjon, kenagas, kerait, major, makrit, mang‘it, nayman, nukuz, olchin, os, sulduz, tang‘ut, tama, toymas, totor, tuboyi va boshqalar. XV asrning 50–60-yillarida Abulxayrxon asos solgan ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatida feodal kurashning kuchayib ketishi natijasida ko‘chmanchi o‘zbeklarning bir qismi Gireyxon va Jonibek Sulton boshchiligida Chu vodiysiga ko‘chib ketgan, keyinchalik usha yerda Qozoq xonligiga asos solgan. Feodal sulolaviy kurashlarning kuchayib ketishi, iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatida ko‘chmanchi o‘zbeklarning katta qismi XVI asr boshlarida Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrga bostirib kirgan va Temuriylar hukmronligiga barham bergen. Ularning G‘arbiy Sibirda qilgan XV asrning 80-yillarida Shayboniy naslidan bo‘lgan Iboqxon boshchiligida Sibir xonligiga asos solgan.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati - Janubi-G‘arbiy Sibirda Abulxayrxon asos solgan (1428) davlat. Poytaxti – Tura shahri. Bu davlatning paydo bo‘lishida Dashti Qipchoqning sharqiy qismida ko‘chib yurgan qabilalar va ularning boshliqlari katta rol o‘ynaganlar. Abulxayrxon juda qisqa vaqt (1428-1430) ichida mayda-mayda qismlarga bo‘linib ketgan Shaybon ulusining katta qismida o‘z hukmronligini o‘rnatgan. 1428-1446 yillarda ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga Orol dengizining shimoliy qirg‘oqlaridan to Irtish daryoning o‘rta oqimigacha, sharqdan Sarisuv va Chu suv daryolari, g‘arbda Yoyiq (Ural) daryosining sul sohillarigacha bo‘lgan yerlar qirgan. Abulxayrxon vafoti (1468) dan so‘ng ko‘p o‘tmay ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati inqirozga uchraydi. Abulxayrxon vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Haydarxon xon qilib ko‘tariladi. Bu davrda Abulxayrxonning dushmanlari – Iboqxon, Birka Sulton, Jonibek, Gireyxon, mang‘it amirlardan Yomg‘urchi va Muso Mirzolar Oltin O‘rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib, Haydarxonga qarshi kurash olib bordilar va g‘alabaga erishdilar. Haydarxon o‘ldiriladi, Iboqxon va uning ittifoqchilari Abulxayrxonning qarindosh-urug‘larini va tarafdarlarini qirg‘in qiladilar. Bu qirg‘indan Muhammad Shayboniyxon, uning ukasi Muhammad Sulton, Abulxayrxonning o‘g‘illari Suyunchxojahon va Ko‘chkinchixon, Baxtiyor

Sultonning o‘g‘li Mahdi Sulton, Hamza Sulton va boshqa ba’zi beklargina qochib qugilgan xolos.

Laylat ul-qadr – ramazon oyining 27-kunga o‘tar kechasi. Islom diniga sig‘inuvchilar har yili shu kechada Olloh har bir insonning ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri haqida hukm chiqaradi deb tasavvur qiladilar. Mana shuning uchun ham Laylat ul-qadr kechasini Qur’on o‘qib, Ollohga iltijo qilib, duo va ibodat qilib o‘tkazish rasm bo‘lgan.

Lo‘lilar – ko‘chmanchi xalq. Jahondagi barcha mamlakatlarda tarqoq holda yashaydi. Lo‘lilarning O‘zbekistonning ayrim hududlarida mo‘toni, ayrim guruhlarining jo‘gi (hindcha qambag‘al, qashshoq), hindistoniy, bo‘lujiy deb atalishi ham ularning asl vatani Hindiston bo‘lganini tasdiqlaydi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, lo‘lilarning dastlabki guruhlari milodning boshlarida, V–VII asrlar va keyingi davrlarda Shimoliy Hindistondan tarqala boshlagan. O‘rta Osiyo lo‘lilarini tub aholi lo‘li, jo‘gi, mazang deb ataydi. Qadimdan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Qarshi kabi shaharlar atrofida yashab keladilar. Lo‘lilar o‘zbek va tojik tillarida gaplashadilar, ammo tojik tili ularning turmushida asosiy hisoblanadi. Ular islom diniga e’tiqod qiladilar.

Madrasa – musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz. U madrasa sifatida arablarda VII–VIII asrlarda paydo bo‘lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiyot maktablari tarkib topib, madrasa deb atala boshlagan. Madrasalar xonlar va yirik yer egalari, boylar va boshqa davlatmand kishilar tomonidan qurdirilgan. Madrasani qurdiruvchilarmadrasauchun vakf ajratib, madrasamutavallisini tayinlaganlar. Mutavalli vaqfdan tushgan daromadni mudarris, mullavachcha, imom va boshqalarga taqsimlagan. Madrasaga maktabni tugatgan o‘spirinlarqabul qilingan. O‘rta Osiyodagi madrasalarda arabva forstilida yozilgan «Av-vali ilm» kitobi o‘qitilgan. Ayrim madrasalardatibbiyot, arab tili, falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o‘qitilgan. Madrasaning har bir bosqichida o‘qish muddati 3-4yil davometgan.

Masjid – sajdagoh, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo‘lib, namoz o‘qiydigan joy. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o‘qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad Payg‘ambar (s.a.v) qurdirgan.

Mezana – minoraning yuqori qismi, muazzin azon aytadigan joy. Mezana aylana shaklida va ko‘p qirrali bo‘ladi. Ko‘pincha, ravoqsimon darchalar galereyasidan iborat bo‘ladi. Ichki devorlari ganch bilan naqshlanadi. Mezananing tepasi odatda, gumbazcha bilan yopiladi.

Mesh – oshlangan teridan tikilgan og‘zi tor qop. Juda qadimdan ma’lum. Mesh suyuq narsalarni tashish va saqlashda, chalob tayyorlash va boshqalarda ishlatilgan. Sharq mamlakatlari, O‘rta Osiyo va Sibir xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan.

Meshkob – meshda suv tashuvchi odam. Meshkoblar suv manbalaridan xonardonlarga, guzarlarga, choyxonalarga, karvonsaroylarga suv tashib berib tirikchilik o‘tkazganlar. Ularni meshkobchi deb ham atashgan. Meshkobchilar O‘rta Osiyoning suv tanqis ayrim shaharlarida, masalan, Buxoroda XX asr boshlariga qadar mavjud bo‘lgan.

Mehtar— Buxoro amirligidazakotchilar boshlig‘i. Qo‘qon va Xiva xonliklarida davlat xizmatchisi. Shuningdek o‘tmishda saroy sozandalarining boshlig‘i, yetakchi sozanda. Temuriylar zamonida mehtarlar nog‘orachilardan, keyinchalik surnaychilardantayinlangan.

Ming—o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Samarqand viloyati, shuningdek Farg‘ona vodiysida hamda Buxoro vohasida, ayrim guruhlari tarqoq holda Surxondaryo viloyatining Boysun, Muzrobod, Denov tumanlarida yashaganlar. Minglar uchta yirik uruqqa bo‘linganlar: 1.Tug‘ali. 2.Bog‘lon. 3. Uvoq tamg‘asi. Bu urug‘lar o‘z navbatida yana bir necha mayda urug‘larga bo‘lingan. Minglar Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga XV asr oxiri – XVI asrning yarmida ko‘chib kelganlar hamda O‘rta Osiyo xonliklarning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Minglarga mansub yirik yirik feodallar 1709 yilda Farg‘ona vodiysida yangi davlatga – Qo‘qon xonligiga asos solganlar. Minglar sulolasi hukmronligi 1876 yilga qadar, ya’ni Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligini bosib olgunga qadar xukm surgan.

Mingboshi— harbiy va ma’muriy unvon. Qo‘qon xonligida xondan keyingi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan shug‘ullangan. Xiva xonligida mingboshilik eng kichik amal hisoblangan. O‘rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan istilo etilgunga qadar Toshkent, Oqmasjid kabi shaharlarning hokimlari ham mingboshi deb atalgan. Chor Rossiyasi mustamlakasi yillarida Toshkent dahalarining boshliqlari ham mingboshi deyilgan. Daha mingboshisi aholi tominidan saylanib, viloyat begi tarafidan tasdiqlangan. Keyinchalik mingboshi oldi-sotdi ishlarini nazorat qiladigan mansabga aylanib qolgan.

Mir — «Amir» so‘zining qisqargan shakli. Hukmdor, hokim, podshoh, vazirlarga nisbatan qo‘llanilgan. Ayrim hollarda yuqori imtiyozli kishilarga unvon tariqasida ham ishlatilgan. *Masalan*, Mir Alisher Navoiy.

Mirzaboshi— saroyning yirik mansabdorlaridan biri. Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligida amir saroyida devonxona hokimi bo‘lib, mirzalar boshligi hisoblangan.

Miroxur— Buxoro amirligida yuqori bosqichdagi 6-darajali mansab bo‘lib, xon otxonasining boshlig‘i bo‘lgan. U saroydagi otxonalar va ot-o‘lov mahkamasiga javobgar bo‘lib, dasturxonchi va parvonachidan keyingi mansabdor shaxshisoblangan.

Mirshab— O‘rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo‘lib, odatda shaharning kechki xo‘jayini (miri-shab) deb ham yuritilgan. Mirshabasosan o‘z ishiga kechkurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so‘ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv qaiday jim-jit bo‘lgan. Mana shu davrdan boshlab, hech kim chiqmasligi va shahar ko‘chalarida yurmasliklari kerak bo‘lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlanib, mirshabxonaga keltirilgan. Mirshab lavozimi Buxoro amirligida 1920 yilgacha mavjud bo‘lgan.

Mirshabboshi— Buxoro amirligida mirshablar boshlig‘i. Turkiston o‘lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, to 1917 yilgacha mahalliy aholi yashaydigan mahalalarda mirshabxonalar tashkil etilgan bo‘lib, mirshablar boshlig‘i

mirshabboshi deb yuritilgan. Ular mingboshi va oqsoqollar ixtiyorida bo‘lib, ularning topshiriqlarini bajarganlar.

Mulla— XIII asrdan boshlab dindorlar va ilohiyotchi olimlar, murabbiylar va muallimlarning obro‘yi va ta’siri ancha kuchayadi. Ularni hurmat bilan xalq orasida mavlono deyishgan. Arab tilida u janob, janobimiz degan ma’noni anglatgan. O‘rta asrlarda bu unvon juda kam uchragan bo‘lsada, XVII asrdan boshlab keng tarqala boshlaydi. Asosanmavlono so‘zini nomga qo‘sib aytish lozim bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan mavlono so‘zini ismga qo‘sib aytish qiyin bo‘lgani uchun uning shakli o‘zgartirilib mulla deb yuritilgan. O‘rta Osiyoda diniy ilmdan xabardor va o‘qimishli, Qur’oni Karimni yaxshi bilgan zotlar ismiga mavlono o‘rniga mulla so‘zini qo‘sib ishlatganlar. Shu-shu mulla so‘zi keng qo‘llanilib ketgan. Demak, mulla – bu madrasada tahsil olgan, diniy ilmga ega bo‘lgan ma’lumotli kishilar, din arboblari va ulamolari demakdir.

Munshi – O‘rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi. Munshi lavozimiga odatda, ma’lumotli va chiroyli yozadigan kishilarga olingan. Munshilar olim va fozil kishilar bo‘lganligi uchun oddiy kotiblardan farq qilgan. Ular zimmasiga xon va amirlarning maktub va farmonlarini yozish yuklatilgan. Tarixiy asarlarning aksariyati ana shu munshilar qalamiga mansub. Munshi lavozimida bo‘lgan kishilar munshi so‘zini taxallus sifatida o‘z nomlari ketiga qo‘sib qo‘yanlar.

Muftiy– musulmonlarda oliy martabali ruhoni. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariatni tadbiq etish masalalarida hal qiluvchi hukuqga ega. Sharqning musulmon mamlakatlarida muftiylik hukumat tayinlaydigan rasmiy lavozim hisoblanadi.

Muhrkanlik- muhr yasash kasbi. Muhrkanlik qadimdan O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Amir Temur saroyida, Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonlari saroylarida va boshqa joylarda muhrkanlik ustaxonalari bo‘lgan. Muhrkanlar xonlikdagi turli idora va muassasalar hamda amaldorlarning muhrlarini tayyorlashgan.

Navkar– xon, podshoh, sulton va yirik feodallarning doimiy harbiy xizmatchisi. Navkarlar asosan hukmdorlarning mol-mulkini qo‘riqlashgan va harbiy yurishlarda ishtirok etgan.

Nayman– o‘zbek, kozoq, qorakalpoq, qirg‘iz, nug‘oy va oltoy xalqlarining tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. O‘zbek naymanlari Zarafshon vohasi, Farg‘ona vodiysi va Xorazmda yashaganlar. O‘zbek naymanlari XIX asr oxirida 3 ta yirik urug‘ga bo‘lingan: qo‘shtamg‘ali, sadirbek va uvox tamg‘ali. Bulardan tashqari, naymanlarda quyidagi urug‘ bo‘linishlari ham mavjud bo‘lgan: ag‘ron, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, boltali, buqalay, burunsov, jag‘albayli, jastovon, jiloili, jumaloyaq bosh, olti ota, olti o‘g‘il, oq tunli, po‘lotchi, sag‘iz uruv, sari nayman, to‘rtuul, to‘rt tamg‘ali, urguch, changali, cho‘michli, g‘ozoyoqli, qora nayman, qora gadoy, qora sirak, qarg‘ali, qil tamg‘ali, qo‘l tamg‘ali va boshqalar.

Naqshbandiylik– Islomdagি so‘fiylik tariqatlaridan biri. Buxoroda Bahovuddin Naqshbandiy asos solgan. Naqshbandiylik xo‘jagon tariqati negizida paydo bo‘lib, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy qarashlarini umumlashtirdi. Bahovuddin va uning izdoshlari

dastlabki davrdan tarki dunyochilik va faqirlikni, barcha mavjudotlarga muhabbat bilan qarash mazmunidagi g‘oyalarini targ‘ib qilganlar. O‘zları ham zohidlik va faqirlikda yashaganlar. Naqshbandiylik XV-XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi shahar aholisi va ko‘chmanchi chorvador aholi orasida keng yoyilgan. Bu ta’limotning asosida “Ko‘ngil Ollohda, qo‘ling ishda bo‘lsin” (“Dil ba yoru dast ba kor”) shiori yotadi.

Oltin O‘rda – tarixiy manbalarda Jo‘chi ulusi deb ham yuritiladi. XIII asrning 40-yillarila Chingizzonning nabirasi Jo‘chixonning o‘g‘li Botuxon (1208-1255) tomonidan bosib olingen Sharqiy Yevropa Jo‘chi ulusiga qo‘shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O‘rda deb atalgan. Oltin O‘rdaga Quyi Dunay va Fin qo‘ltig‘idan to Irtish havzası va Obning quyi oqimigacha, Qora, Kaspiy, Orol dengizlari hamda Balxash qo‘lidan Novgorod yerlarigacha bo‘lgan joylar kirgan. Rus yerlari Oltin O‘rdaga vassal, ya’ni qaram bo‘lgan. Oltin O‘rdanining poytaxti dastlab hozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy Botu, keyinroq esa hozirgi Volgograd yaqinidagi Saroy Berka shaharlari bo‘lgan. XV asrning 20-yillarida Oltin O‘rdadan Sibir xonligi, Qozon xonligi (1438), Qrim xonligi (1443), Nug‘oy xonligi (1440) va Astraxan xonliklari ajralib chiqqan.

Otaliq – dastlab saljuqiylar sulolası davrida (1038-1194) xon e’tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. Otaliq «Ota o‘rniga ota» degan mazmunga ega bo‘lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog‘atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo‘lgan. Tarixda ba’zi otaliqlar hokimiyatni o‘z qo‘llariga olgan hollar ham bo‘lgan. Chunonchi, ashtarxoniyalar sulolası hukmronligi davrida (1599-1753) Balxda Mahmudbiy otaliq (XVIII asr boshlari), Mang‘itlar sulolası hukmronligi davrida (1753-1920) Buxoroda Muhammad Rahim otaliq (1753-1758) mana shunday yo‘l orqali hokimiyatni egallagan.

Otin – eski diniy maktablarda qizlar o‘qituvchisi otin deyilgan. Otinlar ayollar o‘rtasidagi diniy marosimlarni o‘tkazishda boshchilik qilib, ularga diniy ta’limot berib, ulardan tushadigan daromad hisobiga yashaganlar.

Oftobachi – O‘rta Osiyo xonliklarida hukmdor saroyida hukmdorning qo‘liga suv quyuvchi shaxs bo‘lib, yuqori mavqega ega bo‘lgan lavozimlardan biri. Oftobachi davlat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mansabdor ham bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon xonligida Xudoyorxon davrida Abdurahmon oftobachi mas‘uliyatlidagi davlat topshiriqlarini ado etgan.

Oqsoqollar – qariya, mo‘ysafid, katta boshliq, arbob. Xiva xonligida mansabdor va hurmatli kishilar bo‘lib, ular elchilarni qabul qilar yoki boshqa tantanali marosimlarda qatnashar edilar. Shuningdek, o‘rta asrlarda butun O‘rta Osiyo hududida qishloq jamoasi boshlig‘i ham oqsoqollar deb atalgan. Toshkent va Turkiston o‘lkasining boshqa shu kabi yirik shaharlaridagi daha boshliqlari ham oqsoqollar deb atalgan.

Og‘aliq - Buxoro amirligida ayrim viloyatlar hokimlarining amir tasdig‘idan o‘tgan vakili. Amir to‘rt viloyat (Chorjo‘y, Qarshi, Shahrisabz, Kitob) uchun og‘aliq tayinlagan. Mazkur viloyatlar aholisi o‘rta asrlarda amir hokimiyatiga o‘zoq vaqt

bo‘ysunmay kelgan. Aholining isyonkorlik ruhi amirni aholi bilan viloyat hokimi o‘rtasida vositalik qiluvchi shunday vakil tayinlashga majbur etgan.

Parvonachi– XVII – XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo‘lgan mansab; vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlarini yozib tegishli kishilarga yetkazib turgan. Yuqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi tomonidan bitilgan farmonni uch kun mobaynida o‘z sallasiga qistirib yurishi lozim bo‘lgan.

Ponsad– O‘rta Osiyo xonliklarida qo‘llanilgan harbiy unvon. Ponsad 500 kishidan iborat otryadga qumondonlik qilgan Qo‘qon xonligida mavjud bo‘lgan mansablar ichida 16-o‘rinda, harbiy unvonlar orasida esa mingboshidan keyingi o‘rinda turgan. Ponsad odatda, xon va bek tomonidan tayinlanib, ba’zi soliqlardan qisman yoki butunlay ozod qilingan hamda unga har yili ikki marta ma’lum miqdorda g‘alla, pul va sarpolar berilgan.

Rais – O‘rta Osiyo xalqlarida XX asrning birinchi choragigacha mavjud bo‘lgan mansab. Rais ba’zida boshqacha ibora bilan ham yuritilib, u muhtasiblik deb yuritilgan. Buxoro amirligida dindorlar rayosatida rais lavozimi qozikalondan keyin ikkinchi o‘rinda turgan. Raisning vazifasiga bozorlarning narx-navosi, torozi va arshinlarning to‘g‘riligini nazorat qilish, hisob-kitobini aniqlash, shahar atrofidagi aholining shariat qonun - qoidalariga qanday rioya qilayotganligini tekshirish, da’volarini eshitish, namozxonlar va qimorbozlarning sonini aniqlash va ular bilan ishlash, muazzinlarni vazifaga tayinlash, yo‘llarni to‘zatishlar kirar edi.

Rasadxona– osmon jismlarining holati va harakatini ko‘zatadigan maxsus joy. Samarqandda XV asrda Ulug‘bek tomonidan qurilgan rasadxona hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

Registon– O‘rta Sharq shaharlaridagi maydon. Samarqand va Buxorodagi registonlar shahar arxitekturasida tutgan o‘rni va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa Samarqanddagi Registon ansambli yirik me’morchilik inshooti sifatida hozirgi kungacha butun dunyoga mashhur.

Sayid–arablarda musulmon davri boshlangungaqadar qabilaning saylanadigan rahbarlari unvoni bo‘lib, boshliq mas’ul shaxs degan ma’noni bildirgan. Muhammad Payg‘ambarning amakivachchasi Alining otasi Abutolib bir vaqtlar quraysh qabilasining sayidlaridan bo‘lgan. Shuning uchun bu unvon Muhammad Payg‘ambarning nevaralari, Alining o‘g‘illari Hasan va Husanning butun avlodlari ismiga qo‘yiladigan faxriy unvon hisoblangan. Sayidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayid hisoblangan. Mana shuning uchun ham musulmonlar dunyosida, jumladan, Movarounnahrda ham ko‘pincha hukmdorlar ham o‘z avlodlari mavqeini ko‘tarish maqsadida sayidlar qiziga uylanishga harakat qilishgan. Mang‘itlar sulolasining so‘nggi vakili Sayid Olimxon ona tomonidan Alining avlodи hisoblangan.

Sarbadorlar– XIV asrda Eron va O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar va mahalliy feodallarga qarshi ko‘tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. So‘zma- so‘z ma’nosи «o‘z boshini dorga tikkanlar».

Sardoba– quduq yoki hovo‘z ustiga pishgap g‘ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot bo‘lib, unga zinalar orqali tushilgan.

Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo‘lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa nihoyatda muzday bo‘lgan. Sardobalar asosan karvon yo‘llarida qurilgan.

Saroy— o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyushmasi. O‘zbekiston hududida yashovchi saroylarning soni 50 mingdan ortiq. Qashqadaryo vodiysida, ayrim guruhlari Jom cho‘lida, Ko‘hitang yon bag‘irlarida, Samarqandning janubig‘arbida va Jizzax atrofida yashaganlar. Saroylar tarkibida bir qancha yirik va kichik urug‘lar mavjud bo‘lgan. Masalan, az-saroy, qipchoq saroy, qirg‘iz saroy, qo‘ng‘rot-saroy, major-saroy, qorabog‘-saroy, nayman-saroy va boshqalar. Saroylar etnik birlashma sifatida XIV–XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo‘lib, XVI asrda boshqa ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari va urug‘lari bilan birga hozirgi O‘zbekiston hududiga kelib joylashgan.

Sarrof— shahar ko‘chalari va rastalarida o‘tirib, kishilarining yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarni aniqlash, ularning bahosini belgilash, ayrim kishilarining omonat pullarini, buyumlarini ma’lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug‘ullanganlar. Ilgari O‘rta Osiyoning har bir shahrida saroflik bilan shug‘ullanuvchilar bo‘lgan.

Sart— 1. VI asrlarda turklar O‘rta Osiyon bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini sart deb atashgan. 2. XII–XIII asrlarda mo‘g‘ullar savdogarchilik bilan kelgan, asosan aksariyat musulmon savdogarlarini sart deb atashgan. 3. XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan ko‘chmanchi o‘zbeklar mahalliy o‘troq aholini sart deb atagan. Keyinchalik vaziyat o‘zgarishi bilan sart atamasining mazmuni ham o‘zgardi. Ko‘chmanchi o‘zbeklar O‘rta Osiyon bosib olganlaridan so‘ng, O‘rta Osiyodagi o‘troq aholining katta qismi turkiy tilda gaplashganligi uchun, ularni ko‘chmanchi o‘zbeklardan farq qilish maqsadida faqat O‘rta Osiyo vohasining shahar va o‘troq aholisiga nisbatan sart atamasi ishlatila boshlandi. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olganidan keyin ham mahalliy aholiga nisbatan shu atamani ishlagan.

Sag‘oniyon (Chag‘oniyon)— o‘rta asrlarda Movarounnahrda mavjud bo‘lgan qadimiy viloyat. Tarixiy manbalarda Chag‘oniyon deb yuritilgan. U hozirgi O‘zbekistan Respublikasining Surxondaryo viloyati hamda qisman Tojikistoi Respublikasi hududida joylashgan.

Sohibqiron—1. Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to‘sishi paytida tug‘ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatlari yulduz – Zuhro va Mushtariy sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug‘ilgan ekan. Munajjimlarnish fikriga ko‘ra, bunday odam baxtli, ulug‘ martabali bo‘lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so‘zining asl ma’nosи «bahtiyor podshoh», «qudratli podshox» demakdir. 2. Sharq mamlakatlarida obro‘li, g‘olib podsholarga berilgan unvon. O‘rta Osiyoda dastlab Amir Temurga shunday unvon berilgan.

Suyurg‘ol— biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko‘rsatgan shaxslarga

berilgan in’om. Suyurg‘olga berilgan yer nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tgan. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib, olgan daromadi va mahalliy aholidan o‘z ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda suyurg‘ol Amir Temur hukmronligi davrida keng tus olgan. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning ayrim viloyatlarini shu yerlarning sobiq egalariga, o‘z o‘g‘illariga, nevaralariga, ba’zan alohida xizmat ko‘rsatgan amirlariga, qo‘sish boshliqlariga suyurg‘ol qilgan. XVI asrdan boshlab suyurg‘olning avvalgi tartibi o‘zgardi. Shayboniyalar hukmronligining so‘nggi yillari va ashtarkoniylar hukmronligi davrida ayrim qishloqlar, yer maydonlari, hatto shu yerlardan undirilgan soliqlarning bir qismi ham suyurg‘ol tariqasida beriladigan bo‘ldi. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida suyurg‘ol xarakteri tubdan o‘zgarib, uning faqat merosiyligi saqlanib qoldi.

Tavochi— XIII– XVII asrlarda O‘rta Osiyo va Eronda xon va podshohlar saroyida xizmat qilgan oliy harbiy mansabdar. Tavochi zimmasiga harbiy yurish ko‘zda tutilganda tobe viloyatlardan oziq-ovqat, qurol-aslaho, ot-o‘lov bilan belgilangan miqdorda lashkar to‘plab kelish, harbiy yurish oldidan hamma qo‘sishlarni ko‘rikka hozirlash, harbiy yurish vaqtida dam olish va uni o‘tkazish uchun qo‘sinni qulay o‘ringa joylashtirish, dushman qarorgohiga yaqinlashib, uni qamal qiluvchi qo‘sishlarni joy-joyiga qo‘yish, asirlar va jinoyatchilarning jazolanishini nazorat qilish, qamal xavfi tug‘ilganda tevarak atrofdagi qishloqlar aholisini qal’aga ko‘chirib kelish kabi vazifalar yuklangan.

Tanob— O‘rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o‘lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob 3600 m²

Tanobchi— O‘rta Osiyo xonliklarida hosildan olinadigan soliqlar hajmini belgilovchi amaldor.

Tanob puli – O‘rta Osiyo xonliklarida har bir tanob beda maydoni uchun yiliga 40 tanga miqdorda undirilgan soliq. Shuningdek, u bog‘ solig‘i deb ham yuritilgan.

Tanxo – O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan suyurg‘olning bir ko‘rinishi bo‘lib, u faqat harbiylarga berilgan. Tanho ham suyurg‘olga o‘xshab pul, mol-mulk, yer-suv tariqasida berilgan.

Tarxon— 1. O‘rta asrlarda turkiy xalqlardagi zodagon nomi. 2. O‘rta Osiyo xonliklarida zodagonlarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulkulari.

Temuriylar— 1370-1507 yillarda Temuriylardavlatida hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi – Amir Temur. Temuriylar Chig‘atoy ulusida kuchayib ketgan feodal tarqoqlik natijasida hokimiyat tepasiga keldi. Samarqand va Hirot Temuriylar davlatining poytaxti bo‘lgan. Temuriylarning hukmronlik qilgan yillari: Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir (1370-1405); Xalil sulton ibn Mironshox; (1405-1409, Movarounnahr hokimi, 1409-1411, Ray shahri hokimi); Shohrux ibn Temur (1396-1490, Xuroson hokimi, 1409-1447, Temuriylar davlatining oliyhukmdori.); Ulug‘bek ibn Shohrux (1409-1447, Movarounnahr hokimi, 1447-1449, Temuriylar davlatining oliy hukmdori); Abdullatif ibn Ulug‘bek (1449-1450, Movarounnahr hokimi); Abulqosim Bobir (1449-1457, Xuroson hokimi); Abdulloh Mirzo ibn Ibrohim sulton (1450-1451, Movarounnahr hokimi); Sulton Mahmud ibn

Abulqosim Bobur (1457-1459, Xuroson hokimi); Abu Sayd ibn Sulton Muhammad (1451-1458, Movarounnahr hokimi, 1458-1469, Temuriylar davlatining oliv hukmdori); Sulton Ahmad ibn Abu Sayid (1469-1494, Movarounnahr hokimi); Sulton Mahmud ibn Abu Sayid (1494-1498, Movarounnahr hokimi); Sulton Ali ibn Sulton Mahmud (1498-1500, Movarounnahr hokimi). 1500 yili Movarounnaxr Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan bosib olingach, faqat Xuroson Temuriylar qo‘lida qolgan. Sulton Husayn Boyqaro (1470-1506, Xuroson hokimi); Badiuzzamon (1506-1507, Xuroson hokimi). 1507 yili 20 mayda Shayboniyxon Hirotni egalladi. Temuriylar sulolasiga mansub so‘nggi hukmdor Zahiriddin Bobur Afg‘onistonga qochib borib, u yerda 1508 yili mustaqil davlat tuzdi. U 1525 yili Shimoliy Hindistonni bosib olib, u yerda yangi Boburiylar imperiyasiga asos soldi.

SOVET DAVRI TARIXIGA ZAMONAVIY YONDASHUV.

3.3 Sovet davri tarixiga yangicha yondoshuv mohiyati

3.4 Qurolli qarshilik harakati tarixi

3.3 Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari

3.4 Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.

3.1 Sovet davri tarixiga yangicha yondoshuv mohiyati

Insoniyat tarixida ziddiyatli va murakkab jarayonlar, tarixiy voqeliklarga boy bo‘lmish XX asr tarixi mustabid sovet davrida o‘ta siyosiyashtirib, tegishli mafkura qobig‘iga o‘ralgan, tuzum ma’naviy quroliga aylantirilgan edi. Tabiiyki, 70 yildan ziyodroq hukm surgan mustabid sovet davri tarixi, ilmiy adabiyotlarida mazkur holat o‘z aksini topgan edi. O‘zbekistonning sovet mustabid hukmronligi davri tarixini mustaqillik yillarida zamonaviy nazariy-konseptual, metodik yondashuvlar asosida qayta ilmiy va xolisona ravishda yoritilish jarayoni yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, ilk bora vatan tarixshunosligida sovet mustabid tuzumiga qarshi qurolli harakat masalasi tadqiq etildi, sovet davlatining O‘zbekistonda yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ma’rifiy siyosatining bir tomonlama salbiy xarakteri ochib berildi, o‘lkamizda amalga oshirilgan “madaniy inqilob”, “Hujum” harakatiga yangicha baho berildi, O‘zbekistonni paxta xom-ashyo bazasiga aylanishi, uning asoratli oqibatlari, sovet davrida tarixiy-demografik holat, inqiroziy vaziyat, ekologik fojea, ijtimoiy hayotdagi muammolar va boshqalar ochib berildi. Mamlakatimiz tarixinining ochilmagan sahifalarini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1999 yil 12 maydagি mustabid tuzum davrida Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qatag‘onga uchrab halok bo‘lgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risidagi qarori katta rol

o‘ynadi. Ushbu qaror o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta axamiyat kasb etib, o‘tmishda ozodlik va erk uchun kurashganlarning og‘ir qismatlarini bayon etishni kun tartibiga qo‘ygan edi. Sovet qatag‘onlik siyosati, O‘zbekistonda uning o‘zgacha, yanada chuqur va shavqatsiz uslubi, taniqli davlat arboblari, fan, adabiyot, madaniyat vakillarining xalq erki, Vatan ravnaqi yo‘lidagi og‘ir taqdir yo‘llari tarixchi olimlarni yangi izlanish va tadqiqotlarga safarbar bo‘lishga turki bo‘ldi. Yuqori fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg‘usi bilan hamda tegishli ilmiy salohiyatni uyg‘unlashtira olgan tarixchilar bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Sovetlarning nafaqat qatag‘onlik siyosati, balki butun sovet davrida kechgan quloqlashtirish, kollektivlashtirish va o‘zbek qishlog‘i fojeasi, zo‘ravonlik bilan olib borilgan ko‘chirish siyosati, XX asr 80-yillaridagi markazning “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” deb nomlangan soxta mash‘um jarayonlari ham tadqiqot obyektlari safidan joy oldi. Qayd qilingan masalalar yuzasidan ko‘plab dissertatsiya himoyalari amalga oshirildi, ilmiy anjumanlarda ma’ruzalar qilindi, ilmiy risola, adabiyot, monografiyalar nashr etildi. Natijada ko‘plab voqelik va jarayonlarga zamonaviy tarzda ilmiy va xolis baho berildi.

1. Qurolli qarshilik harakati tarixi

Turkistonda oktabr to‘ntarishidan keyin sodir bo‘lgan voqealar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklar o‘rnatgan sovet tuzumi o‘lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyatni ham ravo ko‘rmadi. Mustaqillik osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo‘lga qurol olib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshlab yubordilar. Biroq sovet tuzumi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida, ularga “bosmachi” deb nohaq tamg‘a bosildi.

Bu harakat haqida so‘z yuritilganda ta’kidlash lozimki, Q.Rajabov tadqiqotlariga ko‘ra, 1918-1919 yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrga tegishli arxiv hujjatlarida ham “bosmachi” so‘zi uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi” (razboynik), “shayka”, juda bo‘lmasa “bosqinchi” (bandit) iboralari qo‘llanilgan. 1919 yilning o‘rtalaridan boshlab avval ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida “bosmachi” iborasini qo‘llash boshlangan. “Bosmachi” va “bosmachilik” iboralari ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish, ajdodlarimizning bolsheviklar hukmronligiga qarshi olib borgan qonli kurashlarini xaspo‘shlash uchun buyuk davlatchi shovinistlar tomonidan o‘ylab topildi va “banditlik”, “qaroqchilik” so‘zleri bilan asossiz ravishda bir qatorga qo‘yildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, “bosmachi” yorlig‘i yopishtirilgan otabobolarimizning muborak nomlari qayta tiklandi va ularning haqiqiy qiyofalari istiqlolchilar sifatida namoyon bo‘ldi.

Sovetlarga qarshi harakat “Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi” deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e’tirof qilinadi. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag‘darib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo‘lmasanida ham bu harakatning vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat

sovet hokimiyatiga qarshi istiqlol kurashining boshlanishini muqarrar qilib qo‘ygan edi.

Birinchidan, 1917 yilda sodir bo‘lgan oktabr to‘ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo‘lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g‘oyani avval boshdanoq o‘ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati o‘rnatalgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g‘ururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan o‘rnatalgan sovet tuzumi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o‘sha dastlabki kunlardanoq oshkor bo‘lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o‘rnatalgan ilk kunlardanoq mahalliy xalqning asrlar davomda shakllangan urf-odatlari, milliy qadriyatları toptaldi. Shariat asoslari va qozixonalar bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo‘yildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tugatilishi bu harakatning butun Farg‘ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o‘tadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg‘onaliklar Turkistonda bиринчи bo‘lib Bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va Bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo‘lgan. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e’tirof etishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi: o‘ziga to‘q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islam dini arboblari hamda ba’zi boylar qo‘shildi. Harakat qatnashchilari safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar-ziyolilar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi va ular jadidlar orasidan ajralib chiqqan. Bir so‘z bilan aytganda, ular safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

“Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat boshlanishining tarixiy shart-sharoitlari” mavzusi yuzasidan “Tarixiy tahvil” konseptual jadvali

berdi?	Qachon va qayerda?	Voqeanning sabab yoki oqibati
ton ultoyi Qo‘qonda	1917 yil 26-28 noyabr (9-11 dekabr) Qo‘qon shahri	Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlarning III qurultoyi qarorlari asos hukumatning tuzilishi nafaqat musulmonlar orasida, balki boshqa musulmon bo‘limgan norozilikka sabab bo‘ldi. Natijada tub yerli musulmon aholi vakillari Turkiston taraq Turkistondagi Bolsheviklarning shovinistik siyosatiga javoban milliy istiqlol muammosi-qilishga kirishdilar. Bunda Sovet Rossiyasidagi markaziy hokimiyat rahbari V.I.Lenin e’lon huquqlari deklaratsiyasi” (1917 yil 2 noyabr), “Rossiya va Sharqning barcha mu murojaatnomasi (1917- yil 20 noyabr) kabi rasmiy hujjatlari bayon qilingan fikrlar muxtoriyat asos bo‘ldi. Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirildi.

ikki kishi qarshi ilgan qarorida asini Rossiya likasi tarkibida muxtor deb e'lon	1917 yil 27 noyabr (10 dekabr) Qo'qon shahri	Qaror o'lka xalqlarigni ruhlantirib yubordi. Turkiston xalqlari muxtoriyatni qo'llab-quvvatlashdi. 1917 yil 6 dekabrida Toshkentdagagi Jome' masjidida 60 ming kishilik miting bo'shlig'i quruldi. Muxtoriyatni bir ovozdan ma'qulladilar va bundan buyon Turkistonda ana shu muvaqqat qanday hukumatni tan olmaslikka qaror qildilar.
topayotgan nomi "Turkiston taladigan bo'ldi.	1917 yil 28 noyabr (11 dekabr) Qo'qon shahri	Qurultoy Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaliyati Xalq (Millat) Majlisi (parlament) qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qiladi. Muxtoriyatni deb belgilandi.
ishchi, askar va atlarining I ti e'lon qilindi.	1917 yil 25 dekabr Qo'qon shahri	Turkiston Muxtoriyatiga munosabat to'g'risidagi masala syezd diqqat markazida bahslardan so'ng, syezd Turkiston Muxtoriyati vaqtli hukumatini qo'llab-quvvatlashga va ishchi, askar va dehqon deputatlari syezdi vakillarini kiritishga qaror qildi. Syezdda V.Lenin yuborish masalasi ham muhokama qilindi. Toshkentdagagi sovet hukumati Turkiston Muxtoriyatini bildi va qanday bo'lmashin uni yo'qotishga tayyorlarlikni boshladi. Ular Qo'qondagi voqeuning rivojiga o'z ta'sirini o'tkazishga urindilar.
oldat deputatlari (favqulodda) o'tdi.	1917 yil 29 dekabr Butun Turkiston o'lkasi	Toshkent soveti va boshqa joylardan Qo'qon sovetiga tinimsiz tinimsiz ravishda harbiy Natijajada muxtoriyatchilar va bolsheviklar o'rta sidagi kurao' itobora keskin va muhibbek Bolsheviklar Toshkent shahar Dumasini tarqatib, "Turkestanskiy vestnik" gazetasini yopib chiqardi.
Muxtoriyatini harbiy harakatlar di.	1918 yil 30 yanvar Turkiston o'lkasi	Toshkentdagagi Bolsheviklar buning uchun harbiy harakatlarga qizil askarlar otryadla "Dashnoqsutyun" (arman partiyasi hisoblanib, 1890 yilda tashkil topgan) partiyasi a'malga shart qo'shilishini jalb etish natijasida vaziyat yanada murakkablashdi.
janglar jamiyati Muxtoriyatda di.	1918 yil 31 yanvar	Inqilobiy qo'mita Muxtoriyat hukumatiga talabnomalar yo'llab, kunduzgi soat uchun topshirish, vakolatlaridan voz kechib, sovet hukumatini tan olish shartini qo'yadi. Muxtoriyatni bolsheviklar talabini javobsiz qoldiradilar. Shundan keyin inqilobiy qo'mita Muxtoriyat a'zolarini qaror chiqaradi.
shahri vayron	1918 yil 18 fevral	Mustafo CHO'qay o'g'li boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'darilib, hukumat militsiyasi boshlig'i Kichik Ergashga o'tadi.
	1918 yil 19-22 fevral	Turkiston o'lkasi harbiy komissari YE.Perfilyev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya shahariga yetib keladi va qizil askarlar 3 kun davomida shahar ustiga to'planishadi. 10 mingdan ziyod kishi o'ldiriladi. Qizil gvardiyachilar Qo'qon va uning atrofida o'ldirishni avj oldirishdi. Sovet rejimi Turkiston Muxtoriyati hukumatini 19 fevralda quroq kovaldi. 22 fevralda Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida Bolsheviklar tomonidan tayyorlangan imzolandi.

sovet rejimi va qarshi qurolli	1918 yil fevral oyining oxiri	Turkistonda qurolli harakatning boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi jiddiy sabablar ham mavjud edi. Birinchidan , 1917 yilda sodir bo‘lgan oktabr to‘nta hokimiyatni qo‘lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkur mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g‘oyani avval boshdanoq o‘ziga singdi turdi. Ikkinchidan , sovet hukumati o‘rnatilgan dastblabki kundanoq mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g‘ururi va haq-huquqlari inkor qilindi. Turkistonda o‘rnasi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o‘sha dastlabki kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shaxsiy qadriyatlari toptaldi. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi qurolli harakatning butun Farg‘onada boshlanishiga bir turtki vazifasini o‘tadi , xolos.
--------------------------------	-------------------------------	--

Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat birinchi davrining (1918-1924 yy) mohiyati. “Dalil, tahlil va xulosa” konseptual jadvali.

<i>Dalil</i>	<i>Tahlil</i>	<i>Xulosa</i>
Qurolli harakatning birinchi bosqichi 1918 yil fevral – 1920 yil bahori.	<p>Birinchi jihat. Sovetlar rejimiga qarshi qurolli harakat ishtirokchilarining soni ortib bordi va tashkiliy jihatdan uyushtirish boshlandi. Farg‘ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo‘rboshi dastalari faoliyat ko‘rsatardi. Bu tarqoq holda bo‘lgan qurolli harakatni yagona qo‘mondonlikka bo‘ysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida “SHo‘roi Islom” va “SHo‘roi Ulamo” tashkilotlari a’zolarining tashabbusi bilan 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog‘ida Farg‘onadagi butun qo‘rboshilarining birinchi qurultoyi chaqirildi, unda 40 dan ortiq yirik qo‘rboshilar qatnashdi. Farg‘ona vodiysidagi qurolli harakatning boshlig‘i qilib Katta Mulla Ergash saylandi va unga butun musulmon qo‘shinlarining oliy</p>	<p>Birinchidan, ikki yildan ziyod davom etib, 1920 yil bahorida yakunlangan bu harakat Farg‘ona vodiysida yirik harbiy kuchga aylanib, Bolsheviklar tuzumini larzaga keltirdi va qariyb ikki yil davomida Farg‘onadagi vaziyatni boshqarib turdi.</p> <p>Ikkinchidan, barcha qo‘rboshi dastalari ham milliy mustaqillik uchun kurashdilar deb bo‘lmaydi. Ba’zi guruuhlar o‘z manfaatlari yo‘lida to‘ntarishdan keyingi tartibsizliklar va boshboshoqlikdan foydalaniib xalqni talash, kichik guruuhlar bo‘lib, ular umumiyligi istiqlolchilik harakatiga qo‘silmas, o‘zlarini mustaqil harakat qilar edilar. Bundan sovet hukumati ustalik bilan foydalandi va ular orasiga rahna solishga muvaffaq bo‘ldi.</p> <p>Uchinchidan, Turkiston o‘lkasidagi istiqlolchilar yomon qurollangan, harbiy tayyorgarlik ko‘rmagan va katta talafot ko‘rayotgan bo‘lsalarda, bosqinchi qizil armiya qismlariga qarshi kurashni to‘xtatmadilar.</p>

bosh qo‘mondoni-
“Amir al-muslimin”
unvoni berildi.

Ikkinchি

jihat. 1918 yilning kech kuzi va 1920 yilning erta bahorigacha bo‘lgan davrda qurolli muxolifat shiddat bilan rivojlandi. Kurash ko‘lami allaqachon Farg‘ona vodiysi hududidan chiqib asosan Samarqand viloyati qisman Sirdaryo va Amudaryo viloyatlarini ham qamrab olgan edi. Bu bosqichda Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyati, asosan tugatildi.

Uchinchi

jihat. Ushbu bosqichning eng muhim yutug‘i -Madaminbek boshchiligida “Farg‘on a Muvaqqat Muxtoriyat hukumati” ning tuzilishi edi (1919 yil, 22 oktabr, Ergashtom).

To‘rtinchi

jihat. 1919 yil oktabr oxirida Oyimqishloqdagi qurultoyda Farg‘ona vodiysidagi 150 tacha qo‘rboshi dastalari 4 ta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon qo‘mondonligi ostida birlashtirildi. Islom qo‘sishinlarining oliy bosh qo‘mondoni – “Amir al-muslimin” qilib Madaminbek saylandi. Ammo bu kutilgan natija bermadi. Xolxo‘ja Eshon Madaminbekka

bo‘ysunmasligini aytib, mustaqil harakat boshladi. Bu davrda Madaminbek qo‘l ostida 30 mingga yaqin, Shermuhammadbekda 20000, Ergash qo‘rboshida 8000 yigit bo‘lib aynan shu uchta lashkarboshi vodiydagি jangovar harakatlarni boshqarib turgan edi.

Beshinchi

jihat. 1920 yil fevral oyida Madaminbek va Shermuhammadbek boshchiligidagi qurolli harakatga qarshi sovet qo‘sishinlari hujumga o‘tdi. Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganligini, har qadamda xiyonat ta’qib qilayotganini ko‘rgan Madaminbek o‘z yigitlari hayotini saqlab qolish maqsadida Farg‘ona qo‘sishinlari qo‘mondonligiga yarash muzokaralari boshlashni taklif qildi. Natijada Madaminbek bilan 2-Turkiston o‘qchi diviziyasi boshlig‘i Verevkin-Raxalskiy o‘rtasida 1920 yil martda Skobelevda yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o‘nglab qo‘rboshilar va 3500 yigitlari o‘tgan edi.

Oltinchi

jihat. Madaminbekning diplomatik tadbirlari samarasiz tugadi. Sovetlar tomonidan muzokaralar o‘tkazish uchun qo‘rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek

	<p>Shermuhammadbekning roziligi binoan Xolxo‘ja Eshon tomonidan 1920 yil 14 mayda Qorovul qishlog‘ida o‘ldirildi. Madaminbekning qatl etilishi bilan Turkistondagi qurolli harakatning birinchi bosqichi tugadi.</p>	
Qurolli harakatning ikkinchi bosqich i. 1920 yilning bahori – 1922 yil oxiri.	<p>Birinchi jihat. 1920 yilning may oyidan boshlab kurash bayrog‘ini vodiyya Madaminbek o‘rniga Shermuhammadbek ko‘tardi. Uning boshchiligidagi 1920 yid 3-mayda tuzilgan Turkiston mustaqil islom jumhuriyati Farg‘ona vodiyisidagi ozodlik kurashida ma’lum darajada xizmat qila oldi.</p> <p>Ikkinchi jihat. Sovet hukumati qurolli harakatlarni to‘xtatish maqsadida istiqlolchilarga va birinchi o‘rinda Shermuhammadbekka murojaat qilib, ulardan taslim bo‘lishni talab qildi. Natijada qo‘rboshilar bilan sovet hokimiyati vakillari o‘rtasida muzokaralar bo‘lib o‘tadi. (1921 yil aprel) Unda Shermuhammadbekning eng obro‘li qo‘rboshilaridan Aliyorbek istiqlolchilar nomidan quyidagi shartlarni o‘rtaga qo‘yadi: 1.Shariatga rioya qilish; 2.Mustaqil qozilar saylash; 3. Oziq-</p>	<p>Birinchidan, ikki yarim yildan ortiq davom etgan va asosan Shermuhammadbek faoliyati bilan bog‘liq ushbu ikkinchi bosqichda istiqlolchilar vodiyyagini qizil askarlarga qaqqashatqich zARBALAR berishga muvaffaq bo‘ldilar.</p> <p>Ikkinchidan, istiqlolchilar hamda jadidlar boshchiligidagi tashkil topgan Turkiston Muvaqqat hukumati va Turkiston Milliy birligi tashkiloti ozodlik kurashning mantiqiy hosilasi sifatida istiqlolchilarni g‘oyaviy jihatdan yuirlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Biroq, 1922 yilning oxirida sovet xokimiyatini va bolsheviklar rejimining Farg‘onadagi istiqlolchilik harakatiga qarshi olib borgan urush harakatlari natijasida vatanparvarlarning ahovli og‘irlashdi.</p> <p>Uchinchidan, 1921-1922 yillarda Farg‘ona vodiyisida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ocharchilik istiqlolchilarni qiyin ahvolga solib qo‘ydi. to‘rtinchidan, 1921 yildan boshlab Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatning joriy qilinishi, 1921-1922 yillarda amalga oshirilgan birinchi yer-suv islohoti natijasida chorizm davrida Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlarga majburan olib berilgan yerlar qaytarib olinib, tub yerli dehqon xo‘jaliklariga bo‘lib berilishi natijasida 1922 yilning oxiri, 1923 yilning boshlaridan boshlab, Turkistonda ayniqsa,</p>

ovqat taqsimotini bekor qilish. Sovet qo‘mondonligi bu takliflarni rad etdi.

Uchinchi jihat. 1921 yil avgust oyida Turkiston sovetlarining X syezdiga Farg‘ona istiqlolchilari diniy, xo‘jalik va siyosiy masalalarga oid qator shartlar bilan yana bir bor murojaat qildilar. Muzokaralarda tinch aholi ham ishtirok etdi. Ushbu vaziyatda bolsheviklar barcha shartlarni rad etishdi, taslim bo‘lgan qo‘rboshilarni otib tashlashdi.

To‘rtinchi jihat. 1921 yil 13 sentabrda Farg‘ona vodiysida favqulodda holat e’lon qilindi, noyabr oyida esa harbiy diktatura o‘rnatildi.

Beshinchi jihat. 1921 yil sentabrda sovet qo‘shinlari Marg‘ilonda Shermuhammadbek va Andijonda Isroil qo‘rboshi guruhiga qarshi bir payning o‘zida hujumga o‘tdilar.

Oltinchi jihat. 1922 yil dekabr oyida Qizil armiya qismlari istiqlolchilarga kuchli zarba beradi va bir qator g‘alabalarga erishadi. Natijada 1922 yil dekabr oyining o‘zida istiqlochilardan 1.852 qo‘rboshi va yigitlar o‘ldiriladi. Shermuhammadning o‘zi esa qator janglardan so‘ng, 1922 yil dekabr oyining so‘nggi

dehqonlar, hunarmandlar va boshqalar hayotida erkinlik va jonlanish sodir bo‘ldi. Bu hol urushdan charchagan va xonavayron bo‘lgan qishloq aholisi, hunarmandlarning tinch hayotga qaytishlari uchun imkoniyat tug‘dirdi. Natijada, shu yillardan e’tiboran istiqlolchilar safiga sovet hukumatidan norozi bo‘lgan dehqon va hunarmandlarning kelib qo‘shilish hollari kamayib bordi. Lekin bu istiqlolchilar kurashi yoki zaiflashib ketdi degani emas edi. Bu Turkistonda ozodlik kurashining uchinchi bosqichi boshlanganligini bildirardi.

	<p>kunlarida ukasi Nurmuhhammadbek va qo‘rboshi To‘xtasin Maqsud bilan 450-500 yigitdan iborat qo‘sinni olib, oldin buxoro Respublikasi hududiga, keyin Afg‘onistonga o‘tib ketadi. Mazkur voqealar bilan istiqlolchilik harakatining katta bir bosqichi tugaydi.</p>	
Qurolli harakatning uchinchisi bosqichidan. 1923 -1924 yillar.	<p>Birinchi jihat. Istiqlolchilar 1923-1924 yillardan boshlab kichik-kichik dastalarga bo‘lingan holda jang harakatlarini olib bordilar. Natijada Farg‘onadagi kichik qo‘rboshi dastalarining soni 1923 yil o‘rtalariga kelib 350-400 taga yetdi.</p> <p>Ikkinci jihat. Lekin qo‘rboshilar turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar natijasida bir-birlari bilan doimo kelishib ish tuta olmadilar. Ular o‘rtasida jiddiy kelishmovchilik va sotqinlikar yuz bera boshladи. Masalan, namanganlik Yoqubbek qo‘rboshi o‘zini saqlab qolish maqsadida 1923 yilda xiyonatkorona ravishda safdoshi Omon Pahlavonni qizil askarlar qo‘liga topshiradi.</p> <p>Uchinchi jihat. Bolsheviklar istiqlolchilarga qarshi kurashning barcha vositalarini ishga solib, aholi o‘rtasida ularga qarshi targ‘ibot va tashviqotni avj oldirdi, ulamo va eshonlarning bir qismini</p>	<p>Birinchidan, Tinimsiz davom etayotgan yetti yilik kurashdan Farg‘ona halqi ham, qo‘rboshi va ularning yigitlari ham toliqqa edilar. Shu bois ushbu bosqichda istiqlolchilar qarshilikni to‘xtatdilar.</p> <p>Ikkinchidan, Turkfront qo‘mondonligi tomonidan olib borilgan harbiy harakatlar natija tsida istiqlolchilar vaqtinchalik mag‘lubiyatga uchrab chekindilar. Ular keyingi janglar uchun kuch to‘plashlari lozim edi. Oldinda kurashning to‘liq 10 yili turardi.</p> <p>Uchinchidan, bolsheviklar ga taslim bo‘lishni hohlamagan istiqlolchilarning ko‘pchiligi xorijiy mamlakatlarga muhojirlikka jo‘nab ketishga majbur bo‘lishdi.</p>

sovet tuzumini qo'llab-quvvatlashga ko'ndirdi, asir olinga yoki taslim bo'lgan qo'rishi va ularning yigitlarini ayovsiz jazoladi, ularga hayrihoh bo'lgan va ularning ta'minotchilari deb shubha ostiga olingan kishilarining mol-mulkari musodara qilindi.

To'rtinchi

jihat. Sovet qurolli kuchlari muxolifatchilarga qarshi ommaviy hujumga o'tishdi, ularga kuchli zarabalar berishga muvaffaq bo'ldi. 1923 yilning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysida 230 ta qo'rishi istiqlolchilik kurashidan chetlatilgan.

Beshinchi

jihat. Vatanparavarlar qo'lidan birin-ketin vodiydagi barcha yirik qishloqlar va shaharlar tortib olindi. Istiqlolchilar kichik-kichik dastalarga bo'linib va guruhlarga bo'linib, tog'u-toshlarda, dasht va adirlarda kurashni davom ettirdilar. 1924 yil 1 mayda Farg'ona vodiysida ana shunday kichik qo'rishi dastalaridan 70 tasi qizil askarlarga qarshi urush olib borayotgan edi.

Ozodlik

kurashchilarining ko'pchiligi 1923 yilning oxiri va 1924 yilning oxirlariga kelib, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik

harakatining	uchinchi
bosqichi	ham
yakunlandi.	

Keys: “Armonda qolgan Madaminbek”



Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li bo‘lib, u 1892 yili Marg‘ilon atrofida – hozirgi Toshloq tumanining Sadda qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi So‘kchilik qishlog‘ida o‘rtahol oilada tug‘ildi. Ota-onasi o‘z davrining savodli va bilmndon kishilari, mahalla-ko‘y, qarindosh-urug‘lar davrasida boobro‘ odamlar bo‘lishgan. Ana shunday ma‘rifatli oilada voyaga yetgan Madaminbek to‘g‘ri so‘zli, do‘sraliga sadoqatli, mulohazali va diyonatli yigit bo‘lib o‘sdi.

Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko‘taradi. 1914 yili qamoqqa olinadi. Sud Madaminbekning o‘zi tan olmagan ayblar – qotillik va o‘g‘rilikni ham unga to‘nkab, 14 yilga Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga hukm qiladi. 1917 yil Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozodlikka chiqadi va Marg‘ilonga qaytib keladi. «SHo‘roi ulamo» jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar mirshablari boshlig‘i – qo‘rboshisi lavozimiga bejiz tavsiya etishmaydi. Agar u qotil va o‘g‘ri bo‘lganida nufuzli ulamolar va ziyorolar unga bu lavozimni taklif qilishmas edilar. Sovet rejimi yillarida Madaminbek va boshqa qo‘rboshilarga «o‘g‘ri», «bosqinchi», «bandit» degan sun‘iy yorliqlarni yopishtirish odat tusiga kirgan edi.

Turkistonda bolsheviklar hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallagach, Farg‘ona viloyati harbiy komissari K.Osipov Madaminbekni Marg‘ilon militsiyasi boshlig‘i etib tayinlash haqidagi buyruqqa qo‘l qo‘yadi va uni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlaydi. 1918 yil yanvar oyining oxirigacha Madaminbek shu lavozimda xizmat qiladi. Biroq sovet rejimining xalqqa qarshi siyosati Madaminbekni ozodlik uchun kurashga undadi. 1918 yil mart oyining boshlarida Madaminbek o‘z militsionerlari bilan

istiqlolchilar safiga o‘tdi. Madaminbek ayrim siyosatdonlar va tarixchilar hozir ham da‘vo qilayotganlaridek, Qo‘qon xoni bo‘lish uchun emas, balki yurtida tinchlik o‘rnatish va bosqinchilarga qarshi kurashish uchun qo‘liga qurol tutdi. Madaminbek atrofida Marg‘ilon va Toshloqdagi jasur chapani yigitlar to‘plandilar. «Yakkatut bo‘lisi Garbuva (Garbobo) qishlog‘idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo‘shilardi», – deb yoziladi 1918 yilgi rasmiy hujjatlarning birida.

1918 yil bahorida Madaminbek qo‘l ostida dastavval 1000-1500 yigit to‘plandi. «Dehqondan so‘nggi yaktagini ham tortib olgan» sho‘ro hokimiyatiga qarshi kurashish Madaminbekning asosiy matlabi bo‘lgan. Milliy-ozodlik harakati safiga Madaminbek singari salohiyatli sarkardaning qo‘shilishi juda katta ahamiyatga ega edi. «O‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona Muxtoriyatini tiklash vazifalarini qo‘ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi», – deb tan olinadi o‘sha davrga oid rasmiy hujjatlarning yana birida.

Madaminbek yigitlari o‘rtasida harbiy intizom kuchli edi. Madaminbekchilar bosqinchi va o‘g‘rilarni o‘zлari ushlab jazosini berishardi. Masalan, «1919 yil boshida Toshloqda Ishoq ishboshi va Tojibek kunjarafurush mayda bosqinchilik guruhlarini tuzgani uchun Madaminbek yuborgan odamlar tomonidan otib tashlandi».

Madaminbek siyemosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o‘zaro mujassam bo‘lgan. U Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilarning tan olingan yo‘lboshchisi edi. Madaminbek vodiyyadagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o‘z siyosiy boshqaruв usulini o‘rnatdi. Bunday boshqaruв usulini yana Farg‘ona vodiysida Katta Ergash va Shermuhammadbek, Buxoro respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho va Salim Posho, Xorazm respublikacida esa faqat Junaidxon kabi sardorlargina joriy etgan edilar. 1918 yil noyabr oyining boshida Andijon uezdidagi Oyimqishloqda (hozirgi Andijon viloyati Jalolquduq tumani) bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qo‘rboshilarining qurultoyida Katta Ergash qo‘rboshi o‘rniga istiqlolchilarning Oliy bosh qo‘mondoni qilib Madaminbek saylandi. Uning o‘rinbosarlari qilib Katta Ergash (taxminan 1882 – 1921) va Shermuhammadbek (1893 – 1970) tayinlandi.

Madaminbek 1918 yilning oxiridayoq mustaqillikka urinayotgan yirik qo‘rboshilarining faoliyatini boshqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shermuhammadbek, Nurmuhhammadbek, Xolxo‘ja Eshon, Mahkam Hoji, Rahmonqul, Omon Polvon va qirg‘iz mujohidlarining boshlig‘i Muhiddinbek singari qo‘rboshilarini yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirish undan juda katta kuch-g‘ayratni talab etdi. O‘z qishlog‘i va tumanida «o‘zi bek» bo‘lgan bu qo‘rboshilarining qarshiligi va o‘zboshimchalogini Madaminbek sindirishga erishdi. U Xolxo‘ja Eshonning shuhratparastligi va kaltabinligiga qarshi ancha kurashdi. Katta Ergash qo‘rboshi bilan Madaminbekning munosabatlari ham tez-tez o‘zgarib turardi.

Madaminbek qo‘shini safida xalqning barcha tabaqalariga mansub kishilar bor edi. Madaminbek qisqa muddat ichida o‘z atrofiga aqli maslahatchilarni to‘pladi va ular ko‘magida yaxshi tayyorlangan xodimlarni Farg‘ona vodiysining hamma

joylariga o‘z vakillari sifatida yubordi. Madaminbek yuborgan bunday vakillar vodiyning barcha shaharlari, katta qishloqlarida bo‘lib tub xalqlarni mustabid sovet rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurashga oyoqlantirdilar. «Madaminbek turli siyosiy oqimdagи kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo‘rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo‘lmagan edi», – deb o‘sha paytdayoq yozgan edi uning g‘oyaviy muxoliflaridan biri sovet harbiy tarixchisi V.Kuvshinov.

«1919 yil yanvarida Madaminbek qo‘l ostida 16000 kishidan iborat armiya bo‘lgan», – deb ta’kidlanadi Farg‘ona viloyati soveti nomiga 1919 yil 27 yanvarda yo‘llangan o‘ta shoshilinch ma’lumotnomada. O‘sha yil o‘rtalariga kelib esa Madaminbek qo‘l ostida 25.000 yigit sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib borgan. Bu paytda Shermuhammadbekda 20000 yigit, Katta Ergash qo‘rboshida bo‘lsa 15000=16000 yigit bo‘lgan.

Yosh Madaminbek tadbirkor lashkarboshi bo‘lish bilan birga, usta siyosatchi, mohir diplomat ham edi. U Farg‘ona vodiysidagi qo‘rboshilarni yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirdi, Buxoro amiri Said Olimxon (1881 – 1944) va Xiva xonligining amaldagi hukmdori Junaidxon (1857 – 1938) bilan qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun muzokaralar olib bordi. Samarcand viloyati istiqlolchilarning rahbarlari Bahrombek (? – 1922) va Ochilbek (tahminan 1883 – 1923) huzuriga o‘z vakillarini jo‘natdi. Afg‘oniston va Turkiyaga ham ishonchli kishilar yuborildi. Madaminbek Rossiyaning Koshg‘ardagi sobiq konsuli Uspenskiy va Buyuk Britaniyaning bosh konsuli P.Eserton orqali jahon sahnasiga chiqishga, Yevropa davlatlari hamda AQShdan bolsheviklarga qarshi kurash olib borish uchun iqtisodiy va harbiy yordam olishga intildi. Madaminbekning bu say-harakatlari xalqaro maydonda sezilarli yutuqqa olib kelmasa ham, lekin Farg‘ona vodiysining o‘zida mustabid sovet rejimiga qarshi kuchlarni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Madaminbek tomonidan mohirona diplomatik siyosat yuritilganligi natijasida 1919 yil 22 oktabrda uning boshchiligidagi Farg‘ona Muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzilgani vodiyyadagi vaziyatni istiqlolchilar foydasiga o‘zgartirib yubordi. Yagona, kuchli va malakali zamonaviy musulmon armiyasi tuzish ishlari qizib ketdi. 1919 yilning kech kuziga kelib, «Madaminbek qo‘l ostida salkam 30000 yigit» Qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordi. Bu paytda «Shermuhammadbekda 20000 yigit», «Katta Ergash qo‘rboshida 8000 yigit bo‘lgan». Ana shu lashkarboshilar vodiyyadagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdilar.

Sovet rejimi va bolsheviklar istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun barcha vositalarni ishga soldi. 1920 yil yanvar oyining o‘rtalariga kelib, jangovar tashabbus qizil armiya qo‘liga o‘tdi. Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganligini, har qadamda xiyonat ta’qib qilayotganini ko‘rgan Madaminbek o‘z yigitlari hayotini saqlab qolish maqsadida Farg‘onadagi sovet qo‘shinlari qo‘mondonligiga yarash muzokaralarini boshlashni taklif etdi. Istiqlolchilar qo‘shinining Bosh qo‘mondoni Madaminbek bilan 2-Turkiston o‘qchi diviziyasining boshlig‘i N.A.Veryovkin-Roxalskiy o‘rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o‘nlab qo‘rboshilari va 3500 yigit ham o‘tgan edi. Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari bu gal samarasiz tugadi. Sovet qo‘mondonligi tomonidan muzokaralar

o‘tkazish uchun qo‘rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziliqi bilan Xolxo‘ja Eshon tomonidan 1920 yil 14 mayda qirg‘izlarning Qorovul qishlog‘i atrofida xiyonatkorona o‘ldirildi.

KEYSNI TAHLIL QILISH UCHUN SAVOLLAR:

- Madaminbekning siyosiy qiyofasini tasvirlang. (3-4 ta jumla yetarli).
- Uning 1918 yil yanvar oxirlarida Marg‘ilon shahar mirshabi - militsiyasi boshlig‘i lavozimidan ketishiga sabab bo‘lgan asosiy omillarini (kamida 2 ta sabab) izohlang.
- Madaminbekning qo‘rboshi sifatidagi faoliyatini bosqichlarga ajrating. Har bir bosqichning qisqa tahlilini qiling.
- O‘z yigitlarining jonini saqlab qolish uchun sovetlar tomoniga o‘tib ketishdan boshqa muqobil chora bormidi? Madaminbek pozitsiyasidan turib hamda o‘sha davr (1918- 1920 yillar) sharoitini hisobga olgan holda uning hattiharakatlarini asoslab bering.
- Asl Madaminbek qanday bo‘lgan: chinakam vatanparvar, jasur sarkarda, mohir diplomat yoki vaziyatga qarab ish tutuvchi rahnamomi?

“Istiqlolchilik harakatining tarixiy ahamiyati” SWOT-tahlil.

lochilik katining hli (yoki iy) tomonlari	Istiqlolchilik harakatining boshidan oxirigacha bir ustuvor g‘oya yotgan, bu butun Turkiston mintaqasi va mustaqilligi g‘oyasi. Ushbu harakat goh kuchayib, goh pasayib turishiga, unda ishtirok etuvchilarni turganligi va ikkilamchi manfaatlar o‘zgarib turishiga hamda obyektiv va subyektiv omillar kuchlar muvofiq qilganligiga qaramay harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lib qolaverdi.
lochilik katining nsiz (yoki iy) tomonlari	Qo‘rboshilar o‘rtasida intizomli birlik va harbiy uyushqoqlikning yo‘qligi, quroqning tanqisasi, rejimning o‘z tomoniga mahalliy millat avkillarini og‘dirib olganligi hamda kurash jarayonida avvalo istiqlolchilarni holdan toydirdi. Shuningdek, istiqlolchilarga xorijiy davlatlarning birortasidan aytarli darajalarini yordam ko‘rsatilmadi.
lochilik katining oniyatlar	Uning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari: dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosimchalar ularga shahar aholisining aksariyat qismi: o‘ziga to‘q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, qadarni bo‘lgan mulla va eshonlar, qalandarlar hamda ba’zi bolyra qo‘sildi. Shuningdek, ziyolillar ham ko‘pchilikular orasida jadidlar orasidan ajralib chiqqan Turkiston munavvarlari va muborizlari bor edi.
lochilik katining rlı tomonlari	Barcha qo‘rboshi dastalari ham milliy mustaqillik uchun kurashdilar deb bo‘lmaydi. Ba’zi guruhsizlik yo‘lida to‘ntarishdan keyingi tartibsizliklar va boshboshdoqlikdan foydalanib xalqni talash, boylik orttirish qilganligi.

3.2 Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari.

1922 yil 30 dekabrda tashkil topgan SSSR qudratli unitar (qo‘shma) davlat bo‘lib, unda rasmiy federatsiya subyektlari suveren huquqlar va real mustaqillikdan mahrum edilar. O‘zbekiston ham faqat nomigagina SSSR tarkibidagi suveren ruspulika hisoblangan, aslida esa ittifoqqa har tomonlama qaram edi. SSSRda qaror topgan boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik tizimi jamiyatning barcha sohalarini o‘z maqsad va vazifalariga bo‘ysundirgan, ijtimoiy-siyosiy hayot o‘ta siyosiylashtirilib, o‘zgacha fikrlashlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borilar edi.

20-30 yillarda mustabid tuzumga qarshi fikr bildirganlarni ta’qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda “18 lar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik” kabi siyosiy ishlar to‘qib chiqarilgan edi.

O‘zbekistondagi hukumat va partiya organlarining vakolatlari masalasi tadqiq etilganda o‘n sakkizlar guruhining faoliyati va qismatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma’lumki, asosan hukumat a’zolari kirgan o‘n sakkizlar guruhni a’zolari O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti siyosatiga qarshi chiqqan edilar.

1925 yil noyabrda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan milliy rahbar xodimlardan 18 kishi (ular tarixiy adabiyotlarda “o‘n sakkizlar guruh” deb atalardi) 1925 yil 19-22 noyabrda Samarqandda bo‘lgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti plenumiga quyidagi ariza bilan murojaat qilgan edilar.

Ariza ostida O‘zbekistonda faoliyat olib borgan 18 nafar mas’ul milliy xodimlarning familiyasi va lavozimi yozilib, imzolari qo‘yilgan. O‘zbekiston SSR hukumati a’zolari, ayrim okruglar, viloyatlar, uezdlar, tumanlar va shaharlar rahbarlari, yirik xo‘jalik boshliqlari va partiya xodimlaridan iborat bo‘lgan va mazkur arizaga qo‘l qo‘ygan 18 nafar milliy xodimlar quyidagilar bo‘lib, ular ariza yozilgan 1925 yil noyabrda quyidagi rasmiy lavozimlarda faoliyat ko‘rsatishgan:

1. Abdurahim Hojiboyev - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; Farg‘ona okrugi partiya komiteti mas’ul kotibi.
2. Nuritdin Qoriyev - O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi a’zosi; O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi mas’ul kotibi.
3. Bahodir Maqsumov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; “O‘zbekxlopkom” boshqarmasi raisining o‘rinbosari.
4. Rahimjon Rahimboboyev - O‘zbekiston SSR Ichki ishlar komissari o‘rinbosari.
5. Inomjon Xidiraliyev - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari.
6. Mirzaxo‘ja O‘rinxo‘jayev - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zoligiga nomzod; Samarqand viloyati ijroiya komiteti raisi.
7. Muxtorjon Saidjonov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; Zarafshon okrugi partiya komiteti mas’ul kotibi.
8. Ismoil Bozorboyev - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; Qashqadaryo okrugi partiya komiteti tashkiliy bo‘limi boshlig‘i.
9. Rahmat Rafiqov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari.
10. Zokir Hasanov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; “Qizil Sharq” to‘qimachilik korxonasining Samarqand bo‘limi boshlig‘i.
11. Muhammadjon Karimjonov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; Toshkent shahar kasaba uyushmasi raisi.
12. Obid Maqsudov - O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a’zosi; Toshkent shahri 1-rayon partiya komiteti mas’ul kotibi.
13. Hayitdin Eshonov - Konibodom rayon partiya komiteti kotibi.

14.Abdurashid Mukamilov - O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a'zoligiga nomzod; Zarafshon okrugi ijroiya komiteti raisining birinchi o'rinosari.

15.Rahmatulla Muzaffarov - O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a'zosi; Zarafshon okrugi partiya komiteti targ'ibot tashviqot bo'limi boshlig'i.

16.Abdumajid Zokirov - O'zbekiston Kompartiyasi obkomi (oblast partiya komiteti) a'zosi; O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti zaxirasida turgan.

17.Nasm Shirinov - kommunistik partiya, ya'ni O'zbekiston Kompartiyasi a'zosi; Samarqand uezdi partiya komiteti mas'ul kotibi.

18.O'rino Ashurov - kommunistik partiya, ya'ni O'zbekiston Kompartiyasi a'zosi; Marg'ilon uezd - shahar partiya komiteti mas'ul kotibi.

O'zbekiston Kompartiyasi MK plenumi ushbu arizani ko'rib chiqishini RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosiga topshirgan. Mazkur arizadan so'ng plenum va O'zbekiston Kompartiyasi MK kotibiyatiga o'n sakkizlar arizasini qo'llab quvvatlab, 21 noyabrda yana 8 kishi (Abdurahmonov, Qodirov, Mirxo'jayev, Saidxonov, Musaxo'jayev, Olimjonov, Qurbonov, Isamuxamedov)dan ikkita ariza tushgan. Bu arizalarning birinchisini Zarafshon viloyati delegatlari va ayrim xodimlaridan Abdurahmonov, Qodirov, Mirxo'jayev, Saidxonov, Musaxo'jayev, Olimjonov, ikkinchisini O'rakepa uezdi ijroiya komiteti raisi Qurbonov va O'zbekiston LKSM MK tashkiliy ishlar bo'limi boshlig'i va O'zbekiston SSR MIK a'zosi Isamuhamedov kabi mas'ul xodimlar berishgan.

Ariza bergenlar bilan RKP(b) MK O'rta Osiyo birinchi kotibi I.A.Zelenskiy va Markazdan yuborilgan boshqa mas'ul xodimlar suhbatlashgan. Bu suhbat aslida tergov tusini olgan. Partiyaning ichki intizomiga qat'iy amal qilish, partiya saflarida hech qanday guruhbozlikka o'rin bo'lmasligi kabi talablar va turli tazyiqlardan so'ng 18 nafar kishidan 8 kishi (A.Hojiboyev, I.Xidiraliyev, M.O'rinxo'jayev, O'.Ashurov, H.Eshonov, A. Mukamilov, A.Zokirov, N.Shirinov) xato qilganliklarini "tan olib", arizadagi o'z imzolarini qaytarib olganliklari xususida ariza bergenlar. Qolgan 10 nafar kishi (N.Qoriyev, A.Muzaffarov, M.Saidjonov, R.Rafiqov, B.Maqsumov, I.Bozorboyev, O.Maqsumov, M.Karimjonov, Z.Hasanov, R.Rahimboboyev) qaytadan ariza yozishib, ishlarini O'rta Osiyo byurosida ko'rib chiqishni talab qilishgan.RKP(b) Markaziy Kontrol Komissiyasi Prezidiumi a'zosi M.V. Kosarev, RKP (b) Markaziy Kontrol Komissiyasi a'zosi D.Manjara va O'rta Osiyo byurosi tashkiliy – taqsimlov bo'limi boshlig'i A.Zdobnovdan iborat maxsus komissiya 1925 yil 22- 29 noyabrda ariza beruvchi har bir kishi bilan alohida savol-javob, aslida o'ziga xos so'roq o'tkazib, ariza yozishining sabablarini tekshirgan. Dekabr oyining boshlarida bu savol - javob yana takrorlangan.

Mazkur komissiyasining xulosalariga tayanib tarixchi Q.Rajabovning yozishicha, o'n sakkizlar guruhining harakatlarini O'zbekiston SSR hukumati boshlig'i Fayzulla Xo'jayev faol qo'llab- quvvatlagan. Hujjatda qayd qilinishicha, Fayzulla Xo'jayev bu guruhning rasmiy a'zosi bo'lmasa-da, ular faoliyatiga g'oyaviy rahnomolik qilib turgan. O'n sakkizlar guruhi a'zolari VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining O'zbekistondagi shovinistik siyosati hamda bu siyosatni yurituvchilari bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotiblari

Vladimir Ivanov va Akmal Ikromovning o‘lkada olib borayotgan siyosati va ish yuritish uslubiga qarshi norozilik bildirib, mazkur arizaga imzo chekkanlar.

Eng qizig‘i shundaki, so‘roq qilingan rahbarlarning barchasi mahalliy millatga mansub kishilardan iborat bo‘lib, so‘roq qilgan komissiya a’zolarining birortasi ham o‘zbek tilini bilmagan. Shu boisdan so‘roq qilish va stenogramma rus tilida olib borilgan. U davrda hali so‘roqqa tortilgan mahalliy millatga mansub rahbarlarning hammasi ham rus tilini birdek mukammal bilavermasligi, ruschani sal-pal tushunganlari ham o‘z mulohazalarini mazkur tilda erkin ifoda eta olmasliklari so‘roqqa tortilgan xodimlarda katta qiyinchilik tug‘dirgan. Shu boisdan ularning ba’zilari ariza yozishdan maqsadlari nima ekanligini oldindan qog‘ozga yozib olib, unga tayangan holda javob berishga harakat qilishgan. Komissiya a’zolari esa bu holatga siyosiy tus berib, ushbu “shpargalkalar” guruhbozlik kurashining g‘oyaviy rahnamolari tomonidan maxsus tayyorlab berilganligi xususidagi xulosaga kelganlar. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, respublika NKVD “uchlik” lari tomonidan 1937-39 yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi.

Millatning ilg‘or taraqqiyparvar ziyolilari qatag‘on qilinishi oqibatida xalqimiz ularning noyob asarlarini o‘qishdan uzoq vaqt mahrum bo‘ldi.

Ma’lumki, sovet hukmronligi davrida din davlatdan ajratilgan, deb e’tirof etilgan diniy e’tiqod goh oshkora, goh pinhona tarzda ta’qibu tazyiqqa olinar edi. Holbuki ijtimoiy hayot jabhasida e’tiqodsiz hayot kecherish mumkin emas. Sovet tuzumida bunga mutlaqo e’tibor berilmas edi. Balki, iloji boricha, dinga, diniy tarbiyaga to‘sinqilik ko‘p bo‘lib, jamiyatdan ularni siqib chiqarishga harakat qilingan. Sovetlarning e’tiqodi dahriylik edi. 30-yillarning boshi dindor va e’tiqodli kishilarga zo‘ravonlik va siyosiy qatag‘onlikning cho‘qqisi bo‘ldi.

3.4 Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.

XX asr 20-30 yillardagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat respublika ma’naviy-madaniy hayotida ham o‘z aksini topdi. Sovet davlatining “madaniy inqilob” tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san’at, maorif, oliy ta’lim sohalarini ham o‘z izmiga solgan edi. Ta’lim-tarbiyaning o‘choqlari bo‘lgan milliy maktablarga ham bu siyosat o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq an’anaviy ta’lim tizimini yo‘q qilish avj oldirildi.

Davlat “proletariat diktaturasi”ning mavjud barcha kuchlaridan foydalanib, sovet siyosiy rahbariyati qisqa muddat ichida Turkistonda Rossiya imperiyasi o‘rnatgan ta’lim tizimini yo‘q qilishga erishdi. Bir vaqtning o‘zida an’anaviy maktablarga nisbatan ham ma’muriy-repressiv hamda iqtisodiy choralar ko‘rildi. Biroq, keng xalq ommasi an’anaviy maktab tarafdori bo‘lib qolaverdi. Turkiston musulmonlariga o‘zining mafkuraviy ta’sirini kengaytirish maqsadida, sovet “milliy” maktablari tarmog‘ini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Mustabid

davlat muqobil o‘quv maskanlari faoliyatining barcha imkoniyatlarini cheklab qo‘ydi. 1927 yil iyundagi O‘z KP MQ VI plenumi qarorlari boshlab bergan, din asoslarini yemirish bo‘yicha yangidan avj olgan harakat eski maktabga yetkazilgan asosiy zarba bo‘ldi. Plenumning “Musulmon ruhoniylari va maktab to‘g‘risida”gi rezolyusiyasida: “Isloh qilingan mакtablar zararli ekanligini hisobga olib, bundan buyon vaqf mакtablarini isloh qilishga aslo yo‘l qo‘yilmasin, shu vaqtgacha isloh qilingan mакtablarga kelganda esa shu rayonda yangi sovet mакtablarini ochish, shuningdek isloh qilingan mакtablarda diniy fanlarni o‘qitishni hamda umuman ruhoniy shaxslar o‘qitishini ta’qiqlash yo‘li bilan ham ularni yopish uchun butun choralar ko‘rilsin”, deb ta’kidlangan edi.

Ayniqsa, 1927 yilning dekabrida VKP (b)ning XV syezdida qabul qilingan qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish to‘g‘risidagi qarordan keyin maxsus ma’rifiy hayriya mulklari bo‘lmish vaqf mulklari tugatilib, buning oqibatida an‘anaviy mакtablar ham iqtisodiy asosdan mahrum bo‘ldilar. Ushbu choralar kamdek, ularga din-xurofot o‘choqlari tamg‘asi yopishtirilib, o‘n asrdan ortiq to‘plangan an‘anaviy qadriyatlar keraksiz, zararli, yangi tuzumning taraqqiyot etishiga to‘sinq bo‘luvchi ijtimoiy institutlar sifatida izsiz tugatib yuborildi. Oxir oqibatda 1920 yilga kelib, TASSRda “sotsialistik” turdagи 2080 mакtab faoliyat ko‘rsatib, ulardagi o‘quvchilar soni esa, 174820 ni tashkil qilar edi.

An‘anaviy mакtab va madrassa hamda jadid mакtablarini yo‘q qilish bilan birga sovet organlari mahalliy aholi farzandlari mакtablariga ham jiddiy e’tibor berishmagan bo‘lsa-da, sovet o‘quv maskanlarini o‘qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag‘ bilan ta’minlay olish imkoniyatlarini topa olishgan. Chunonchi, sovet ta’lim tizimiga mos o‘qituvchi kadrlarning miqdoriy o‘sishini ta’minalash keng yo‘lga qo‘yilib, 1917 yilning o‘zidayoq Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo‘qonda dastlabki o‘qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan edi. 1920 - yillarning boshlariga kelib, mana shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta yevropalik o‘qituvchi tayyorlandi.

Mana shunday sharoitda mahalliy ziyorolar zamonaviy milliy oliy ta’lim tizimini yaratish, dunyoviy bilimlardan dars bera oladigan o‘qituvchilar tayyorlash davr talabi ekanligini teran his etib, zamonaviy universitet yaratishga qaror qildilar. O‘rta Osiyoning birinchi universiteti hisoblanmish hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti 1918 yil 12 mayda jadid ziyorolari tomonidan tashkil etilgan.

Munavvar Qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Musulmon Xalq universiteti (dorilfununi)ni tashkil etish guruhi saylanadi va 1918 yilning 9 aprelida uning hovlisida shu dorilfununning 9 kishidan iborat tashkiliy hay’ati ta’sis etiladi. Musulmon Xalq dorilfununi 1918 yilning 12 mayida Toshkent shahrining eski shaharida tantanali ravishda ochildi. Uning 13 ta mакtabi 14 maydan ochila boshladi, eng oxirgisi esa 17 iyunda tarkib topdi. Ulardan 4 tasi ayollar mакtabi edi.

1918 yilning 31mayida esa, Musulmon Xalq dorilfununning oliy ta’lim bosqichi- musulmon dorilmuallimini tashkil etiladi. Lekin sovetlar siyosiy va ijtimoiy muhitining murakkabligi va Rossiyadagi siyosiy voqealarni ro‘kach qilib, 5 yillik o‘qishga mo‘ljallangan dorilmualliminni faqat 4 oylik o‘qituvchilar kurslari

bilan chegaralab qo‘ydilar. Dorilfununning ”Xalq dorilfununi” nomli gazetasi birinchi sonining chiqishi ham ayni shu kunga to‘g‘ri kelgan edi.

Mazkur o‘quv dargohida mashg‘ulotlar 1918 yilning 1 iyunida quyidagi o‘qituvchilar tarkibi bilan boshlandi: Abdurauf Fitrat, Ibrohim Ismoil, Burhon Habib, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Rahimboyev, Abdurahmon Ismoilzoda, Haydar Shavqiy, Anna Poroykova, Vladimir Sergeyev. Institut mudiri qilib Ibrohim Ismoilov va kotib Abdulla Rahimboyev tayinlandi.

Musulmon dorilmualliminni Turkiston Xalq universiteti mablag‘ bilan ta’minlaganligi sababli, moddiy tomondan tamoman unga bo‘ysungan edi. Olingan mablag‘ ko‘p hollarda nochor ahvolda yashagan o‘qituvchilarning hayotini birmuncha bo‘lsa ham yengillashtirishga sarflanar edi. Mana shu muammolarning barchasi ko‘rsatib turganidek, musulmon o‘qituvchilari tayyorlaydigan kurslar emas, oliy ta‘lim maskani-institut nihoyatda zarurligini tushunib yetgan musulmon ziyolilari qanchalik harakat qilishmasin ularning talablari turli bahonalar bilan e’tibordan chetda qolaverdi. Tez orada Turkiston Xalq universiteti boshqarmasi dorilmualliminda 1918 yil 15 avgustdan 1 sentabrgacha o‘qish to‘xtatilishi haqida qaror qabul qiladi va shu yilning kuzida dorilmuallimin ikkinchi darajali tashkilot qatorida yopib qo‘yiladi.

Musulmon Xalq dorilfununi 1918 yilning kuzigacha, bor yo‘g‘i 100 kun faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa ham, Turkiston musulmonlarining savodini chiqarish, ilm-ma’rifatli qilish, oliy malakali milliy ziyolilar yetishtirish kabi ijobiy va himmatli, o‘sha davr uchun nihoyatda muhim ishlarni amalga oshirishga, yurtimizda maorif sohasini rivojlantirishga erishdi. O‘lkada milliy ziyolilarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan Musulmon Xalq dorilfununi faoliyati sovet davri adabiyotida mutlaqo yoritilmagan, u yerda dars bergen 300 ga yaqin o‘qituvchilarning nomlari hozirgi kunga kelib aniqlandi.

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng sovetlar sharq ayollarini ozodlikka chiqarish uchun kurash, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb qilish kampaniyasini avj oldirib yubordilar. Ushbu jarayonning eng cho‘qqisi 1927 yil bo‘lib, u tarixga ”Hujum” harakati nomi bilan kirdi. YA’ni, sovet adabiyotlari talqinida bu eski turmush tarziga hujum qilish ma’nosini anglatar edi. Hujumming oldiga qo‘ylgan birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bu- ko‘p xotinlikka chek qo‘yish, balog‘atga yetmagan qizlarni turmushga berishni ta’kidlvash va qalin pulini bekor qilish edi.

Biroq, sovetlar shiddatli tus bergen ushbu harakat asriy an’analarni hisobga olmagan qarorlar, ko‘rsatmalar asosida olib borildi, ko‘p hollarda zo‘rlik ishlatildi. Qaysi viloyat, qaysi tumanda, shahar va qishloqlarda qancha xotin-qizlar paranjisini tashlaganligi haqidagi ma’lumotlar muntazam talab qilina bordi. Ishda beboshlik tus olgandi: ko‘chalarda ayollarining paranjisini tortib olishar, bir joyga yig‘ib yoqib yuborishardi.

Sharq ayollarining asrlar davomida muayyan urf-odatlar va shariat mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeini ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida favqulodda va shiddat bilan o‘zgartirilishi ko‘p to‘qnashuvlar va qurbanlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 1928 yil 8 martda

O‘zbek davlat konsert va etnografiya guruhi ishtirokchisi To‘paxon sahnaning o‘zida o‘ldiriladi, bir yildan so‘ng esa Nurxon ismli aktrisa xalok bo‘ldi.

Shubhasiz, “Hujum” sharq ayollariga birmuncha erkinlik, huquqlar berdi. Lekin, ushbu xarakat bosqichma-bosqich, zo‘ravonlik usullarini ishlatmasdan, o‘ta noziklik bilan keng xalq omma ongini ushbu jarayonga tayyorlab amalga oshirilganda norasmiy nikohlar, ajralishlar, yolg‘iz onalar, demografik jihatdan ayollarning erkaklarga nisbatan ko‘pligi sababli jamiyatda oila qurish huquqidan mahrum bo‘lgan “ortiqcha” ayollar ko‘payib ketmas, erkaklar bilan ayollar o‘rtasida “tenglik” o‘rnatalishi oqibatida ayollar o‘zining sharqona latofatini yo‘qotib qo‘ymagan bo‘lar edi.

Kompartiyaning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qarorida ham o‘z aksini topdi. Buning sababini sovet hukumati ”madaniy o‘sishda texnik xususiyatga ega to‘sqliardan biri bu qoloq transkripsiadir” hamda ”an’anaviy arabcha yozuv faqatgina diniy muslimon an’analari nuqtai nazaridangina qimmatlidir” deb uqtirib, arab yozuvining mavqeini pasaytirishga harakat qildilar. Shu munosabat bilan O‘zbekiston communistlarining III -qurultoyi (1927 yil noyabr) “yangi lotin alifbosiga yanada shiddatliroq yo‘l bilan o‘tish kerak” deb ta’kidladi va 1929 yilda o‘zbek yozuvi lotin grafikasiga o‘zgartirildi. Chunki, O‘rta Osiyoni arablar istilo qilgan VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o‘n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o‘lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari ana shu yozuvda yaratilgan edi. Shu sababdan bu mahalliy xalqni nafaqat dinidan balki madaniyati, milliylikdan ajratib, sovet qolipiga majburan solish edi.

1940 yilda esa lotin grafikasining kirillitsa bilan shoshilinch almashtirilishi, O‘zbekiston aholisi bilim darajasining o‘sishiga, o‘zbek tilining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu holat savodsizlar sonining sun’iy o‘sishini keltirib chiqardi. Lekin eng achinarlisi, ma’naviy hayot to‘la ruslashtirilib, hamma joylarda o‘zbek tili imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi.

Mustabid tuzum sovetlarcha savodli shaxslarni shakllantirish, ”savodsizlik”ni tugatish borasida shiddatli kurashni avj oldirib yubordi va 1920 yilning 17 sentabrida TASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish to‘g‘risida dekret qabul qilinadi. Unga muvofiq, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan barcha fuqarolar o‘qish va yozishni o‘rganishlari shart bo‘lgan. TASSR Maorif xalq komissarligi huzurida esa savodsizlikni tugatish bilan shug‘ullanuvchi favqulodda komissiya ta’sis etiladi. ”Savodsizlikni tugatish” (likbez) maktab va kurslari tarmog‘ini yaratish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1920 yilning oxiriga kelib, ”likbez”larning soni bir mingdan oshib ketadi. Ularni bitirganlar esa 70 mingta edi. Ushbu maktablar uchun o‘qituvchilar tayyorlashga ham katta e’tibor qaratilib, qisqa muddatda mahalliy millatga mansub 2000 nafar o‘qituvchi tayyorlandi.

1924 yilning boshida esa ”Bitsin savodsizlik!” jamiyatni vujudga keladi. Uning o‘zagini o‘qituvchilar, talabalar tashkil qilgan. Savodsizlikni tugatish bo‘yicha ushbu jamiyat tomonidan dastlabki paytda 35 ta maktab ochilib, 10200 kishi o‘z savodini chiqardi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1937 yilga kelib,

respublikamizda savodsizlik tugatilib, kamsavodli kishilar soni 2 mlndan ziyod bo‘lgan. Aholining sovetlar idrokidagi umumiyligini savodxonligi 67,8% ga etgan edi.

Shu o‘rinda aytish muhimki, sovet sotsialistik davlatchiligi o‘zbek xalqining tub ma’naviy, axloqiy qadriyatlariga mos kelmas edi. Tarbiyaviy ishlar ham milliy manfaatlarni aks ettirmas edi.

Sovet hokimiyati yillarida, ayniqsa, 20-yillarda adabiy-madaniy hayot qizg‘in tus oldi. Jadid adabiyoti asr boshidan 20 yillik rivojlanish tajribasiga tayangan holda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilgan, ham shaklan, ham mazmunan barkamollik kasb etgan hamda mazmun mohiyatiga ko‘ra 20-yillarda yangi bir bosqichga ko‘tarilib, umumturkiy badiiy tafakkurning zabardast siymolari sifatida etirof etilgan Fitrat, Qodiriy, CHo‘lponni ma’naviyat maydoniga chiqardi.

YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYO QARASH.

4.1 O‘zbekiston tarixi faniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etilishining ahamiyati.

4.2 Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyo qarash

4.3 Mustaqillik yillari tarixini “Bumerang”, “Klaster”, “Krossvord” va (feedback) savollari anketasi vositalarida o‘rganish.

4.4 Yangi O‘zbekiston davrini raqamli ta’lim resurslari yordamida o‘rganish. Tarix darslarida 21 asr ko‘nikmalarini shakllantirish.

4.1. O‘zbekiston tarixi faniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etilishining ahamiyati

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har xil voqeal-hodisalarining izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy-evolyusion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o‘rganadi. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixinining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo‘lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shtigan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi.

Ta’kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o‘rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta’lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g‘urur hamda o‘zlikni anglash, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir. Aynan shuning uchun ham Oliy ta’lim tizimida «O‘zbekiston tarixi» fanini har tomonlama hamda chuqur o‘qitish maqsadida yangi avlod o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Tarixiy haqiqat to‘la ro‘yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektini to‘g‘ri belgilanishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki, O‘zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masala bo‘lib hisoblanadi. Zero, fan uning o‘rganish predmeti va obyekti aniq bo‘lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo‘lib, maqsadga erishish mushkul bo‘ladi. Bunday holat o‘quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiyat va tabiat fanlaridan farqli o‘laroq mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o‘z o‘rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o‘z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta’sir etadi. Bu uning o‘rganish predmeti va obyekti hamda vazifasida to‘la namoyon bo‘lmog‘i kerak. Tarix fani o‘z xususiyatiga ko‘ra, **birinchidan**, o‘zining butun diqqat e’tiborini faqat o‘tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma’naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o‘rganadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandir. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqe va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqe va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe’ bo‘lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, bo‘lib o‘tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston tarixi fani mamlakatimiz o‘tmishidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o‘rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo‘ladi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tarixi fani ko‘p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o‘zaro bog‘liqlikda, bir butunlikda o‘rganadi. O‘zbekiston tarixi fani, O‘zbekistonning o‘tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti hamda tanazzulini tahlil qiladi. Uning o‘rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqe va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taaluqli bo‘lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o‘z aksini topadi. Tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqe, hodisa inson (yoki uning bir guruhi-xalq) hatti-harakati, uning ko‘zlagan ma’lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo‘ladi. O‘zbekiston tarixi fanining o‘rganish makoni-obyekti O‘zbekistonning tarixidir. Tarixiy obyekt (makon)ga nisbatan O‘zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo‘nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi

belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqeja va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyekti bitta ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiatdir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki boshqa fanlarning hammasi ham, tarix mahsulidir.

Qisqa qilib aytganda, tarix fani ya'ni, Vatan tarixi-millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, **birinchidan**, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. Chunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. **Ikkinchidan**, Tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish-tarixga qarab, keljakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati, iste'dodi, voqealarni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darjasini, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha say'i-harakatlari va intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki halqning

umummadaniy-ma’naviy darjası, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o‘ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa, ana shu o‘ta murakkab, o‘ta ziddiyatli, shu bilan birga nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi. Nazarimizda, bu holat tarix falsafasini o‘zida ifoda etadi.

4.2. Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyo qarash

Ma’lumki, 2021 yilda xalqimiz necha yuz yillik tarixi davomida orzu qilib, intilib yashagan va XX asr so‘ngida erishgan, mamlakatimiz hayoti va taqdirida tub burilish yasagan, tom ma’nodagi buyuk, olamshumul voqeа – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e’lon qilinganiga o‘ttiz yil to‘ladi.

Mustaqillik yillarda ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi o‘zining buyuk salohiyati, mustahkam irodasi va matonatini namoyon etdi, og‘ir sinov va mashaqqatlarni mardona yengib, katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Yurtimiz ilgarigi iqtisodiyoti bir tomonlama shakllangan, qoloq respublikadan barcha sohalarda jadal rivojlanib, fuqarolarning hayot darjası, siyosiy-ijtimoiy faolligi, ongu tafakkuri tobora yuksalib borayotgan, jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida uzoq-yaqindagi barcha mamlakatlar bilan do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini keng miqyosda olib borayotgan zamonaviy, ochiq va demokratik davlatga aylandi.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarimiz natijasida, ayniqsa, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini hayotga joriy etish asosida mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotini tubdan yangilash, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini real voqelikka aylantirish borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda.

Jahon miqyosida davom etayotgan koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqirozga, shuningdek, boshqa turli tahdid va xatarlarga qaramasdan, xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi amaliy harakatlari izchil davom ettirilmoqda.

Jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhiti mustahkamlamoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar, hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda qaysi sohalarda ulkan ishlar amalga oshirildi

- davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar*
- sud-huquq tizimidagi islohotlar va inson xuquqlarini himoyalash*
- korrupsiyaga qarshi kurashish*
- ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish*
- ta’lim, tarbiya va ilm-fanni rivojlanishi*

- xotin-qizlar siyosati va gender tenglik*
- 5 ta muhim tashabbus*

Yurtimizdagи har bir insonning izzat-hurmatи va qadr-qimmatini joyiga qо‘yish, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining barcha qatlamlarini qо‘llab-quvvatlash doirasidagi ishlarni salmog‘i juda keng. Xususan:

Davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar. Prokuratura, Ichki ishlар, Milliy gvardiya, bank kabi barcha ijtimoiy-siyosiy organlarning xalqqa xizmat qilish uchun ishlay boshlaganligi, “**xalq davlat idoralariга emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak**” degan tamoyil amalda ishlayotganligini ko‘rish mumkin. Har bir organ vakillarining mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, odamlarning hayotiy muammolarini o‘rganmoqda, ularni qonuniy asosda hal qilish uchun amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Yana bir misol, Prezidentga **murojaatlarning** to‘g‘ridan to‘g‘ri tashkil etildi. 2020 yilda **806 mingta** murojaat ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, **456 mingtasi (57%)** qanoatlantirildi. Taxlil qilib ko‘ring, qaysi davlatda yoki qaysi davrda fuqaro to‘g‘ridan to‘g‘ri mamlakat rahbariga murojaat qila olgan? **Xalq qabul xonalarini** tashkil etildi. Sayyor qabullar boshlandi. Uyma-uy yurib aholi muammolarini xal etish yo‘lga qo‘yildi. Xalq bilan muloqot shakli va mazmuni tubdan yaxshilandi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar va inson xuquqlarini himoyalash. Inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta‘minlovchi huquqiy tizim yaratildi. Masalan, jinoiy jazoga tortilgan va qilmishidan pushaymon bo‘lgan bo‘lgan **4 600 nafardan** ziyod shaxslarga avf etildi (tarixda ilk bor). “**Qora ro‘yxat**” yo‘q qilindi. Inson xuquqlari va qiynoqlari masalasida uzoq yillar xalqaro maydonda e’tiroz va tanqidlarga sabab bo‘lgan “**Jasliq koloniyasi**” yopildi. Ko‘p yillar davomida yurtimizda yashab, mehnat qilib kelayotgan bo‘lsada, fuqarolik ololmay yurgan **50 mingdan ziyod kishiga** (1995 yilga qadar O‘zbekistonda kirib kelganlar) O‘zbekiston fuqaroligi berildi. “**Propiska**” tizimi soddalashdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qо‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi etildi. Davlat xizmatiga **halollik standarti** (*halollik vaksinasi*) joriy etildi. **Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish.** “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo‘yicha ulkan ishlар amalga oshirildi. Axolini uy-joy bilan ta‘minlashga ustuvor ahamiyat karatilmoqda. 2016 yilda **26 mingta** yaqin uy-joylar qurilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni yiliga **50 mingdan** oshdi. “Sardoba suv ombori” dagi texnogen halokat oqibatida zarar ko‘rgan tumanlarda aholi uchun qisqa muddatda **1 ming 480** xonadondan iborat bo‘lgan **37 ta ko‘p** qavatli uylar qurildi. Bu borada Andijonda ham qilinayotgan ishlар salmog‘lidir. Joriy yilda viloyatimizda **9 ta ko‘p** qavatli uylar qurilib egalariga topshirildi. Andijonda oldin yiliga 100 km yo‘l

asfalt qilingan. Xozirda yiliga 1000 km yo‘l asfalt qilinmoqda. Bugungi kunda ehtiyoj **7 ming** km tashkil etadi.

Ta’lim, tarbiya va ilm - fanning rivojlanishi. Mamlaka-timizda ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyoililarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish bo‘yicha qanchadan qancha ishlar amalga oshirildi. So‘ngi to‘rt yil ichida o‘qituvchi va marubbiylarni oylik maoshlari 3 barobardan **10 barobar gacha** ko‘ratildi.

Xotin-qizlar siyosati va gender tenglik. So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlar masalalariga, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, maishiy hayotdagi muammolarini hal qilish, iqtidori va imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Ularning yuqori davlat tashkilotlaridagi faoliyatini salmog‘i oshirildi. Xususan, Bugungi kunda yurtimizdagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida **1 ming 400 ga yaqin** ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xotin-qizlarimiz orasidan Oliy Majlis Senatida – **17 nafar senator**, Qonunchilik palatasida – **21 nafar deputat** faoliyat olib bormoqda. Mahalliy kengashlarda esa xalq vakillarining **23 foizdan ziyodini xotin-qizlar** tashkil etadi. Respublika bo‘yicha joriy yilning may oyida fuqarolar yig‘inlari raisligi uchun o‘tkazilgan saylovlarda **1 ming 25 nafar ayol** o‘zini o‘zi boshqarish idoralari raisi lavozimiga saylandi. Shu o‘rinda BMT Bosh kotibi Antonio Guterrishning “**Qayerdaki siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo‘lsa, o‘sha joyda iqtisodiyot o‘smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda**”, deb ta’kidlagan fikrlari o‘rinli ekanligini ko‘rish mumkin. Buyuk davlat arbobi Indira Gandining “**Bitta qiz bolani o‘qitsangiz, butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz**”, degan so‘zlarida katta hayotiy haqiqat borligini albatta hammamiz yaxshi tushunamiz. Shuning uchun joriy yilda qishloq joylarda yashayotgan, kam ta’minlangan oilalarga mansub qizlarimiz oliy o‘quv yurtlarining kunduzgi bo‘limida davlat granti asosida o‘qishlari uchun **940 ta o‘rin** ajratildi.

Xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minalash, ularning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha **852 nafar** ayolga **14 mlrd 563 mln so‘m** miqdordagi boshlang‘ich badallar to‘lab berildi. **2000 nafar** xotin-qizlarning kichik biznes loyixalari uchun davlat byudjetidan **42 mlrd 800 mln so‘m** miqdordagi kredit ajratildi. Bularning barcha tush emas, ayni haqiqat. Shu o‘rinda donishmand xalqimizning **ayolga - avlod davomchisi** sifatida qaralishi, bu kelajak avlod uchun qanchalik e’tibor berilayotganligidan dalolat.

4.3. Mustaqillik yillari tarixini “Bumerang”, “Klaster”, “Krossvord” va (feedback) savollari anketasi vositalarida o‘rganish.

1-ilova.

“Case study” № 1

“A” shaxs o‘zining tumanida bolalarga ta’lim berish uchun bepul maktab ochdi va unda ilmiy bilimlarning boshlang‘ich bosqichida ta’lim berishga kirishdi. Qayd etib o‘tish kerakki, maktab tashkil etilganligi, ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlar cheklangan oila farzandlari uchun o‘ziga

xos imkoniyatlar edi. Lekin ushbu shahar hokimi maktab faoliyatini tugatishni talab qildi va buning sababi sifatida maktab faoliyati milliy manfaatlarimizga mos kelmasligini keltirdi.

Ushbu vaziyatni o‘rtta asrlarda islom dinida ilgari surilgan “ilm olmoq, ilmu hikmatni orzu qilmoq, ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilatlari” va shuningdek, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda millat taqdiri va kelajagining ilm-ma’rifati, ta’lim va tarbiya bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil qiling. Bu muammoning yechimini 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakat strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalalar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Baholash:

Avvalo, mazkur holatni tahlil qilish jarayonida talaba o‘rtta asr islom dinida ilm sohasidagi ishlar, milliy ma’rifat bilan ilm o‘rgatishning bog‘liqligi, jadid adiblarining asarlarini aynan “O‘zbek modeli”ning o‘ziga xos va mos bo‘lgan milliy jihatlarini ekanligi orqali quyidagi asoslarni muhokama etish lozim:

- xalqimizning savodxonligini ko‘tarish orqali milliy ma’naviyatimizni mustaxkamlash (Yuqoridagi shahar hokimi tomonidan yo‘l qo‘yilgan e’tiborsizlik);
- Xalqimizning milliy qadriyatlarini yaxshi anglamasligi, buyuk allomalarning asarlarini yuzaki bilishi;
- Vatanparvarlik va oshkorlik (Fuqarolar tomonidan Hokimiyat idoralari, “Xalq qabulxonalariga” mazkur holat yuzasidan shikoyat orqali fuqarolik murojaatlarini yo‘llamasligi, ya’ni jonbozlik ko‘rsatmasligi;
- Xalqimiz, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligi yetarlicha emasligi.

Mazkur holatga baho berishda o‘rtta asr islom dini allomalar va jadid namoyondolarining keltirilgan asoslantiruvchi fikrlari, O‘zR Prezidenti SH.Mirziyoyevning ushbu masala yuzasidan g‘oyalarni o‘rinli va asosli keltirish mazkur “case-studu”ga yuqori baho berilishi ehtimolini oshiradi.

Taxminiy baholash shakllari (10 ball misolida)

9-10 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan 4 muammoning har birini chuqur anglay olgan, o‘rtta asr va jadidchilik davridagi asarlarini bilish bugungi kundagi ba’zi bir muammolarning yechimi bo‘lishi mumkinligini tahlil qilgan, jadid namoyondalari asarlaridan o‘rinli va asosli iqtiboslar keltirgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni anglagan, lekin aynan muammolar yechimiga oid ma’lumotlar bilan asoslanmagan bo‘lsa;

7-8 – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan 4 muammoning faqat 2 tasini asosli tahlil qila olgan, jadid namoyondalari asarlaridan yuzaki iqtiboslar keltirgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni anglagan, lekin aynan muammolar yechimiga oid ma’lumotlar bilan asoslanmagan bo‘lsa;

5-6 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan muammolarning faqat bittasini asosli aniqlagan, ammo o‘rtta asrlarva jadidlarning muammoga joriy etish mumkin bo‘lgan asoslarini noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa; jadidchilarning asarlaridan muammoni yechimini asoslashga to‘liq mos bo‘lmaseda, iqtiboslar keltira olgan bo‘lsa.

0-4 ball – talaba holatning mazmunini umuman tushunmagan, anglamagan bo‘lsa; muammolarni yuzaki tahlil qila olgan bo‘lsa; talabaning fikrlaritizimlashmagan, yakuniy xulosalar bera olmagan; jadidlarning asarlaridan muammoni yechimini asoslashga to‘liq mos bo‘lmaseda, iqtiboslar keltira olgan bo‘lsa.

“Case study” № 2

“A” mahallada yashovchi afg‘on millatiga mansub bola uynash uchun ko‘pchiligi o‘zbek millatiga mansub “V” maxallaga bordi. Yosh bolalar o‘ynab o‘tirganida “S” ismli o‘zbek millatiga mansub shaxs bolalarning oldiga kelib, ushbu bola terrorchi millat farzandi bilan o‘ynamasliklari kerakligini va bu ularning xavfsizligi uchun jiddiy xavf ekanligini aytib, o‘z farzandini ular orasidan olib ketdi.

Ushbu vaziyatni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirning Harakatlar strategiyasining 5-yo‘nalishi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenlik masalalari va milliy g‘oyaning mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan jamiyat mafkurasi ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari nuqtai nazaridan tahlil qiling.

Baholash:

Avvalo, mazkur holatni tahlil qilish jarayonida talaba 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 5-yo‘nalishi “Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”ini, Prezident SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan tarixiy nutqi va BMT Xavfsizlik Kengashining (Prezidentimiz tashabbusi) “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi ahamiyatiga va millatlararo totuvlik g‘oyasining maqsadlariga asoslangan holda muhokama etish lozim:

- *Xalqimizning bag‘rikengligi, millatlararo yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari orqali milliy ma’naviyatimizni mustahkamlash (Yuqoridagi fuqaro tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan millatchilik ruhi va bu muhitning yoshlarga salbiy ta’siri)*
- *Insonparvarlik va vatanparvarlik (fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan fuqarolar o‘rtasida, ayniqsa mahallalarda tushuntirish-targ‘ibot ishlarini olib borishda yo‘l quyilgan kamchiliklar)*

Mazkur holatga baho berishda Prezident SH.Mirziyoyevning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash borasidagi g‘oyalariqa asoslangan holda tahlil qilinsagina yuqori ball to‘plash ehtimoli oshadi.

Taxminiy baholash shakllari (10 ball misolida)

9-10 ball – talaba holatning mazmunini to‘liq anglagan, unda bayon etilgan muammoning mag‘zini chuqr anglay olgan, ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratini tahlil qila olgan bo‘lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarni maqsadini va unga qarshi kurashda shaxsiy takliflar bera olgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g‘oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkmlagan bo‘lsa.

7-8 – talaba holatning mazmunini anglagan, lekin unda bayon etilgan muammoning mag‘zini yuzaki anglay olgan, ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratini tahlil qilishga faqat xarakat qilgan bo‘lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarning maqsadini va unga qarshi kurashda shaxsiy takliflar bera olgan bo‘lsa; 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g’oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkamlagan bo’lsa.

5-6 talaba holatning mazmunini anglagan, lekin unda bayon etilgan muammoning yechimiga yuzaki qaragan bo’lsa; ushbu vaziyatning oqibatlarini va oldini olish zaruratiniz tahlil qilgan, lekin shaxsiy munosabat va takliflar bera olmagan bo’lsa; Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlarga yengil-yelpi munobat bildirib, maqsadini yuzaki tahlil qilgan bo’lsa; 2017 – 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili Davlat dasturida ilgari surilgan g’oyalarni teran anglashi va mavzuga oid ma’lumotlar bilan mustahkamlashga qiynalgan bo’lsa.

0-4 ball-talaba holatning mazmunini umuman tushunmagan, anglamagan bo’lsa; muammolarni yuzaki tahlil qila olgan, yakuniy xulosalar bera olmagan; Umumiy fikrlar bilan cheklangan bo’lsa.

2-ilova.

“Case study” ni muhokama qilishda quyidagi shartlarga e’tiborni qarating!

1. Diqqat bilan muammoning asosiy maqsadini aniqlang
2. Muammoli vaziyatli real hayotiy holatlar bilan taqqoslashga xarakat qiling
3. Ehtimoli bo’lgan “to’siqlar” ni aniqlang
4. Muammoni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarini aniqlang
5. Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega bo’lgan jihatlarni aniqlang
6. Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg‘ab oling
7. Muammoni hal etishning muqobil yo’llarini belgilang
8. Fikrlarni tizimlashtiring hamda yakuniy xulosarni tayyorlang

3-ilova.

“Assignment”

TEST	Tizimli va aniq yozing
<p>1.1991 yil 25 avgustdagи O’zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko’ra:</p> <p>A. Respublika ichki ishlар vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O’zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.</p> <p>B. Respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilish nazarda tutildi.</p>	<p>Taraqqiyotning “O’zbek modeli” ning o’ziga xos va mos bo’lgan tamoyillarini sanab bering</p>

S. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shinlari partiyadan xoli qilindi.

D. a, b, s javoblar to'g'ri

2. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshinchi yo'naliishi qanday nomlangan?

A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish

B. Ijtimoiy sohani rivojlantirish

C. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish

D. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik

3. Prezident SH.Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning 4chisini tanlang

A. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish

B. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni tugaraklarga jalb qilish

C. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni malaka va ko'nikmalarini oshirish.

D. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni turli xil loyihalarda ishtirokini faollashtirish.

ATAMA

"Ommaviy madaniyat" ning izohini yozing.

AMALIY KO'NIKMALAR

"Mustaqil bo'lsang □ mustaqil bo'l, davlat bo'lsang □ davlat bo'l!" degan g'oyaning mazmun-mohiyati.

4.4. Yangi O'zbekiston davrini raqamli ta'lim resurslari yordamida o'rganish. Tarix darslarida 21 asr ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarixda hamma narsaning o‘z o‘rni va o‘z vaqtি bor. Bugungi kunda XX asrning industrial jamiyati sharoitida inson uchun foydali bo‘lgan hamda uning savodxonligini belgilovchi assosiy bilim va ko‘nikmalar (o‘qish, yozish va arifmetik savodxonlik) dolzarb ahamiyat kasb etmay qoldi. Buning sababi nimada? Gap shundaki, XXI asr ta’lim oluvchilarining aksariyati uchun bilim, bu o‘zlashtirilgan axborotdir. Nega deganda, o‘quvchi va talabaning barchasida cheksiz Internet global tarmog‘iga ulangan gadget, mobil telefon borki, ular yordamida kerakli axborotni uch soniya ichida topib olish imkoniyati mavjud. Biroq, ularda mana shu axborotni bilimga aylantirish ko‘nikmasi yetarli emas. Afsuski, ushbu holat hozirgi kunga kelib fundamental bilimlarning qadriyat sifatidagi qiymati va nufuzining pasayishiga olib kelmoqda.

Bugungi reallik tarixiy ta’limning yangi strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Zero, tarixiy ta’lim talabalarda nafaqat ensiklopedik bilimlarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmasdan, ta’lim oluvchilarda tanqidiy va analitik tafakkur, mustaqil fikr, obyektivlik va manipulyatsiyalarga bardoshlilik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish, mamlakat tarixining har bir jihatini o‘rganish, tarixni soxtalashtirish kabi holatlarni o‘ta tanqidiy tadqiq qilish ,fanlararo va multidissiplinar yondashuv ustuvor bo‘lishini taqozo etadi.

Darhaqiqat, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asr ijtimoiy gumanitar, xususan tarix ta’limi oldiga ham bir qator yangi vazifalarni qo‘ydi va tarixni raqamlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

XXI asr tarixchisi, fundamental tarixiy bilimlaodan tashqari , zaru kompetensiyalarga, yumshoq ko‘nikmalarga (soft skills) ega bo‘lishi kerak, shu jumladan, masofadan turib faoliyat olib borish, big date professionali , ya’ni, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash: ularni to‘plash, boshqarish, mustaqil ravishda ta’lim olish,, IT- texnologiyalar asoslarini nafaqat bilish, turli formatdagi raqamli resurslarni yarata olish va b.

Raqamli onlayn tarixiy manbalarning ko‘payishi tarixiy ta’limning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Lekin shuning bilan birga bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, virtual makondagi tarixiy manbalarning qanchalik darajada ishonchliligi va haqqoniyligi shular jumlasidandir. Shu bois, kelajak tarixchilar arxiv hujjatlari, tarixiy asar, tarixiy xarita, tarixiy film va shunga o‘xhash manbalarni mustaqil tarzda raqamlashtirishni bilishlari zarur.

Ayni paytda global Internet tarmog‘ida tarix darslarini raqamli formatda interfaol olib borish tarixchilar uchun muhim bo‘lgan statistika, xaritalar, tarmoqlar va rasmlar kabi turli formatdagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun foydalanuvchilarga qulay vositalar talaygina. Masalan,, AQShning Jorj Meyson universitetining, tarix va yangi medialarni o‘rganish Roy Rozensvay (RRCHNM) markazida, ikkita mashhur, bepul va ochiq kodli dasturiy mahsulotlar: Zotero i Omeka ishlab chiqildi.

<https://kahoot.com/> – viktorina, didaktik o‘yin, so‘rovnoma va testlarga mo‘ljallangan dastur va onlayn ilova. Uning yordamida darslarni ham interfaol , ham raqamli formatda olib borish mumkin.

<https://ru.wix.com/> - saytlar konstruktori. Bepul sayt yaratishni ikki yo‘l bilan amalga oshirish mumkin: Wix redaktorida yoki ADI makonida.

Bunda sun’iy intellekt soniyalar ichida tayyor dizayn va kontentni foydalanuvchiga taqdim etadi.

<https://www.polleverywhere.com/> - Onlayn so‘rovnomalar servisi

<https://wordwall.net/ru/> - shaxsiy ta’lim resurslarini yaratishga mo‘ljallangan onlayn servis

<https://www.canva.com/> - grafik dizaynlar onlayn servisi

Shubhasiz, ayni paytda raqamli manbalar va tarixiy materiallar bilan onlayn foydalanishning imkoniyatlari keng. Alovida ta’kidlash joizki, zarur axborot manbalarni global tarmoqda yanada samarali qidirish, raqamli manbalarni qayta ishlashga, raqamli ilmiy mahsulot yaratishga imkon beradigan raqamli vositalar yetarli darajada mavjud. Fikrimizcha, tarixiy ta’lim fundamental bilimlar qatorida, 21 asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi kerak. Buning uchun ta’lim metodlarini yangilash va har bir mavzu mohiyatidan kelib chiqib, ta’lim usullarini unga moslashtirish lozim. Odatda tarixiy mavzular katta hajmli, ko‘p dalil va sanalarni o‘z ichiga olgani bois, ulardagi asosiy g‘oyani yo‘qotmagan holda ixchamlashtirish (raqamlashtirish) maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

-
1. Mirziyoyev SH. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016.
 2. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.
 3. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
 4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishlari buyicha Harakatlar strategiyasi
 - 5.O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. -T.: “Sharq”, 2000.
 6. I.Shamsiyeva, L.Maxmutxodjayeva, F.Usarova. Interaktivniye metodi obucheniya istorii Uzbekistana. T., 2019
 7. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot solnomasi. T., “O‘zbekiston”, 2020

VI. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

ZAMONAVIY TA'LIM INNOVATSIYALARI TUSHUNCHASI VA ULARNI O'ZBEKISTON TARIXI FANIGA TADBIQ ETISH.

- 1.1 Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ahamiyati.
- 1.2 O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Antropogenez jarayoni

1-topshiriq.

Innovatsyaning davlat va jamiyat rivojidagi o'rni.
Aqliy hujum qilib, baliq skleti metodida joylashtiring.

2-topshiriq.

Antropogenez o'zarishlar ketma-ketligini tuzib chiqing?
Ushbu holatini klaster ko'rinishida tushuntiring

Adabiyotlar ro'yxati:

16. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
17. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. Toshkent: Meros, 1992.
18. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiy. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
19. Bromley Y. Ocherki teorii etnosa. – M.: Nauka, 1983.
20. Vishnevskaya O.A. Kultura sakskix plemen nizovyev Sirdari v VII-V vv. do n.e. – M.: Nauka, 1983.
21. Gumilyov L.N. Etnogenez i biosfera zemli. – M.: Nauka, 1993.
22. Karmisheva B.X. Ocherki etnicheskoy istorii yujnix rayonov Tadzhikistana i Uzbekistana. M.: Nauka, 1976.
23. Kratkiy etnologicheskiy slovar. – M.: Sotsialniy monitoring, 2000.
24. Kuzmina YE.YE.Otkuda prishli indoarii? Materialnaya kultura plemen andronovskoy obshnosti i proisxojdeniye indoiransev. – M., 1994.
25. Rteladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
26. Rteladze E.V., Sagdullayev A.S. Sovremenniye mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii / Izdaniye 2-ye, dopolnennoye. – Tashkent, 2007.
27. Xodjayov T.K. O'zbek xalqi etnogenezi tarixidan. – Toshkent, 1995.
28. Xodjayov T.K., Xodjayova G.K. Istoricheskaya antropologiy. Uzbechi. – M.: Nauka, 2011.
29. Shoniyofov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: Fan, 1990.
30. Shoniyofov K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Fan, 2001.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINING JAHON TARIXIGA TUTGAN O'RNI.

Nazorat savollari

- 2.1. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligi tarixida qanday voqealar sodir bo'ldi.
- 2.2. Ikkinci Renessansning – rivoji nima?

1-topshiriq.

Amir Temur davrida qanday davlat institutlari shakllantirildi?

Klaster tuzing.

2-topshiriq.

O'zbekistonda o'rta asrlarda innovatsiyalarning yuz berishi va holatini klaster ko'rinishida tushuntiring.

Adabiyotlar ro'yxati:

10. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
11. Nelson R. Timur is mil itary strategist and geopolitical. It modern interpretation in world history — T., 1996, P. 17-19.
12. The Cambridge history of Iran the Timurid and Safarid Period, J\`e 6, Cambridge University Press.
13. Spuller Bertold Timur // The pnongol Period. History of the muslim world. Leiden. Brill, 1960, copyright, 1969, 1994.
14. O'ljayeva SH. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2005.
15. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
16. Temur tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
17. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar) - Toshkent:O'zbekiston NMIU, 2010.
18. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2014.

MUSTAQILLIK DAVRI TARIXINI O'RGANISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.

Nazorat savollari

4.1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonda Prezident institutining joriy etilishi.

4.2. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ning tahlili.

1-topshiriq.

1985-1990 yillardagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlar haqida nimalarni bilasiz? Analitik tahlil qilib, B-B-B jadvaliga joylashtiring!

2-topshiriq.

O‘zbek modeli va taraqqiyot strategiyasini tahlil qilib, klaster ko‘rinishida tushuntiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishlari buyicha Harakatlar strategiyasi

3. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. -T.: “Sharq”, 2000.

4. I.Shamsiyeva, L.Maxmutxodjayeva, F.Usarova. Interaktivniye metodi obucheniya istorii Uzbekistana. T., 2019

GLOSSARIY

- Avorizot** - favquloddagi xarajatlar uchun to‘planadigan yig‘im.
- Avfoq** - masjid va madrasalarning vaqf ho‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi.
- Agema** - Makedoniyalik Aleksandrning maxsus otliq qo‘shini.
- Ajam** - arab xalqlari va mamlakatlaridan o‘zga yurt va xalqlar.
- Azaxurra** - otashparastar sig‘inadigan muqaddas olov, o‘t.
- Akkor** - koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.
- Amazonkalar** - qadimgi yunon asotirlarida qurollangan jangchi ayollar.
- Amiri shikor** - sulton oylarini tashkil etgan.
- Amid ul-mulk** - davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir ul-umaro** - amirlar amiri, bosh sarkarda.
- Amir ul-a’lam (a’lamdor)** - sulton bayroqdori.
- Anabasis** - yunoncha davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan harbiy yurish.
- Anaxita** - suv, yer va hosildorlik ilohasi.
- Animizm** - insonni qurshab turgan muhitda ruhlar va jonlarning mavjudligiga ishonish.
- Antik davr** - qadimgi dunyo tarixi davri.
- Ariz** - qo‘shin ta’moti bilan shug‘ullanuvchi vazir.
- Ark** - ichki qal’a, hukmdorning shahar ichidagi qo‘rg‘on - saroyi, qarorgohi.
- Aryonam Vayjo (Aryonam Vaychax)** - oriylarning dastlabki vatani.
- Arxeologiya** - yunoncha “arxayos” - qadimgi, “logos” - fan, qadimshunoslik.
- Axriman** - zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, o‘lim, gunoh va barcha yovuzlik xudosi.
- Assimilyasiya** - qorishib ketish, aralashish.
- Axuramazda** - zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug‘lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.
- Basilevs** - yunoncha “podsho”.
- Band** - toshlardan bino qilingan suv omborining to‘g‘oni, suv ombori; to‘g‘on.
- Banno** - g‘isht teruvchi binokor.
- Bantak** - qul.
- Barzikor** - qo‘shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.
- Barid** - kirim.
- Barot** - ijaraga olish.
- Bek** - el-yurt, viloyat hokimi.
- Begor** - jamoat ishlariga safarbar etish; hashar.
- Biy** - urug‘, qabila oqsoqoli.
- Boj** - savdogardardan olinadigan soliq.
- Borgoh** - podshoh saroyidagi qasr, qabulxona.
- Bosqoq** - mug‘ullar hokimlik qilgan XIII-XIV asrlardagi mahalliy hokim.
- Bronza** - mis bilan qalay qotishmasi.
- Burong‘or** - qo‘shining o‘ng qanoti.
- Burj** - shahar va qal’a devorlaridagi harbiy minora.
- Burg‘u** - karnay.
- Budun** - chorvador aholi, qora budon - qora, oddiy xalq.

Vara - devor bilan o‘ralgan to‘rtburchakli istehkom.

Vazir - devonxona boshlig‘i.

Vazkirom - soliq yig‘uvchi, moliya xodimi.

Vag‘n - ibodatxona.

Vag‘npat - ibodatxona ruhonasi.

Vag‘nze - ibodatxona yer va mulklari.

Vis - “Avesto”da - urug‘.

Visoqboshi - to‘rt nafarli askariy guruh boshlig‘i, chodir boshlig‘i.

Goplit - yunon-makedonlarning og‘ir quollangan jangchisi.

Gipparx - Makedoniyalik Aleksandr davrida fors satrapini o‘rniga tayinlangan viloyat hokimi.

Davirpat - kotib, elchi, sarkotib.

Debo - tovlanuvchi nafis ipak mato.

Dehnishin - o‘troq, qishloq aholisi.

Diadoxlar - Makedoniyalik Aleksandr davlatini qismlarga bo‘lib, o‘z qullariga kiritgan lashkarboshilar, “merosxo‘rlar”.

Dehqon - ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi”, yer egasi.

Digir - charxpakal va chig‘irlarga ariqdan yoki chig‘ir handaqdan suv botirgich ko‘za.

Dinor - bir misqol (4,8 gr) og‘irlikda zarb etilgan oltin yoki kumush tanga.

Dmana - “Avesto”da - oila.

Dovul - katta nog‘ora.

Dorug‘a - harbiy ma’mur.

Dorug‘ona - dorug‘alar foydasiga olinadigan to‘lov (soliq).

Dudang - hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.

Do‘lob - charxpakal; quduqdan suv chiqaradigan charx.

yom - jom, savdo yo‘llaridagi qo‘noq.

Jizya - islom diniga o‘tmaganlardan olinadigan jonboshi solig‘i.

Jome’ - masjid - juma kunlari jamoat nomozni o‘qiladigan katta masjid.

Joriya - cho‘ri.

Juvong‘or - qo‘shinining so‘l qanoti.

Juybon - suv taqsimlovchi mirob.

Zantu - “Avesto”da - qabila.

Zakot - chorvadan olinadigan soliq, to‘plangan boylikdan daromad solig‘i.

Zarbxona - chaqa va tangalar zarb etiladigan ustaxona.

Zobitona - kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to‘lov (soliq).

Ibodatxona - muqaddas deb e’lon qilingan, qadimda odamlar xudolarga sig‘ingan bino yoki joy.

Izofa - zahira qism.

Ilmi aruz - poetika.

Ila - yunon- makedonlar safida otliq harbiy qo‘shin (200 ta suvoriy)

Ilmi hayat - astronomiY.

Innovatsiya - yangilanish, tarixiy jarayonda, madaniyatda, fanda vujudga kelgan yangi uslublar, ixtiolar va kashfiyotlar.

- Ixshid*** - ilk o‘rta asr viloyati hokimi, alohida mulk hukmdori.
- Iqto’, iqta*** - yirik mansabdorlarga hadya etilgan yer va mulk.
- Kadivar*** - ilk o‘rta asrlarda yirik yer egalariga qaram bo‘lgan ziroatkor qishloq aholisi; chorikor.
- Kavi*** - “Avesto”dagi mamlakat sardori, podshosi.
- Kaviylar*** - Kayyoniylar “Avesto” va “Shohnoma”dagi podsholar sulolasni.
- Kalavachi*** - ip yigiruvchi.
- Kalon*** -XIII asrdagi yer solig‘i.
- Kanbul*** - qo‘riqchi askariy bo‘linma.
- Karbos*** - bo‘z; paxta ipidan to‘qilgan mato.
- Karsharvar*** - zardushtiylar ta’limotida dunyoning iqlim qismlarini belgilab beruvchi tushuncha.
- Kashovarz*** - ilk o‘rta asrlardagi ozod qo‘shchi, ziratkor.
- Kahhol*** - ko‘z tabibi.
- Keshik*** -XIII asrda mug‘ullar qo‘shnidagi zahira qism; gvardiya, guruh.
- Kibor*** - aslzoda ulug‘ kishilar.
- Koriz*** - er osti suv inshooti.
- Korikor*** - xizmatkor.
- Kofiya*** - arab tili morfologiysi.
- Koshin*** - sirli, rangdor, qurilishdagi sopol bezak.
- Koh*** - saroy, ichki qal’a, ark, o‘rda.
- Kohin*** - qadimda ibodatxonalarda diniy marosimlarni amalga oshiruvchi e’tiqodlar xizmatchisi, xudolar va odamlar o‘rtasida vositachi, ibodatxona ruhoniysi.
- Koroplastika*** - sopol haykalchalar.
- Ko‘handiz*** - hukmdor qarorgohi.
- Ko‘ragon*** - xon kuyovi.
- Ko‘shk*** - istehkomli baland uy-qo‘rg‘on.
- Qissador*** - hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig‘ib, payshanbadan jumaga o‘tar kechasi sultonga topshiruvchi amaldor. U eng obro‘li mansabdorlardan biri bo‘lgan.
- Labirint*** - tanbur, dalon, darvoza oldi istehkomi (adashturuvchi yo‘lak)
- Lavh*** - yozuv taxtasi, yozuv kursichasi, yoki kursi.
- Lak*** - yuz ming.
- Lahm*** - yer osti yo‘li.
- Loyqoq*** - sel loyqalari qoplagan maydon.
- Madrasa*** - oliy diniy ilmgoh.
- Majus*** - otashparast.
- Majusiy*** - otashparastlik dindori.
- Manglay*** - ilg‘or guruh.
- Mesh*** - suv yoki qimiz olib yuradigan teri xalta yoki to‘rva, sanoch.
- Mikrolit*** - mayda tosh qurol.
- Mirixazora*** - minglik harbiy bo‘linmaning amiri (sardori).
- Mirob*** - suv ho‘jaligi boshqaruvchisi.
- Mirobona*** - suv solig‘i.

Moi sardaraxt - bog‘ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.

Muzoriy - qo‘shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.

Mulk - hususiy er.

Mulki vaqf - madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.

Mulki devoniy - davlat yerlari.

Mamlakai xos - davlat mulklari.

Musallas - uzum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob, may.

Mustavfiy - markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi; moliya vaziri.

Muxassilona - soliq yig‘uvchilar uchun to‘lov.

Muhrkash - chit va matolarga gul bosuvchi.

Muxtasib - o‘rta asrlarda maxsus davlat amaldori, bozorlarda tosh va tarozilarning to‘g‘riligini hamda savdoni nazorat qilish, mahsulotlarning sifatini tekshirib turish, qoida buzarlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi ishlarni amalga oshiruvchi shaxs.

Mushrif - saroy ish boshqaruvchisi.

Muqto’ yoki iqtador - iqto’ yer va mulklariga ega bo‘lgan yer egasi.

Muhoraba (mahoraba) - jang, urush, harbiy to‘qnashuv.

Muhrdor - devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi.

Naus - zardushtiy xilxonasi, ossuariylar saqlanadigan inshoot.

Naf - shahar va qishloq aholisi.

Naftandoz - neftli va pilikli ko‘zachalarni irg‘itadigan palaxmon, harbiy moslama.

Nasassalar - zardushtiylar dafn marosimlarini amalga oshiruvchi kishilar.

Nmana - “Avesto”da oila jamoasi, uy

Nova (nov) - suv tashlag‘ich tarnov; suv tashlag‘ich.

Nomozgoh - iyd ibodatlari o‘qiladigan masjid; iydgoh.

Nohid - zardushtiylarning hosildorlik va farovonlik ma‘budasi.

Numizmatika - tangashunoslik fani.

Oykumena - yunonlar tasavvurlarida insonlar joylashgan dunyo hududlarining chegaralari.

Oriylar (ariylar) - bronza davrida O‘rta Osiyo, Eron va Hindiston hududlariga Yevrosiyo dashtlaridan kirib kelgan chorvador qabilalar, boshqa nazariyalarga ko‘ra, ular Old Osiyodan kelib chiqqanlar.

Ostadon (ossuari) - sopol tobutchasi.

Otashkada - muqaddas o‘choq; o‘txona, olovxonasi.

Otashgoh - zardushtiylarda muqaddas olov yonib turgan maxsus joy, inshoot, ibodatxona.

Ohangar - temirchi.

Payza - mo‘g‘ullar davrida imtiyozli shaxslarga beriladigan yorliq.

Paykon - kamon o‘qi yoki nayzaning tosh, suyak yoki metalli uchi.

Palahmon - toshotar; harbiy qurol.

Pandus - ko‘tarma yo‘l.

Parchin - sirlangan rang-barang g‘isht parchalari.

Polis - yunoncha “shahar”.

Poykor - kichik mirob; qishloq mirobi.

Rabod - shaharning tashqi qismi, karvonsaroy.

Rais - shahar hokimi.

Ra'dandoz - o't otgich; harbiy qurol.

Riyoziyot - matematika.

Savquljaysh - strategiY.

Sadoq - o'qdon.

Sadoqxona - kamon va o'qdonlar ombori.

Sardoba (obdon) - pishiq g'ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.

Sarissa - yunon-makedonlar qurollangan 4 metr uzunligidagi og'ir nayza.

SariShumor - jonbosh solig'i.

Sarroj - egar va jabduq yasovchi usta.

Satrap - harbiy-ma'muriy o'lka hokimi (ahamoniylar va antik davrda).

Satraplik - hududiy-ma'muriy bo'lim, alohida yoki viloyatlar birlashmalari (ahamoniylar va antik davrda).

Strateg - mudofaa va qo'shin vaziri (antik davr).

Saxronishin - sahroyi, tuyakash.

Sohibi jamoa - hosil miqdorini belgilovchi ma'mur uchun yig'iladigan to'lov.

Sohibi muayyid - maktubod va axborot vaziri.

Sohibi Shurot - harbiy vazir.

Suvoriy - otliq askar.

Suyurg'ol - oliv tabaqa zodagonlariga in'om qilingan er-mulk.

Terrakota - loydan ishlangan va xumdonlarda pishirilgan sopol haykalchalar.

Tavajjuhoti xorijiy - favquloddagi xaratjalalar solig'i.

Tamg'a - savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.

Tanob - 200-250 kv. m. hajmdagi er maydoni.

Tarbiyat ul-jaysh - harbiy taktika

Tashtdor - sulton hammomlari va hovuzlarning boshlig'i. Uning qo'lida ko'plab qullar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, Xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayozga keyinchalik malik (hokim) unvonini ham bergan.

Tirkash - kamondan o'q uzadigan nishon tuynugi.

Totem - urug' yoki qabila jamoalari sig'inadigan hayvon, o'simlik yoki jism.

Totemizm - totemlarga sig'inish.

Toq yoki tim - usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.

Tudun - turk hoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili, viloyat hokimi.

Tuman - o'n minglik harbiy qism.

Tuman og'asi - o'n minglik askariy qism amiri, qo'mondon.

Tug'ro - davlat nishonasi, ramzi, gerbi.

Urbanizatsiya - aholi va ishlab chiqarishning shaharlarda to'planish jarayoni.

Usturlob - astronomiya asbobi.

Ushr - hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.

Farmondor - boshqaruvchi.

Farna - zardushtiylardagi baxt va tole xudosi.

Farrosh - sulton o'rni-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i bo'lib, uning

ixtiyorida gilam, chodir, ko‘rpa-to‘shaklar bo‘lgan. Farroshga ko‘plab o‘rgatilgan qullar xizmat qilgan.

Fulus - mayda chaqa.

Xabargir - xabarchi, ayg‘oqchi, kuzatuvchi.

Xazora - minglik askariy bo‘linma.

Handaq - mudofaa inshooti, zovur.

Xaraju maraj - boshboshdoqlik, o‘zboshimchalik, beboshlik.

Xatib - din peshvosi.

Xattot - kitob, risolalar ko‘chiruvchi kotib.

Xvabu - viloyat hokimi, yirik yer egaligi.

Xvatov - hokim.

Xiroj - hosilning 25-33% hisobida olinadigan qishloq ho‘jalik solig‘i; XV asrda bu soliq “mol” deb yuritilgan.

XonaShumor - har xonadondan olinadigan jonboshi solig‘i.

Xonaqoh - g‘aribxona, musofirxona.

Xonbodi (konbandi) - suv ombori, katta hovuz.

Hoqon yoki qog‘on - hukmdor yoki podsho.

Xronologiya - asrlar, davrlar, vaqt o‘lchovi haqidagi fan, yunoncha “xronos” - vaqt, “logos” - fan so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha.

XuShun - yuz nafarlik harbiy bo‘linma.

XuShunboshi - yuzlik bo‘linma zobiti.

Chilangar - temirchi.

Chilangarlik - temirchilik.

Chig‘ir -tuya yoki ho‘kiz qo‘shib aylantiriladigan suv ko‘targich inshooti.

Chokar - harbiy drujina, ko‘ngillilar to‘dasi.

Chokardiza - chokarlar qala’si, turar joyi.

Chorikor - hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo‘shchi ziroatkor.

Chohpar - o‘ra.

Shajara - kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik majmui.

Shayxulislom - din va ilm peshvosi.

Sharobdor - sulton sharobxonasining boshlig‘i.

Shahriston - ichki shahar.

Shod - o‘n minglik lashkar boshlig‘i.

Shulen -XIII asrda olingan oziq-ovqat solig‘i.

Eloq - kichik yurt, kichik mulk.

Etnogenez - xalq va elatlarning kelib chiqish jarayoni.

yabg‘u yoki jabg‘u - el-yurt hokimi, mahalliy hokim.

yasovul - soqchi.

yasoqlar - Chingizzon joriy etgan qonun-qoidalar to‘plami.

O‘lpon - er solig‘i.

O‘rdugoh - qo‘shin lageri to‘xtaydigan qo‘noq; podsho qarorgohi.

O‘tloq va suvoq - yaylovlardan olinadigan soliq.

Qabo - ustki kiyim, yopinchiq.

Qayr - daryo, anhor yoki shohariq bo‘ylaridagi tabiiy namli yerlar.

Qam - shaman, ko‘k tangriga sig‘inuvchilar e’tiqodi.

Qasr - saroy, oliy va hashamatli bino.

Qopchur - mug‘ullar davrida chorvadan olinadigan soliq.

Qoraxon - buyuk hoqon.

Qutvol - davlat qurilishi boshlig‘i, sarkori, qal’a va qo‘rg‘on soqchisi, qarorgoh nazoratchi.

Qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha - atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan darvozали istehkom.

Qo‘sh - bir juft xo‘kiz bilan haydalanadigan er maydoni.

G‘ozi - din homiysi, din yo‘lida kurashuvchi.

G‘oziy - g‘olib.

G‘uvokor - savdogar (ilk o‘rta asrlar).

G‘ul - muntazam qo‘shin.

Haylboshi - suvoriyalar amiri, o‘nlik amiri.

Xaoma - efedrin, ninabargli o‘simlik yoki g‘iyohvand o‘simliklardan ishlab chiqarilgan va sut bilan aralashtirilgan, kishini kayfiyatini ko‘taruvchi va mast qiluvchi ichimlik.

Hojib - harbiy boshliq.

Hojib ul-buzruk - qo‘mondon.

Hojib ul-hujob - bosh qo‘mondon.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishlari buyicha Harakatlar strategiyasi
- 3.O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: "Sharq", 2000.
4. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
5. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. Toshkent: Meros, 1992.
6. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiy. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
7. Bromley Y. Ocherki teorii etnosa. – M.: Nauka, 1983.
8. Vishnevskaya O.A. Kultura sakkix plemen nizovye Sirdari v VII-V vv. do n.e. – M.: Nauka, 1983.
9. Gumilyov L.N. Etnogenet i biosfera zemli. – M.: Nauka, 1993.
10. Karmisheva B.X. Ocherki etnicheskoy istorii yujnix rayonov Tadzhikistana i Uzbekistana. M.: Nauka, 1976.
11. Kratkiy etnologicheskiy slovar. – M.: Sotsialniy monitoring, 2000.
12. Kuzmina YE. YE. Otkuda prishli indoarii? Materialnaya kultura plemen andronovskoy obshnosti i proisxojdene i proisxojdene indoiransev. – M., 1994.
13. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
14. Rtveladze E.V., Sagdullayev A.S. Sovremennye mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii / Izdaniye 2-ye, dopolnennoye. – Tashkent, 2007.
15. Xodjayov T.K. O'zbek xalqi etnogenezi tarixidan. – Toshkent, 1995.
16. Xodjayov T.K., Xodjayova G.K. Istoricheskaya antropologiy. Uzbeki. – M.: Nauka, 2011.
17. Shoniyozi K.SH. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: Fan, 1990.
18. Shoniyozi K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Fan, 2001.
19. Shamsiyeva, L. Maxmutxodjayeva, F. Usarova. Interaktivniye metodi obucheniya istorii Uzbekistana. T., 2019
20. Nelson R. Timur is mil itary strategist and geopolitical. It modern interpretation in world history — T., 1996, P. 17-19.
21. The Cambridge history of Iran the Timurid and Safavid Period, J^r 6, Cambridge University Press.
22. Spuller Bertold Timur // The pnomogol Period. History of the muslim world. Leiden. Brill, 1960, copyright, 1969, 1994.
23. O'ljayeva SH. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2005.
24. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
25. Temur tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

26. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar) - Toshkent:O‘zbekiston NMIU, 2010.
27. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2014.